

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

AKADEMIYA

SUD HAL QILUV QARORLARI, AJRIM VA
QARORLARINING QONUNIYLIGI VA
ASOSLANTIRILGANLIGINI
TEKSHIRISH

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent – 2016

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining
Tahririyat-noshirlilik hay’atida ma’qullangan*

Muallif:

yuridik fanlar doktori, professor **E.Egamberdiyev**

Taqrib chilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Monitoring instituti yuridik
guruh rahbari yuridik fanlar doktori,
professor **M.M.Mamasidiqov**;

Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik protsessual va xo‘jalik
protsessual huquqi kafedrasi mudiri, yuridik fanlar nomzodi,
dotsent **D. Xabibullayev**

Egamberdiyev E.

**E-18 Sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarining qonuniyligi va
asoslantirilganligini tekshirish:** O‘quv qo‘llanma. –O‘zbekiston
Respublikasi IIV Akademiyasi. – T., 2016. – 84 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma birinchi instansiya sudsulari tomonidan mazmunan ko‘rib hal qilingan, fuqarolik ishlari bo‘yicha qabul qilingan va qonuniy kuchga kirmagan, hal qiluv qarori va ajrimlarini appellatsiya tartibida, shuningdek, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarorlarini kassatsiya tartibida tekshirish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy masalalar, jumladan, appellatsiya hamda kassatsiya tartibida ish yuritish tushunchasi, ahamiyati, obyektlari, subyektlari, ish qo‘zg‘atish asoslari, shikoyat va protestlar bo‘yicha ishni qayta ko‘rish tartibi, muddatlar doirasi, sudsarning vakolatlari atroflicha yoritib berilgan.

Qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining tinglovchilariga, huquqshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha litsey va kollej o‘quvchilari va talabalariga, Toshkent Davlat Yuridik Universiteti talabalariga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga va barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan.

BBK 67.99(5U)92ya73

SO‘ZBOSHI

Mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan keng qamrovli islohotlar zamirida inson manfaati yotadi. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligi, O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidan amalga oshirishligi, asosiy qonunimizning “Xalq hokimiyatchiligi”ga bag‘ishlangan ikkinchi bobiga tegishli bo‘lgan 7-moddasining mazmunida o‘z ifodasini topgan¹.

Davlat hokimiyatining birdan-bir manbai bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi xalqining shaxsiy huquqlari hamda erkinliklari siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek ularning qonun bilan himoya qilinadigan qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Fikrimizning dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliv qadriyat” mavzusida qilgan ma’ruzasida: “Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari, ularni har tomonlama himoyalash va ta’minalash, jamiyatni demokratlashtirish yo‘llari haqida gapirar ekanmiz, bu mavzu dunyoda har doim, ayniqsa so‘nggi paytlarda eng o‘tkir dolzarb masalaga aylanib borayotganligini kuzatish mumkin va buni tabiiy hol deb qarashimiz kerakligi”² to‘g‘risida bergen ko‘rsatmalarini keltirishimiz mumkin.

“Inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini amaldagi qonunlar asosida himoya qilish sud-huquq islohotlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri ekanligi va bu borada ularning haq-huquqlarini chinakamiga himoya qiluvchi sud organlarini joriy etish va bu boradagi islohotlarni davom ettirish, advokat bilan proku-

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2015. – Б.5.

² Каримов И.А. Инсон, унинг хукуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – олий қадрият. – Т., 2005. – Б.5.

rorning sud jarayonida teng huquqligini ta'minlash kabi masalalar Prezidentimizning O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi¹da shuningdek, "Bizning maqsadimiz erkin va farovon, demokratik hayot qurish"² deb nomlangan ma'ruzasida ham o'z ifodasini topgan.

Fuqarolik protsessual huquqiga oid bo'lgan dolzarb masalalardan biri bu- "Sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarini qonuniyligi va asoslantirilganligini tekshirishdir. Bu qo'llanmada sud hal qiluv qarorlari va ajrimlarini (appellatsiya , cassatsiya tartibida ish yuritish orqali tekshirish turlari) haqida so'z yuritiladi. O'zbekiston Respublikasining yagona sud tizimiga kiradigan umumyurisdiksiya sudlari o'zlariga taalluqli bo'lgan fuqarolik ishlarini fuqarolik qonunchiligidagi belgilab qo'yilgan tartibda mazmunan ko'rib hal qilish yo'li bilan fuqarolar hamda yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari hamda qonun bilan himoya qilinadigan qonuniy manfaatlarini himoya qiladilar. Bunday vazifalarni umumiylashtirish o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida FPK normalari asosida sud ishlarini yuritish tartibida amalga oshiradilar.

Birinchi instansiya sudlari sud majlisida ko'rib hal qilingan ish yuzasidan qonuniy, asoslantirilgan hal qiluv qarori ajrim chiqarsa, sudga da'vo bilan murojaat qilgan shaxs (da'vogar) hamda javobgar manfaatdor shaxs sifatida hech qachon yuqori sudga shikoyat qilmaydi. Prokuror esa bunday hal qiluv qarori va ajrimiga protest keltirmadi. Hal qiluv qarori ustidan yuqori sudga shikoyat berish yoki protest keltirish uchun birdan-bir asos sud majlisida mazmunan ko'rib hal qilingan ish yuzasidan qabul qilingan sud hal qiluv qarorining qonunga zid bo'lishi, asoslantirilmaganligi yoki adolatsizligi hisoblanadi.

Birinchi instansiya sudlarining hal qiluv qarorlari va ajrimlarining qanchalik qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini tekshirish, bular ustidan appellatsiya yoki cassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki keltirilgan protestlar bo'yicha ishlar, tegishli bo'lishiga qarab appellatsiya, cassa-

¹ Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б.7-10.

² Каримов И.А. Юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т., 2015. – Б.37-66.

tsiya instansiyasi sudlari tomonidan qayta ko‘rib hal qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Bu turdagи ish yuritishlarning asosiy maqsadi birinchi instansiya sudlari tomonidan ko‘rib hal qilingan ishlar yuzasidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirmagan va qonuniy kuchga kirgan appellatsiya tartibida ko‘rilman hal qiluv qarorlari, ajrimlar ustidan FPKning 320, 348⁹- moddalarida ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan appellatsiya hamda kassatsiya tartibida berilgan shikoyat (protest) bo‘yicha ishni qayta ko‘rish orqali odil sudlov hujjati hisoblangan hal qiluv qarori yoki ajrimlardagi xatoliklarni bartaraf qilish yo‘li bilan appellatsiya yoki kassatsiya sudiga murojaat qilgan shaxslarning buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini o‘z vaqtida himoya qilishga qaratilgan. Ushbu qo‘llanma appellatsiya va kassatsiya tartibida sud ishlarini yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy masalalarni chuqur o‘zlashtirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi tinglovchilariga, huquqshunoslik universiteti, huquqshunoslik fakulteti, huquqshunoslik litsey va kollejlari talabalariga, huquqni himoya qiluvchi organlar xodimlariga, shuningdek, yuridik sohaga qiziquvchilarga bag‘ishlangan.

I BOB. SUD HAL QILUV QARORLARI, AJRIM VA QARORLARINING QONUNIYLIGI VA ASOSLANTIRILGANLIGINI TEKSHIRISH

1-§. Sud qarorlari ustidan shikoyat qilish, protest keltirish va ularni qayta ko‘rishning umumiy qoidalari

Amaldagi fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Ushbu qonun hujjatlari sud buyrug‘i asosida hal qilinadigan, da‘vo tartibidagi , davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan berilgan shikoyatlar bo‘yicha hamda alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko‘rib chiqish va hal etish tartibini belgilaydi.

Fuqarolik ishlarini ko‘rib hal qilishning barcha bosqichlarida ishlarni ko‘rib hal qilish O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining normalari bilan tartibga solinadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Fuqarolik protsessual qonun hujjatlari ayrim normalarini sudlar tomonidan qo‘llanilishi haqida”gi (2003 yil 19 dekabr), “Fuqarolik ishlarini appellatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti haqida”gi (2004 yil 21 may), “Fuqarolik ishlarini ko‘risha sudlar tomonidan dalillarga oid qonun normalarini qo‘llanishning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi (2007 yil 2 oktabr), “Fuqarolik ishlari bo‘yicha ekspertiza tayinlash, o‘tkazish va ekspert xulosasiga baho berishda kelib chiqadigan ayrim masalalar haqida”gi (2008 yil 12 dekabr) qarorlari sud amaliyotida ishlarni ko‘rib hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalari ko‘ra, fuqarolik sud ishlarini yuritishning har bir turiga oid bo‘lgan fuqarolik ishlarini, fuqarolik protsessual qonunchiligidagi belgilab qo‘yilgan tartibda quyi sudlar tomonidan ko‘rib hal qilish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf qilish, o‘z mohiyatiga ko‘ra, yuqori sudlar oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Shunday ekan, quyi sudlar tomonidan fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida fuqarolik ishlarini ko‘rib hal qilish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlab, ularni tuzatish, o‘z-o‘zidan amalgalashmaydi. Buning uchun kimlar va qanday protsessual vositalar bilan yuqori sudlarga murojaat qilish huquqiga ega ekanligini, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarning obyektlari nimalardan iborat ekanligini hamda ularni tuzatish uchun nimalarga asosan tegishli bo‘lishiga qarab yuqori

sudlar ish qo‘zg‘atishligini hamda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish qanday huquqiy oqibatlarga olib kelishi masalalarini aniq bilib olish o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning har bir turiga oid fuqarolik ishlari o‘zining sudlovligi bo‘yicha birinchi instansiya sudlarining sudloviga tegishli bo‘lganligi uchun ushbu ishlar birinchi instansiya sudlari tomonidan sud majlisida mazmunan ko‘rib hal qilinadi. Bu degani, yuqori instansiya sudlari, sudlarga taalluqli bo‘lgan ishlarni mazmunan ko‘rib hal qilish vakolatiga ega emas ekan, degan ma’noni bildirmaydi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 142-moddasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudi, Fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari o‘z vakolatlariga berilgan fuqarolik ishlarini, shuningdek, alohida holatlarni hisobga olib har qanday fuqarolik ishini Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hududidagi fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudidan olib, birinchi instansiya sudi sifatida o‘zining ish yuritishiga qabul qilib olishga yoki bir suddan boshqa tegishli sudga o‘tkazishga haqli ekanligi ko‘rsatilgan bo‘lsa, 144-moddasida esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudloviga taalluqli ishlar ko‘rsatilgan.

Ushbu moddada ko‘rsatilishicha, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonunda o‘z vakolatiga berilgan fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqadi, shuningdek alohida holatlarni hisobga olib, har qanday fuqarolik ishini O‘zbekiston Respublikasining istalgan sudidan olib, birinchi instansiya sudi sifatida o‘zining ish yuritishiga qabul qilib olishga yoki bir suddan boshqa tegishli sudga o‘tkazishga haqli.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan moddalarning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, yuqori instansiya sudlari ham o‘zlariga berilgan vakolatlardan foydalanib, birinchi instansiya sudlarining sudloviga tegishli bo‘lgan fuqarolik ishlarini, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo tuman (shahar) sudlaridan olib birinchi instansiya sudi sifatida o‘z ish yuritishiga qabul qilib olgan bo‘lsa, ushbu ishni appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida emas, birinchi instansiya sudi sifatida mazmunan ko‘rib hal qilib ish yuzasidan o‘zining qarorini, hal qiluv qarori shaklida chiqarishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining barcha bo‘g‘inidagi sudlar o‘zlariga berilgan vakolatlari doirasida fuqarolik ishlarini ko‘rib hal qilishda tegishli bo‘lishiga qarab hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqaradilar. Sudlar tomonidan fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida fuqarolik ishlarini sud tomonidan sud majlisida mazmunan ko‘rib hal qilish borasida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, sud tomonidan ko‘rib hal

qilingan ish yuzasidan qabul qilingan hal qiluv qarorida, ajrim yoki qarorda namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun har bir sud bo‘g‘ini o‘ziga berilgan vakolat doirasida ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi bo‘yicha chiqaradigan hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorini protsessual qonunchiligidagi belgilab qo‘yilgan talablarga javob beradigan qilib chiqarishi kerak. Chunki, sud qarorlari jismoniy va yuridik shaxslarning nizolashayotgan yoki buzilgan subyektiv huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularni tiklash borasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan odil sudlov hujjati hisoblanadi va ular o‘z navbatida sud qarorlariga qo‘yilgan talablarga javob berish kerak. Aks holda sud qarorlari shaxslarning buzilgan huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning kafolati borasidagi ahamiyatini yo‘qotadi.

Sud qarorlariga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilar hisoblanadi:

- 1) qonuniy bo‘lishligi;
- 2) asoslantirilgan bo‘lishligi;
- 3) adolatli bo‘lishligi.

Sud qarorlari (hal qiluv qarori, ajrim, qaror) ushbu talablarga to‘la javob beradigan qilib sudlar tomonidan sud majlisida ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi bo‘yicha qabul qilingan bo‘lsa, ishda ishtirok etuvchi shaxslar hech qachon bunday sud qarorlaridan norozi bo‘lmaydilar va tegishli tartibda yuqori sudlarga murojaat ham qilmaydilar. Sud qarorlari ustidan yuqori sudlarga murojaat qilishga birdan-bir asos – bu sud qarorining qonuniy emasligi, asoslantirilmaganligi yoki adolatsizligidir. Shunday ekan, birinchi navbatda kimlar sud qarorlari ustidan undagi xato va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun qaysi sudlarga qanday tartibda murojaat qilish huquqiga ega ekanligini bilish muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolik ishi yuzasidan sudning chiqargan hal qiluv qarorining qonuniyligi, asoslantirilganligi va adolatli ekanligini, ya’ni undagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun yuqori sudga protsessual qonunchiligidagi belgilab qo‘yilgan protsessual vositalardan (apellatsiya shikoyati (protesti), kassatsiya shikoyati (protesti), nazorat tartibida mansabdor shaxslar tomonidan keltirilgan protest, yangidan ochilgan holatlar bo‘yicha ariza)dan foydalanib, quyidagilar murojaat qilish huquqiga ega:

- taraflar (da’vogar hamda javobgar);
- uchinchi shaxslar;
- taraflar hamda uchinchi shaxslarning vakillari;
- ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlar haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar;
- prokuror;

- davlat boshqaruvi organlari va ularning vakillari;
- o‘zi chiqargan hal qiluv qarori (ajrimi), qarorining bekor qilinishidan rozi bo‘lmagan sudya.

Ushbu masala FPKning 310-moddasida ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb bayon etilgan bo‘lsa-da, unda ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasi ko‘rsatilmagan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan shaxslar, sud hal qiluv qarori (ajrim) va qarorlarining qanchalik qonuniy, asoslantirilgan va adolatliligini tekshirish uchun yuqori sndlarga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar hisoblanadi. Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini ko‘rib hal qilish borasida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni tuzatishning obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

- a) fuqarolik ishlari bo‘yicha birinchi instansiya sndlari tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari;
- b) o‘z vakolatlari doirasida fuqarolik ishlarini birinchi instansiya sudi sifatida ko‘rib hal qilgan yuqori instansiya sndlari tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari;
- v) tegishli bo‘lishiga qarab yuqori sndlар tomonidan qabul qilingan ajrim va qarorlar.

Aynan ana shu odil sudlov hujjatlari fuqarolik ishini ko‘rib hal qilish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni tuzatishning obyektlari hisoblanadi.

Sud qarorlaridagi yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni yuqori sndlар tomonidan bartaraf qilish uchun nimalar asos bo‘lishini bilib olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sud qarorlarining qonuniy asoslantirilgan va adolatli bo‘lishini tekshirish uchun asos yuqori instansiya sudiga protsessual qonunchiligidagi belgilab qo‘yilgan protsessual vositalar (shikoyat, protest, ariza) bilan murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan appellatsiya, kassatsiya tartibida keltirilgan shikoyatlar (protestlar), mansabdor shaxslar tomonidan nazorat tartibida keltirilgan protestlar, yangidan ochilgan holatlar bo‘yicha ishni qayta ko‘rish to‘g‘risidagi ariza hisoblanadi. Bu asoslar, bir vaqtning o‘zida sud qarorlaridagi xato va kamchiliklarni tuzatish uchun yuqori instansiya sndlарida ish qo‘zg‘atishning asosi ham hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 311-moddasida sud qarorining qonuniy, asoslantirilganligi va adolatli ekanligi yuzasidan tekshiruv qo‘zg‘atish asoslari ko‘rsatilgan. Ushbu moddaning mazmuniga ko‘ra, quyidagi asoslarga ko‘ra, tegishli bo‘lishiga qarab, yuqori sndlар, sud qarorining qonuniy asoslantirilgan va adolatli bo‘lishligini tekshiradi:

- 1) qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan berilgan appellatsiya shikoyati yoki appellatsiya protesti bo'yicha;
- 2) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan ajrimi ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki xususiy protest bo'yicha;
- 3) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyati yoki kassatsiya protesti bo'yicha;
- 4) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan ajrim ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki xususiy protest bo'yicha;
- 5) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim, qaror ustidan nazorat tartibida protest keltirish to'g'risida berilgan arizaga asosan nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan nazorat tartibida keltirgan protesti bo'yicha;
- 6) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim va qarorni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqida berilgan ariza bo'yicha. Bular o'z navbatida, tegishli bo'lishiga qarab, yuqori instansiya sudsida ish qo'zg'atish, ishni qayta ko'rib chiqish uchun asos hisoblanadi.

Yuqori instansiya sudsida tegishli tartibda berilgan shikoyat, protest yoki arizaga asosan sudsida tomonidan ko'rib hal qilingan ishlar bo'yicha qabul qilingan sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarning qanchalik qonuniy, asoslantirilganligi va adolatlilikini tekshiradilar.

Fuqarolik ishlarini ko'rib hal qilish jarayonida yo'1 qo'yilgan odil sudsida hujjatlaridagi xato va kamchiliklarni tuzatish bo'yicha yuqori instansiya sudsida ish qo'zg'atish asoslariga ko'ra ish qo'zg'atish va ularni tekshirishdan asosiy maqsad bu sudsida ko'rib hal qilingan fuqarolik ishi bo'yicha obyektiv haqiqatni aniqlash yo'li bilan hal qiluv qarori, ajrim va qarorlarda yo'1 qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf qilish yo'li bilan shaxslarning buzilgan huquqlari hamda qonun bilan himoya qilinadigan qonuniy manfaatlarini himoya qilish va buzilgan subyektiv huquqlarini buzilmasdan oldingi holatini tiklashdan iborat.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida fuqarolik ishini ko'rib hal qilishda yo'1 qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish hamda sud qarorlarni tekshirish quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) birinchi instansiya sudi tomonidan sud majlisida mazmunan ko'rib hal qilingan fuqarolik ishi bo'yicha qabul qilingan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan ishtirok etuvchi taraflar yoki ularning vakillari tomonidan appellatsiya tartibida berilgan shikoyat, tuman (shahar) prokurori tomonidan appellatsiya tartibida keltirilgan protest bo'yicha appellatsiya instansiya sudi tomonidan appellatsiya tartibida ish yuritish orqali tekshirish (FPKning 37- bobi va ushbu bobga tegishli bo'lgan 320-348-moddalari);

2) birinchi instansiya sudi tomonidan mazmunan ko'rib hal qilingan ish yuzasidan qabul qilingan va qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarori ustidan FPKning 348¹-moddasida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan cassatsiya tartibida berilgan shikoyati yoki prokurorning cassatsiya tartibida keltirgan protesti bo'yicha cassatsiya instansiyasi sudi tomonidan cassatsiya tartibida ish yuritish orqali tekshirish (FPKning 38-bobi va ushbu bobga tegishli bo'lgan 348¹-348¹⁷-moddalar);

3) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlar ustidan nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar tomonidan nazorat tartibida keltirgan protestlar bo'yicha nazorat instansiyasi sudlari tomonidan nazorat tartibida ish yuritish yo'li bilan tekshirish (FPKning 39-bobi va ushbu bobga tegishli bo'lgan 349-361-moddalar);

4) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish yo'li bilan tekshirish (FPKning 40-bobi va ushbu bobga tegishli bo'lgan 36-369-moddalar).

Sud qarorlarining qonuniyligi, asoslantirilganligi va adolatli ekanligini tekshirish jarayonida appellatsiya, cassatsiya va nazorat instansiyasi sudlari o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida, tegishli bo'lishiga qarab, qonuniy kuchga kirmagan va qonuniy kuchga kirgan birinchi instansiya sudlari tomonidan ko'rib hal qilingan fuqarolik ishlari bo'yicha qabul qilingan hal qiluv qarorlari, qonuniy kuchga kirmagan va qonuniy kuchga kirgan appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarini o'z kuchida qoldirishi, o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin.

Sudning fuqarolik ishi bo'yicha qabul qilgan qarorini appellatsiya, cassatsiya tartibida bekor qilish uchun ma'lum asoslar mavjud bo'lishi kerak. Sudning qarorini bekor qilish uchun quyidagilar asos bo'lib xizmat qiladi:

a) ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'liq aniqlanmaganligi;

b) sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning isbotlanmaganligi;

v) sudning hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariga muvofiq kelmasligi;

g) moddiy huquq normalari yoki protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanganligi.

Ushbu asoslardan biri mavjud bo'lgan taqdirda ko'rib hal qilingan fuqarolik ishi bo'yicha sud tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarori tegishli bo'lishiga qarab appellatsiya, cassatsiya yoki nazorat tartibida bekor qilinishi kerak. Bu borada shuni alohida ta'kidlash kerakki, sudning mazmunan to'g'ri bo'lgan, qonuniy, asoslantirilgan va adolatli hal qiluv qarori, ajrim va qarori faqat rasmiy asoslarga ko'ra bekor qilinishi mumkin emas.

Sudning qarorini appellatsiya, cassatsiya va nazorat tartibida bekor qilishning asoslari bo‘lgan moddiy huquq normalarini yoki protsessual normalarning noto‘g‘ri qo‘llanganligi deganda FPKning 313 hamda 314-moddalarida ko‘rsatilgan holatlarni nazarda tutish kerak.

Agar sud ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi bo‘yicha tatbiq qilinishi lozim bo‘lgan qonunni qo‘llamagan bo‘lsa yoki sud ish bo‘yicha tatbiq qilinmasligi lozim bo‘lgan qonunni qo‘llagan bo‘lsa, shuningdek, sud qonunni noto‘g‘ri talqin qilgan bo‘lsa, moddiy huquq normalari buzilgan yoki noto‘g‘ri qo‘llanilgan hisoblanadi. Bularning har biri, o‘z navbatida, sud hal qiluv qarori, ajrim va qarorni bekor qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Moddiy huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash sud qarorlarini bekor qilish uchun asos bo‘lsa, protsessual huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash ham sud qarorlarini bekor qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Lekin, aytish joizki, protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanganligi fuqarolik ishining noto‘g‘ri hal etilishiga sabab bo‘lgan yoki sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina sudning hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorning bekor qilinishiga asos bo‘ladi. Aks holda asos bo‘lmaydi. FPKning 314-moddasida sudning hal qiluv qarori, ajrim va qarorni bekor qilish asoslari ko‘rsatilgan. Bular quyidagilardan iborat:

1) agar ish sud tomonidan g‘ayriqonuniy tarkibda ko‘rilgan bo‘lsa;

2) ish sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, ammo sud majlisining vaqt va joyi to‘g‘risida tegishli tartibda xabardor qilinmagan shaxslardan birortasining yo‘qligida ko‘rilgan bo‘lsa;

3) ish ko‘rib hal qilinayotganida ish yuritiladigan tilga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;

4) sud ishda qatnashishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlariga doir masalani hal qilgan bo‘lsa;

5) hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;

6) hal qiluv qarori, ajrim, qaror sudyalardan birortasi (sudya) tomonidan imzolanmagan yoki hal qiluv qarori, ajrim, qaror ularda ko‘rsatilgan sudyalar tomonidan imzolanmagan bo‘lsa;

7) hal qiluv qarori, ajrim, qaror ishni ko‘rmagan sudyalar tomonidan chiqarilgan bo‘lsa;

8) ishda sud majlisi bayonnomasi mavjud bo‘lmasa yoki u imzolanmagan bo‘lsa, hal qiluv qarori, ajrim, qaror majburiy tartibda bekor qilinishi shart.

Sud qarorlari ustidan shikoyat qilish, protest keltirish va ularni qayta ko‘rish usullaridan biri bu – appellatsiya tartibida ish yuritishdir.

II BOB. BIRINCHI INSTANSIYA SUDINING HAL QILUV QARORLARI VA AJRIMLARI USTIDAN BERILGAN APELLATSIYA SHIKOYATI (PROTESTI) BO‘YICHA ULARNI QAYTA KO‘RISH (APELLATSIYA TARTIBIDA SUD ISHLARINI YURITISH)

1-§. Apellatsiya tushunchasi va uning turlari

Sud qarorlari ustidan appellatsiya tartibida shikoyat qilish borasida shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu fuqarolik sud ishlarini yuritish uchun yangilik emas. Appellatsiya tartibida shikoyat qilish, o‘z mohiyatiga ko‘ra, shikoyat qilishning oddiy usuli ekanligi xorijiy davlatlarning fuqarolik protsessida o‘z ifodasini topgan. Bu ilk bor Rim huquqi va protsessiga oid normalarda o‘z ifodasini topgan¹. Chor Rossiyasi davrida ham sud qarorlari ustidan appellatsiya tartibida shikoyat qilish mumkinligi 1864 yildagi Fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi Ustavda ham ko‘rsatilgan². Bunday tartib to 1917 yilgacha davom etib kelgan. 1917 yildagi “Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida qabul qilingan sud to‘g‘risidagi Dekret”ga asosan appellatsiya tartibida sud qarorlari ustidan shikoyat qilish ular asosida ishni qayta ko‘rish tartibi bekor qilingan.

Sud qarori ustidan appellatsiya tartibida shikoyat qilish tartibi mustaqil respublikamizda ilk bor O‘zbekiston Respublikasining Xo‘jalik protsessual kodeksining normalarida qonuniy tarzda belgilab qo‘yildi. Ushbu kodeksni hal qiluv qarorlarini qayta ko‘rish bo‘yicha ish yuritishga bag‘ishlangan uchinchi bo‘limi va ushbu bo‘limga tegishli bo‘lgan 21. bobi va bu bobdagi 156-172-moddalarining mazmunida appellatsiya tartibida ish yuritish tartibi xo‘jalik sudlarining amaliyotiga, shuningdek, fuqarolik ishlarini ko‘rib hal qilish vakolatiga ega bo‘lgan umumyurisdiksiya sndlari tomonidan fuqarolik sud ishlarini yuritish asosida ko‘rib hal qilingan ishlar bo‘yicha chiqarilgan sud hal qiluv qarori, ajrim, qo‘sishimcha hal qiluv qarori, sirdan chiqarilgan hal qiluv qarori ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan berilgan appellatsiya shikoyati hamda prokuror tomonidan keltirilgan protest asosida ularning qonuniyligi, aoslantirilganligi va adolatligini appellatsiya tartibida tekshirish, O‘zbe-

¹ Борисова Е.М. Апелляция в гражданском (арбитражном) процессе. – М., 2000; Гражданский процесс: Учебник / Под ред. М.К.Треушникова. – М., 2008. – С.509.

² Уставъ Гражданского судопроизводства: Систематический сборник / Сост. Владимир Гардон. – Петербург, 1908. – С. 407-438.

kiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 37-bobi va ushbu bobga tegishli bo‘lgan 320-348-moddalarida o‘z ifodasini topgan¹.

Ushbu moddaning mazmuniga ko‘ra, appellatsiya instansiysi sudlari, shikoyat berish FPKning 320-moddasida ko‘rsatilgan huquqga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan keltirilgan appellatsiya shikoyati (protesti) bo‘yicha birinchi instansiya sudi tomonidan sud majlisida mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi bo‘yicha chiqarilgan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorining qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini tekshiradi. Shuning uchun *appellatsiya deganda*, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorini, ajrimini, qonuniy, asoslantirilganligi va adolatlilagini tekshirish bo‘yicha appellatsiya shikoyat yoki ishni qayta ko‘rish to‘g‘risida protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning ikkinchi instansiya sudiga qilgan murojaatni tushunish kerak.

Fuqarolik protsessual huquq nazariyasida appellatsiya ikki turga ajratilgan: a) to‘liq appellatsiya; b) to‘liq bo‘lmagan appellatsiya². Appellatsiyaning bu ikki turi bir-biridan o‘zining mazmun va mohiyati bilan farq qiladi.

To‘liq appellatsiyaning mohiyati shundan iboratki, birinchi instansiya sudi tomonidan ko‘rib hal qilingan ish (talab) appellatsiya sudi tomonidan yana qayta ko‘rib hal qilinadi. Shu munosabat bilan ishda ishtirok etuvchi taraflar yangi faktlarga havola qilishadi. Yangi dalillarni taqdim etishlari, yangi e’tirozlarni kiritishlari mumkin.

To‘liq appellatsiyaning maqsadi bu - ishni uzil-kesil to‘liq hal qilish uchun zarur bo‘lgan barcha faktik materiallarni birinchi instansiya sudiga taqdim etish borasida taraflar tomonidan yo‘l qo‘ylgan xatoliklarni aniqlab, ularni to‘g‘rilashdan iborat.

To‘liq bo‘lmagan appellatsiyaning mohiyati shundan iboratki, bunday appellatsiyada appellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining ish bo‘yicha qabul qilgan qarorini tekshirish bilan cheklanmasdan, sud jarayonini ham tekshiradi. Shuning uchun ishda ishtirok etuvchi taraflar ish yuzasidan yangi faktlarga havola qilmaydilar, ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yangi dalillarni taqdim etish huquqiga ega emaslar. Appellatsiya instansiya sudi ishdagi bor materiallar asosida ishni ko‘rib hal qilish yo‘li bilan birinchi instansiya sudini ishning ko‘rish jarayonini hamda

¹ Ўзбекистон Республикасининг Хўжалик процессуал кодекси. – Т., 2015. – Б.63-69; Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодекси. – Т., 2015 – Б.141-153.

² Яблочков Т.М. Учебник русского гражданского судопроизводства. – Ярославль, 1910. – С. 27-28; Гражданский процесс: Учебник / Под ред. М.К.Треушникова. – М., – 2008. – С.509.

uning ish yuzasidan qabul qilgan hal qiluv qarorining qonuniy va asoslantirilganligini tekshiradi. Bunday appellatsiya bo'yicha appellatsiya instansiyasi sudida ish yuritish, ishni yangidan ko'rib hal qilishga qaratilmasdan, sud qarorini tekshirishga qaratiladi. Bundan ko'rinish turibdiki, to'liqsiz appellatsiyada yuqori sud taraflarning xatolarini emas, birinchi instansiya sudining xatosini tekshiradi.

To'liqsiz appellatsiyada, appellatsiya instansiyasi sudi o'z faoliyatini birinchi instansiya sud tomonidan fuqarolik ishini ko'rib hal qilish bo'yicha sud jarayonini va ish yuzasidan chiqarilgan qarorni subyektiv jihatdan tekshirishga qaratadi. Appellatsiya instansiya sudi fuqarolik ishini ko'rib hal qilish va ish yuzasidan hal qiluv qarorini chiqarish jarayonida birinchi instansiya sudining sudda haqiqatan ham ish bo'yicha mavjud bo'lган holatlarni ish bo'yicha o'zidagi faktik materiallar hamda dalillarga asoslangan holda aniq o'rnatilganligini tekshirib aniqlaydi.

To'liq appellatsiyada esa, appellatsiya instansiya sudi ish bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lган holatlarni, bor haqiqatga qanchalik mosligini tekshiradi. Appellatsiya qanday turda bo'lmasin birinchi instansiya sudining mazmunan ko'rib hal qilingan, fuqarolik ishi yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari, ajrimlari ustidan appellatsiya instansiya sudiga shikoyat qilishning protsessual vositasi hisoblanadi va quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) appellatsiya shikoyati birinchi instansiya sudining ish yuzasidan qabul qilingan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qaroriga nisbatan beriladi;
- 2) appellatsiya shikoyati bo'yicha ish ko'rib hal qilish uchun yuqori sudga o'tkaziladi;
- 3) appellatsiya shikoyatini berish ish yuzasidan sudning chiqargan hal qiluv qarorining qonuniy va asoslantirilmaganligidan noroziligi, appellatsiya shikoyatini bergen shaxsning noroziligi bilan o'zaro bog'liq bo'ladi;
- 4) appellatsiya instansiya sudi ishni qayta ko'rish jarayonida ishni huquqiy hamda faktik tomonlarini birinchi instansiya sudi qancha hajmda tekshirgan bo'lsa, shuncha hajmda tekshiradi;
- 5) appellatsiya instansiya sudi, umumiy qoidaga ko'ra, ishni ko'rib hal qilish natijasida ishni yangidan ko'rib hal qilish va qaror chiqarish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga haqli emas. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori appellatsiya instansiyasi tomonidan bekor qilingan taqdirda ishni ko'rib ish bo'yicha yangi hal qiluv qarorini chiqarishi kerak;
- 6) appellatsiya instansiya sudining ishni qayta ko'rish bo'yicha vakolati, hal qiluv qarori yuzasidan appellatsiya tartibida keltirilgan shikoyat

(protest) hamda sud hal qiluv qarorining predmetga bog‘liq bo‘ladi. Birinchi instansiya sudining ish yuzasidan chiqargan hal qiluv qarorining predmeti bo‘lmagan yangi talablar, appellatsiya tartibida ish yuritish jarayonida arz qilinmaydi.

Appellatsiyani birinchi instansiya sudi tomonidan sud majlisida mazmunan ko‘rib hal qilingan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan appellatsiya instansiya sudiga shikoyat qilishning asosiy protsessual vositasi ekanligi va uning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlari yuridik adabiyotlarda ham o‘z ifodasini topgan¹.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlar appellatsiyaning birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilishning asosiy protsessual vositasi ekanligidan dalolat beradi.

Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan shikoyat berish, protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan keltirilgan appellatsiya shikoyati (protesti) bo‘yicha ularni appellatsiya instansiyasi sudlarida qayta ko‘rish masalalari fuqarolik protsessual kodeksining 320-348-moddalarida ko‘rsatilgan. Appellatsiya instansiyasi sudlari yuqoridagi moddalarning mazmuniga asoslangan holda ishtirok etuvchi shaxslarning appellatsiya tartibida keltirgan shikoyati (protesti) bo‘yicha birinchi instansiya sudi tomonidan mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishini qayta ko‘rib hal qiladi va shu yo‘l bilan birinchi instansiya sudlarini ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishlari yuzasidan chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorining qonuniyligi, aoslantirilganligi hamdaadolatlilagini tekshiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, FPKning yuqorida ko‘rsatilgan moddalari appellatsiya tartibida ish yuritishni huquqiy jihatdan tartibga soladi.

Bu moddalarning yig‘indisi va ularning mazmuni appellatsiya institutini tashkil qiladi. Appellatsiya instituti joriy etilganligi, o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning birinchi instansiya sudi tomonidan mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan chiqarilgan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori va ajrimidan norozi bo‘lib appellatsiya tartibida berilgan shikoyat (protest) bo‘yicha fuqarolik ishini qayta ko‘rib hal qilish, fuqarolik protsessini asosiy va mustaqil bosqichlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Appellatsiya tartibida ish yuritish, ya’ni birinchi instansiya sudining mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan chiqargan qonuniy

¹ Гражданский процесс: Учебник / Под ред. М.К.Треушникова. – М., 2008. – С.510; Гражданское процессуальное право России / Под ред. П.В.Алексия, Н.Д.Амаглобели / Закон и право. – 2007. – С. 317.

kuchga kirmagan hal qiluv qarori va ajrimini appellatsiya sudi tomonidan ularning qay darajada qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini tekshirish o‘z-o‘zidan amalga oshirilmaydi. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini va ajrimini appellatsiya instansiyasi sudi tomonidan tekshirish ishda ishtirok etuvchi shaxslarning xohish- irodasiga bog‘liq bo‘ladi. Agar ishda ishtirok etuvchi taraflar yoki ularning vakillari, uchinchi shaxslar birinchi instansiya sudini mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori yoki ajrimidan norozi bo‘lib, appellatsiya tartibida yuqori sudga appellatsiya tartibida shikoyat qilmasa, tuman (shahar) prokurori protest keltirmasa, appellatsiya instansiyasi sudlari o‘z-o‘zidan birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorini yoki ajrimini qay darajada qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini tekshirmaydi. Ishni qayta ko‘rib tekshirish uchun asos bo‘lishi kerak.

Birinchi instansiya sudini mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori yoki ajrimini appellatsiya instansiyasi sudlari tomonidan tekshirish uchun birdan-bir asos shikoyat keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan appellatsiya tartibida berilgan shikoyat hamda prokurorning appellatsiya tartibida keltirgan protesti hisoblanadi.

Appellatsiya shikoyati (protesti), o‘z mohiyatiga ko‘ra, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlarining qay darajada qonuniy, asoslantirilgan va adolatli bo‘lishligini tekshirish bo‘yicha yuqori sudga murojaat qilishning protsessual vositasi bo‘lishi bilan birga, appellatsiya instansiyasi sudida ish qo‘zg‘atish va sud qarori va ajrimini tekshirish asosi hisoblanadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori yoki ajrimidan norozi bo‘lib, yuqori sudga appellatsiya shikoyati bilan murojaat qilsa, prokuror esa, appellatsiya tartibida protest keltirsgina, appellatsiya instansiyasi sudi ular asosida ish qo‘zg‘atib sud hal qiluv qarorini yoki ajrimini tekshirish bo‘yicha o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Appellatsiya instansiyasi sudiga shikoyat berish, protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarni appellatsiya tartibida bergen shikoyati (protesti) bo‘yicha birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori va ajrimini tekshirish yo‘li bilan birinchi navbatda bu sudning xatolarini tuzatadi. Ikkinchidan, ish bo‘yicha odil sudlovning sudlar tomonidan to‘g‘ri amalga oshirilishiga yordam beradi. Uchinchidan, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning buzilgan huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, buzilgan huquqlarni buzilmasdan oldingi holatga tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. To‘rtinchidan, birinchi instansiya sudlari

tomonidan mazmunan ko‘rib hal qilinadigan fuqarolik ishlari bo‘yicha ularni qonuniy, asoslantirilgan va adolatli hal qiluv qarorini chiqarish uchun undaydi. Beshinchidan, ish yuzasidan moddiy va protsessual normalarni to‘g‘ri tatbiq qilishga da’vat etadi. Oltinchidan, quyi sudlarning faoliyatini nazorat qiladi. Yettinchidan, huquq buzilish hollarining oldini oladi va qonunchilikni mustahkamlaydi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha birinchi instansiya sudlarining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari bo‘yicha barcha holatlarni tekshirish kerakligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Fuqarolik ishlarini appellatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti haqida”gi (2004 yil 21 may) qarorida ham ko‘rsatib o‘tilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorining tub mohiyati, fuqarolik ishlarining yuqori sudlarda ko‘rib hal qilinishidan asosiy maqsad, birinchi instansiya sudining mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori, ajrimini qay darajada qonuniy, asoslantirilgan va adolatlilagini tekshirib, bu sudlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlab, ularni o‘z vaqtida bartaraf qilib sudga murojaat qilgan shaxslarning buzilgan subyektiv huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Yuqorida bayon etilgan barcha holatlar bo‘yicha xulosa qilib aytish mumkinki, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori va ajrimining qay darajada qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini appellatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning appellatsiya tartibida keltirgan shikoyat (protest) bo‘yicha appellatsiya instansiyasi sudi tomonidan protsessual qonunchiligida belgilab qo‘yilgan tartibda tekshirish, birinchi instansiya sudlari tomonidan mazmunan ko‘rib hal qilingan ishlar yuzasidan qabul qilingan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori va ajrimidagi xato va kamchiliklarni bartaraf qilishning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha appellatsiya tartibida sud ishlarini yuritish – bu birinchi instansiya sudining mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori va ajrimidan norozi bo‘lgan ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan appellatsiya tartibida berilgan shikoyat (protest) bo‘yicha appellatsiya instansiyasi sudi tomonidan hal qiluv qarori va ajrimini qay darajada qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini tekshirish va yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni aniqlab ularni bartaraf qilish maqsadida fuqarolik ishini qayta ko‘rish bo‘yicha appellatsiya sudida ish qo‘zg‘atish va ko‘rib hal qilishdan iborat.

2-§. Fuqarolik ishlari bo‘yicha appellatsiya tartibida ish yuritishning elementlari

Fuqarolik ishlari bo‘yicha appellatsiya tartibida ish yuritish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan huquqiy masalalardan biri – bu birinchi instansiya sudining mazmunan ko‘rib hal qilishga fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilingan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori va ajrimi ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berish, protest keltirish huquqi hisoblanadi. Appellatsiya tartibida shikoyat berish huquqi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, appellatsiya tartibida ish yuritishni qo‘zg‘atish uchun FPKning 320-moddasi bo‘yicha shaxslarga berilgan huquqdir. Birinchi instansiya sudlarining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari ustidan shikoyat berish huquqi ishda ishtirok etuvchi shaxslarda ish yuzasidan qabul qilingan hal qiluv qarorining e’lon qilinishi bilan vujudga keladi. Hal qiluv qarorining e’lon qilinishi bilan prokurorda ham uning ustidan protest keltirish huquqini vujudga keltiradi. Ushbu huquqni amalga oshirish uchun uning obyekti, shikoyat qiluvchi subyektlari, shuningdek, uni amalga oshirish tartibining qonunda belgilab qo‘yilganligidir.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar o‘zlariga qonuniy tarzda berilgan birinchi instansiya sudi tomonidan mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilingan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori yoki ajrimi ustidan appellatsiya shikoyatini berish yoki protest keltirish huquqidan foydalanib appellatsiya sudiga murojaat qilish ushbu sud bo‘g‘ini bilan ishda ishtirok etuvchi shaxslar o‘rtasida fuqarolik protsessual huquqiy munosabatni vujudga keltiradi. Shuning uchun appellatsiya shikoyatining obyektlarini to‘g‘ri aniqlab olish o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Appellatsiya tartibida shikoyat berishning obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

- a) birinchi instansiya sudining fuqarolik ish yuzasidan chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari (FPKning 320-moddasi);
- b) birinchi instansiya sudi tomonidan fuqarolik ishi bo‘yicha qabul qilgan qo‘sishimcha hal qiluv qarori (FPKning 214-moddasi);
- v) birinchi instansiya sudi tomonidan sirdan chiqarilgan hal qiluv qarori (FPKning 229-moddasi);
- g) Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarning birinchi instansiya sudi sifatida chiqargan hal qiluv qarorlari (FPKning 321-moddasi);

d) okrug va hududiy harbiy sudlarning hamda O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudining hal qiluv qarorlari (FPKning 321-moddasi);

ye) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining hal qiluv qarorlari (FPKning 321-moddasi);

yo) birinchi instansiya sudining ajrimlari (FPKning 346-moddasi).

Birinchi instansiya sudi va yuqori sudlarning birinchi instansiya sudi tariqasida chiqargan hal qiluv qarorlari, shuningdek, birinchi instansiya sudi tomonidan fuqarolik ishini mazmunan ko‘rib hal qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim masalalar yuzasidan chiqarilgan va shikoyat qilinishi mumkinligi qonunda ko‘rsatilgan ajrimlar pirovard natijada appellatsiya tartibida shikoyat berish, protest keltirishning obyektlari hisoblanadi.

Appellatsiya tartibida shikoyat berishning asosiy elementlaridan yana biri – appellatsiya tartibida shikoyat berish va protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan subyektlardir. Appellatsiya tartibida shikoyat berish huquqiga ega bo‘lgan subyektlarga ishda ishtirok etuvchi shaxslar kiradi. Jumladan, taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari protsessda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar (FPKning 33-moddasi). Shuningdek ishda ishtirok etish uchun jalg qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlar haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar (FPKning 310-moddasi).

Prokuror ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida FPKning 34 hamda 47-moddasiga asosan sudning hal qiluv qarori, ajimi yuzasidan appellatsiya tartibida protest keltirish huquqiga ega. Prokuror o‘ziga berilgan ushbu huquqdan foydalanib, birinchi instansiya sudining fuqarolik ishi bo‘yicha chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori yoki ajimi ustidan appellatsiya tartibida protest keltirsa, prokurorning appellatsiya tartibida keltirgan protesti birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori yoki ajrimining qay darajada qonuniy, asoslantirilgan va adolatligini tekshirish uchun appellatsiya instansiya sudida ish qo‘zg‘atib, appellatsiya tartibida ish yuritish asosida sud hal qiluv qarorlari yoki ajimlarini tekshirish bo‘yicha fuqarolik ishini qayta ko‘rish uchun asos bo‘ladi.

Ishda ishtirok etuvchi taraflar, uchinchi shaxslar va ularning vakili ham ishda ishtirok etuvchi shaxs tarkibiga kiradi. Vakil ham ishda ishtirok etuvchi shaxs bo‘lganligi uchun birinchi instansiya sudining ish yuzasidan chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan sud hal qiluv qarorlari va ajimlari ustidan appellatsiya shikoyati berish huquqiga ega (FPKning 34-moddasi). Shu bilan birga, vakilning appellatsiya shikoyatini berish huquqi ixtiyoriy (shartnomaga asoslanganligi) vakilning vakolatlariga bag‘ishlangan FPK-

ning 54-moddasida ham ko'rsatilgan. Ushbu moddaning mazmunida bayon etilishicha, vakil sud hal qiluv qarori, ajrimi ustidan appellatsiya shikoyatini berishi mumkin, agarda vakolat beruvchi shaxs tomonidan vakilga berilgan vakolatnomada ko'rsatilgan bo'lsa. Appellatsiya shikoyatini berish huquqi vakilga berilgan vakolatnomada ko'rsatilmagan bo'lsa, vakil bunday huquqdan foydalana olmaydi. Bundan ko'rinish turibdiki, FPKning ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquq va majburiyatlarga bag'ishlangan 34-moddasi bilan vakilning vakolatlariga bag'ishlangan 54-moddasi o'rtasida nomuvofiqlik mavjud. Ushbu nomuvofiqlikni bartaraf qilish uchun FPKning vakilning vakolatiga bag'ishlangan 54-moddasining mazmunida vakil birinchi instansiya sudi tomonidan mazmunan ko'rib hal qilgan va qonuniy kuchga kirmagan sud hal qiluv qarori (ajrim) bo'yicha shikoyat berish huquqiga ega deb, ushbu moddaga o'zgartirish kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muomalaga layoqatisiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan himoya qilinadigan qonuniy manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar yoki homiylar) himoya qiladi (FPKning 51-moddasi). Qonuniy vakillar sudda ish yuritish bilan bog'liq bo'lган o'z vakolatlarini maxsus tarzda rasmiylashtirilgan va notarial tartibda tasdiqlangan ishonchnomasiz amalga oshiradilar. Shunday ekan, qonuniy vakillar birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori, ajrimi yuzasidan appellatsiya shikoyatini berish masalasini ularning o'zlar mustaqil tarzda hal qiladilar.

FPKning 43-moddasi protsessual huquqiy vorislikka bag'ishlangan. Ushbu moddaning ikkinchi qismida huquqiy voris protsessga kirgunga qadar amalga oshirilgan barcha protsessual harakatlar huquqiy vorisga o'zini bo'shatib bergen shaxsga qay darajada majburiy bo'lган bo'lsa, huquqiy vorisga ham shu darajada majburiy ekanligi ko'rsatilgan bo'lsada, huquqiy vorisning sudning hal qiluv qarori (ajrimi) bo'yicha appellatsiya shikoyati berish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilmagan, biroq huquqiy vorisning ish materiallari bilan tanishishga haqli ekanligi ko'rsatilgan.

Milliy protsessual qonunchiligidan huquqiy vorisning protsessga kirishganligi haqida sudning ajrim chiqarishi FPK 43-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan. Agar sud huquqiy vorisni protsessga kiritishiga yo'l qo'ymasa, sud qanday hujjat qabul qilish kerak degan savolga javob yo'q. Huquqiy vorisni protsessga kiritish to'g'risidagi talabni sud (sudya) rad etsa, bu haqda ajrim chiqarishi kerak. Sudning bunday ajrimi ustidan shikoyat berish huquqini, huquqiy vorisga berish bu haqda FPK 43-mod-

dasi birinchi bandining oxiriga o‘zgartirish kiritilib ko‘rsatib qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Apellatsiya tartibida sud ishlarini yuritishni qo‘zg‘atishning protsessual vositasi ishda ishtirok etuvchi taraflar, uchinchi shaxslar va ularning vakillari tomonidan sudning hal qiluv qarori (ajrimi) bo‘yicha bergen appellatsiya shikoyati, prokuror tomonidan keltirilgan appellatsiya protesti hisoblanadi. Taraflar, uchinchi shaxslar va ularning vakili uchun appellatsiya shikoyati, prokuror uchun appellatsiya protesti appellatsiya instansiysi sudida birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori, ajrimining qay darajada qonuniy, asoslantirilgan va adolatliligini tekshirish bo‘yicha ish qo‘zg‘atish uchun protsessual vositagina bo‘lib qolmay, appellatsiya instansiysi sudida appellatsiya tartibida ish yuritishni qo‘zg‘atishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Apellatsiya tartibida shikoyat berish va protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori chiqqan kundan e’tiboran yigirma kun ichida taraflar ishda ishtirok etishga jalb qilingan boshqa shaxslar, shuningdek, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyati berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin. Ko‘rsatilgan muddat o‘tgandan keyin berilgan shikoyat (protest) ko‘rilmasdan qoldiriladi va shikoyat (protest) bergen shaxsga qaytariladi (FPKning 320-moddasi).

Sudning hal qiluv qarori ustidan appellatsiya tartibida shikoyat (protest) berish tartibi protsessual qonunchiligiga oid normalarda ko‘rsatilgan. FPKning 322-moddasi bevosita appellatsiya shikoyati berish hamda protest keltirish tartibiga bag‘ishlangan. Ushbu muddatning mazmuniga ko‘ra, birinchi instansiya sudining sud majlisida mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan beriladigan appellatsiya shikoyati yoki protesti, appellatsiya instansiya sudining nomiga yozma ravishda yoziladi, lekin ish bo‘yicha hal qiluv qarorini chiqargan sudga beriladi. Bunday qoida o‘rnatilganligining asosiy sababi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ma’lum ma’noda qulayliklar yaratib berish bilan birga, sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berish, protest keltirish uchun belgilangan muddat o‘tmasdan turib, uni hech kim birinchi instansiya sudidan talab qilib ololmasligidir.

Sudning hal qiluv qarori ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish uchun qonunda belgilab qo‘yilgan muddat davomida

ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan appellatsiya shikoyati berilgan bo‘lsa yoki prokuror tomonidan protest keltirilgan bo‘lsa, birinchi instansiya sudi belgilangan muddat o‘tgandan keyin appellatsiya shikoyati yoki protestini ish bilan bиргаликда appellatsiya instansiyasi sudiga yuborishi kerak.

Taraflarning vakillari ishda ishtirok etuvchi shaxs bo‘lganliklari uchun sudning hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyatini berish huquqiga ega. Vakil tomonidan berilgan appellatsiya shikoyatiga ishonch bildiruvchi shaxs tomonidan vakilga berilgan ishonchnoma yoki uning huquqini tasdiqlaydigan boshqa hujjat ilova qilinishi kerak.

Appellatsiya shikoyati yoki protesti sudga ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib miqdorda nusxalari bilan berilishi kerak. Zarur hollarda sudya sudning hal qiluv qaroridan norozi bo‘lib, uning ustidan appellatsiya shikoyati bergen shaxs yoki appellatsiya protesti keltirgan prokuror zimmasiga appellatsiya shikoyati yoki protestiga ilova qilingan yozma hujjatlarning nusxalarini ham ishda ishtirok etuvchi shaxslar soniga mutanosib miqdorda topshirish majburiyatini yuklashi mumkin.

Birinchi instansiya sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan berilgan appellatsiya shikoyati yoki prokuror tomonidan keltirilgan appellatsiya protesti shakl jihatdan yozma ravishda yozilib, o‘zida quyidagilarni namoyon etishi kerak:

1) shikoyat berilayotgan yoki protest keltirilayotgan sudning nomi;

2) shikoyat yoki protest keltirayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi); 3) shikoyat qilinayotgan yoki protest keltirilayotgan hal qiluv qarori va uni chiqargan sud;

4) hal qiluv qarorining noto‘g‘riliqi nimalardan iborat ekanligi;

5) shikoyat berayotgan yoki protest keltirayotgan shaxsning talabi;

6) shikoyat yoki protestga ilova qilingan yozma materiallarning ro‘yxati.

Appellatsiya shikoyati yoki protestida ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan barcha holatlarning yig‘indisi appellatsiya shikoyati yoki protesti mazmunini tashkil qiladi. Sudning hal qiluv qaroridan norozi bo‘lib, uning ustidan appellatsiya shikoyatni berayotgan shaxsning o‘zi yoki uning vakili imzolashi kerak. Appellatsiya protesti ushbu fuqarolik ishini sudda ko‘rib hal qilish jarayonida ishtirok etgan yoki etmaganligidan qat’i nazar prokuror tomonidan keltirilgan bo‘lsa, prokuror tomonidan imzolanishi kerak. Appellatsiya shikoyatida yoki protestida shikoyat bergen yoki protest keltirigan shaxsning yoxud vakilining telefonlari, faks raqamlari, elektron manzili ko‘rsatilishi kerak.

Ta’kidlab o‘tganimizdek, birinchi instansiya sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan beriladigan appellatsiya shikoyatlari va

protestlari yozma ravishda appellatsiya instansiya sudi nomiga yozilib, ishni mazmunan ko'rib hal qilib ish yuzasidan hal qiluv qarorini chiqqargan sudga beriladi. Ushbu sud appellatsiya tartibida shikoyat berish va protest keltirish uchun belgilangan muddatda ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan berilgan appellatsiya shikoyatini yoki prokuror tomonidan keltirilgan protestni olgandan so'ng birinchi instansiya sudi quyidagi protsessual harakatlarni amalga oshirishi kerak:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protestning nusxalarini yuborish;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarni appellatsiya instansiya sudida ishni ko'rish vaqt va joyi to'g'risida xabardor qilish;

3) hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish yoki protest keltirish uchun belgilangan muddat o'tgan vaqtdan e'tiboran o'n kun ichida ishni tushgan shikoyat yoki protest bilan birga appellatsiya instansiya sudiga yuborishi shart.

Hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish va protest keltirish uchun belgilangan muddat ichida hech kim ishni suddan talab qilib olishi mumkin emas. Shunday bo'lsa-da, ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudda ish materiallari va tushgan shikoyatlar yoki protestlar bilan tanishishlari mumkin. Chunki, ularga sudda ish materiallari, shuningdek, ish bo'yicha berilgan appellatsiya shikoyati yoki keltirilgan appellatsiya protesti bilan tanishish huquqi berilgan. Bu holat FPKning 325-moddasida qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan.

Birinchi instansiya sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonida qatnashayotgan sherik ishtirokchilar va uchinchi shaxslar sudga berilgan shikoyatga qo'shilishlari mumkin. Berilgan shikoyatga qo'shilish sherik ishtirokchilarga va uchinchi shaxslar uchun ma'lum imtiyozlar yaratadi. FPKning 326-moddasida ko'rsatilishicha, protest yoki shikoyat bergen tarafda qatnashayotgan sherik ishtirokchilar va uchinchi shaxslar taraf tomonidan berilgan appellatsiya shikoyatiga qo'shilsalar, ular shikoyat bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan davlat bojini to'lamaydilar. Ular davlat bojini to'lashdan qonuniy tarzda ozod qilingan.

Appellatsiya shikoyati yoki protesti FPKning 322 hamda 323-moddalarida ko'rsatilgan talablarga, ya'ni appellatsiya shikoyati yoki protestini berish tartibi hamda uning mazmuniga rioya qilingan holda berilishi kerak. Ushbu talablarga rioya qilmaslik ma'lum huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi. Masalan, birinchi instansiya sudning hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyatini berish yoki protest keltirishda,

shikoyat berish yoki protest keltirish tartibiga hamda shikoyat va protest mazmuniga qo‘yilgan talablar ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan buzilgan bo‘lsa, shikoyat bo‘yicha davlat boji uni to‘lashdan ozod qilinmagan shaxs tomonidan to‘lanmagan bo‘lsa, ushbu holat appellatsiya shikoyati yoki protestni harakatsiz qoldirish uchun asos bo‘ladi. Shuning uchun ishda ishtirok etuvchi shaxslar, sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyatini berish yoki protest keltirishda shikoyat berish yoki protest keltirish uchun qonunda belgilab qo‘yilgan tartibga hamda shikoyat yoki protestning mazmuniga qo‘yilgan talablarga rioya qilib sudga taqdim etishlari kerak.

Appellatsiya shikoyat yoki protestini harakatsiz qoldirish to‘g‘risida sudya bu shikoyat yoki protestning harakatsiz qoldirilishiga asos bo‘lgan kamchiliklarni va ularni tugatish uchun muddatni ko‘rsatib ajrim chiqarishi kerak. Ajrim appellatsiya shikoyati bergen yoki protest keltirgan shaxsga imzo qo‘ydirib topshiriladi yoki unga pochta orqali yoxud axborot tizimi orqali elektron shaklda yuborilishi kerak.

Birinchi instansiya sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyatini bergen yoki protest keltirgan shaxs sudning ajrimida ko‘rsatilgan muddatda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etsa, harakatsiz qoldirilgan shikoyat yoki keltirilgan protest dastlab sudga taqdim etilgan kundan berilgan hisoblanadi. Aks holda, shikoyat yoki protest berilmagan hisoblanadi va o‘z navbatida shikoyat bergen yoki protest keltirgan shaxsga (prokurorga) qaytarib beriladi. Sudya bu haqda ajrim chiqarishi kerak (FPKning 324-moddasi).

Appellatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan tushuntirish berish yoki e’tiroz bildirish, appellatsiya shikoyati berish tartibiga oid huquqiy masalalardan biri hisoblanadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan berilgan shikoyat yoki prokuror tomonidan keltirilgan protest yuzasidan sudga tushuntirish berish yoki e’tiroz bildirishlari mumkin.

Fuqarolik protsessual Kodeksining 327-moddasining mazmunida bayon etilishicha, ishda ishtirok etuvchi shaxslar shikoyat yoki protest yuzasidan tushuntirish yoki e’tiroz bildirganda, bergen tushuntirishni, bildirilgan e’tirozini tasdiqlaydigan hujjatlarni ilova qilib topshirishlari kerak. Appellatsiya shikoyati yoki protesti yuzasidan berilgan tushuntirishlar hamda e’tirozlar, appellatsiya shikoyati yoki protesti kabi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib miqdorda nusxalari bilan birga sudga taqdim etilishi kerak. Axborot tizimi orqali elektron shaklda yuboriladigan tushuntirishlar bundan mustasno. Tushuntirishlar va e’tirozlarga sud

ishida ishtirok etuvchi shaxslarga topshirishi yoki yuborishi lozim. Chunki ishda ishtirok etuvchi shaxslar appellatsiya instansiysi sudida ishni ko‘rish, ya’ni sud majlisiga yetarli darajada tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak.

Hal qiluv qarori ustidan appellatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki protestini bular uchun belgilangan muddat o‘tgan vaqtidan e’tiboran o‘n kun ichida – ish birinchi instansiya sudi tomonidan tushgan shikoyat yoki protest bilan birga qo‘sib qayta ko‘rish uchun yuborilgan fuqarolik ishini qabul qilib olgan appellatsiya instansiya sudi birinchi instansiya sudi kabi ma’lum protsessual harakatlarni bajaradi. Jumladan: appellatsiya instansiysi sudi zarur hollarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga hal qiluv qarori ustidan appellatsiya tartibida bergen shikoyat yoki protest yuzasidan tushuntirish va e’tirozlari bo‘lsa, ularni bildirishni taklif qiladi, berilgan tushuntirish, e’tirozni, shuningdek, ularga ilova qilingan hujjatlarni ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab mutanosib miqdorda nusxalari bilan taqdim qiladi. Ushbu hujjatlarni sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi.

Apellatsiya instansiysi sudi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning talabi yoki o‘z tashabbusi bilan ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dalillarni talab qilib oladi.

Fuqarolik protsessual huquqining o‘ziga xos bo‘lgan erkin huquqlilik va tortishuvchilik (dispozitivlik) prinsipiga asosan ishda ishtirok etuvchi taraflar, uchinchi shaxslar va ularning vakillari, shuningdek, boshqa shaxslarning buzilgan huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish vakolatiga ega bo‘lgan prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar, birinchi instansiya sudining sud majlisida mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi bo‘yicha chiqargan hal qiluv qarori va ajrimlari ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berish, prokuror esa protest keltirish huquqidan foydalanib, bu huquqni o‘z xohishlari bo‘yicha amalga oshiradilar. Bu shaxslarni birinchi instansiya sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori, ajrimlari ustidan appellatsiya shikoyatini berish, prokurorni esa, protest keltirish uchun hech kim majbur qila olmaydi.

Birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan berilgan appellatsiya shikoyatini yoki protestini ishda ishtirok etuvchi shaxslar to‘ldirish, o‘zgartirish, undan voz kechish va qaytarib olish huquqiga ham ega. Ushbu huquqlarni ham ishda ishtirok etuvchi shaxslar erkin huquqlilik va tortishuvchilik prinsipiga asoslangan holda ulardan foydalanadilar va o‘z xohishlari bo‘yicha amalga oshiradilar.

Shikoyatdan voz kechish, birinchidan, qonunga zid bo‘lmasligi kerak, ikkinchidan, boshqa birovlarning huquqlari hamda qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlariga ta’sir qilmasligi va buzmasligi kerak. Ushbu talablar asosida shikoyatdan voz kechgan bo‘lsa, sud uni qabul qilib olishi kerak. Agar shikoyatdan voz kechish zo‘rlash, aldash, qo‘rqtish yo‘li tufayli, qonunga zid yoki boshqa shaxslarning huquq hamda qonuniy manfaatlariga ta’sir qilsa, sud shikoyatni qabul qilib olmasligi kerak.

Birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori (ajrim) ustidan appellatsiya tartibida shikoyat keltirgan shaxs ish bo‘yicha appellatsiya instansiyasi sudida, sud majlisi boshlanguniga qadar ham o‘z shikoyatini qaytarib olishi yoki ishni ko‘rib hal qilish bosqichida ham undan voz kechib qaytarib olishi mumkin.

Hal qiluv qarori ustidan appellatsiya tartibida protest keltirgan prokuror tomonidan keltirilgan protestidan voz kechishlik o‘ziga xos xususiyatga ega. Appellatsiya tartibida protest keltirgan prokuorning o‘zi, shuningdek, yuqori turuvchi prokuror faqat sud majlisi boshlangunga qadar protestni to‘ldirish, o‘zgartirish va qaytarib olishi mumkin. Agar prokuror tomonidan keltirilgan appellatsiya protesti bo‘yicha appellatsiya instansiyasi sudi ishni ko‘rishga kirishgan bo‘lsa, protestni to‘ldirish, o‘zgartirish yoki voz kechishga yo‘l qo‘yilmaydi. Chunki prokuror ish bo‘yicha taraf hisoblanmaydi.

Agar birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan boshqa shaxslar appellatsiya shikoyatni bermagan bo‘lsa, shikoyat bergen shaxsning o‘z shikoyatidan voz kechganligini sud qabul qilgan bo‘lsa, shuningdek, protest qaytarib olinganda appellatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqarib, o‘zining ushbu ajrimi bilan appellatsiya tartibida ish yuritishni tugatadi.

3-§. Fuqarolik ishini appellatsiya instansiyasi sudida ko‘rib hal qilish

Appellatsiya tartibida ish yuritish fuqarolik protsessining mustaqil bosqichlaridan biri hisoblanadi. U bosqichning asosiy vazifasi birinchi instansiya sudi tomonidan mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan chiqarilgan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori va ishni mazmunan hal qilib bermaydigan va qonunda shikoyat berish yoki protest keltirish mumkin bo‘lgan ajimlarini appellatsiya tartibida shikoyat yoki protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan appellatsiya tartibida keltirilgan shikoyat (protest) bo‘yicha, sud ajimlarini esa, xususiy shikoyat (protest)lar bo‘yicha ularning qay darajada qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini tekshirish asosida birinchi instansiya

sudlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlab, sudga murojaat qilgan shaxsning buzilgan huquqini hamda qonuniy manfaatini himoya qilishdan iborat.

Birinchi instansiya sudining mazmunan ko‘rib hal qilingan ish yuzasidan qabul qilgan qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan berilgan appellatsiya shikoyati yoki prokuror tomonidan keltirilgan appellatsiya protesti bo‘yicha appellatsiya instansiyasi sudining ishni ko‘rish doirasini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Sud ishni appellatsiya tartibida ko‘rayotganda birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori qay darajada qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini tekshiradi. U yangi dalillarni o‘rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi ham mumkin (FPKning 332-moddasi).

Nizoli huquqiy munosabatning asosiy subyektlari bo‘lib da’vogar bilan javobgar hisoblanadi. Shuning uchun nizo predmetini tasarruf qilish huquqi faqat da’vogar va javobgarga berilgan (FPKning 40-moddasi). Appellatsiya instansiyasi sudida keltirilgan shikoyat yoki protest bo‘yicha ishni qayta ko‘rish jarayonida ham da’vogar bilan javobgar ishning haqiqiy taraflari hisoblanadilar.

Agar birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan da’vogar yoki javobgar tomonidan appellatsiya tartibida shikoyat berilgan bo‘lsa yoki prokuror tomonidan protest keltirilgan bo‘lsa, appellatsiya tartibida berilgan shikoyat va keltirilgan protest bo‘yicha da’vogarning da’vo talablaridan voz kechishi, javobgar tomonidan da’vogarning da’vo talablarining tan olishi va taraflarning ish bo‘yicha kelishib tuzgan kelishuv bitimi albatta yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda, bu holatlar bayon etilib, appellatsiya instansiyasi sudiga topshirilishi lozim. Agar ishni ko‘rib hal qilish vaqtida da’vogar o‘zining da’vo talablaridan voz kechsa, da’vogar tomonidan arz qilingan talablarni javobgar tan olsa yoki taraflar ish yuzasidan kelishuv bitimi tuzgan bo‘lsalar, bu haqda sud majlisining bayonnomasida yozib qo‘yiladi va bayonnomani tegishli bo‘lishiga qarab da’vogar, javobgar yoki har ikki taraf imzolaydi. Masalan, da’vogar o‘z da’vosidan voz kechganligi sud bayonnomasida qayd etilgan bo‘lsa, bayonnomani da’vogar imzolaydi. Da’vogarning da’vo talablarini javobgar tomonidan tan olinganligi sud majlisining bayonnomasida qayd qilingan bo‘lsa, bayonnomani javobgar imzolaydi. Ish bo‘yicha taraflarning yozma shaklda tuzilgan kelishuv bitimi sud majlisining bayonnomasiga kiritilgan bo‘lsa, bayonnomani da’vogar bilan javobgar imzolashi kerak.

Da'vogarning o'z da'vo talablaridan voz kechishi, ish yuzasidan taraflarning kelishuv bitimini tuzish bilan bog'liq protsessual harakatlari fuqarolik ishlari bo'yicha appellatsiya instansiyasi sudida ham ish yuritishni tugatishga qaratilgan harakat hisoblanadi. Shuning uchun sud da'vogarning o'z da'vosidan voz kechishini qabul qilishdan va taraflar o'rtasida tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlashidan oldin fuqarolik ishining asosiy subyektlari bo'lган da'vogar bilan javobgarga bunday harakatlar qanday huquqiy oqibatlarga olib kelishini ularga tushuntirib berishi kerak.

Apellatsiya instansiyasi sudi da'vogarning o'z da'vo talablaridan voz kechishini qabul qilsa va ish yuzasidan taraflar tomonidan tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlasa, bu haqda ajrim chiqarib, o'zining ushbu ajrimi bilan birinchi instansiya sudi tomonidan fuqarolik ishi bo'yicha chiqarilgan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorini bekor qiladi va appellatsiya tartibida ish yuritishni tugatadi. Bordiyu, da'vogarning o'z da'vo talablaridan voz kechishi yoki taraflar tomonidan fuqarolik ishi yuzasidan tuzilgan kelishuv bitimi qonunga zid bo'lsa yoki boshqa birovlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga xilof tarzda ta'sir etsa, sud da'vo talablaridan voz kechishni rad qilishi, tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlamasdan, berilgan appellatsiya shikoyati yoki keltirilgan protest bo'yicha fuqarolik ishini appellatsiya tartibida ko'rib hal qilishi lozim.

Apellatsiya instansiyasi sudi ishni ko'rib hal qilish jarayonida sudga hal qiluv qarorining qonuniy, asoslantirilgan vaadolatliliginin tekshirishni, birinchi instansiya sudida fuqarolik ishlarini ko'rib hal qilish uchun o'rnatilgan qoidalarga asoslangan holda amalga oshirishi kerak. Appellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining fuqarolik ishi yuzasidan chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorni to'liq tekshirib chiqishi lozim. Chunki FPK 332-moddasining ikkinchi qismida, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorni to'liq tekshirish, appellatsiya instansiyasi sudi uchun majburiy ekanligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Apellatsiya tartibida ish yuritishda ham birinchi instansiya sudidagi kabi ishni ko'rib hal qilishda tortishuvchanlik prinsipi to'la ma'noda amal qiladi. Ishda ishtirok etayotgan taraflar va boshqa shaxslar dalillarning daxldorligi va ularga yo'l qo'yilishini hisobga olib, ishni to'g'ri hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lган holatlarni isbotlash uchun xizmat qiladigan yangi dalillarni appellatsiya instansiyasi sudiga taqdim etish huquqiga ega. Apellatsiya instansiyasi sudi ham FPKning 332-moddasiga asosan taraflar va ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan yangi dalillarni o'rganib chiqish va yangi faktlarni aniqlash huquqiga ega. Aynan o'ziga berilgan huquq asosida ish bo'yicha taqdim etilgan dalillarni o'rganadi, yangi faktlarni aniqlaydi.

Fuqarolik ishini appellatsiya tartibida berilgan shikoyat (protest) bo‘yicha appellatsiya tartibida takroran ko‘rib hal qilishning o‘ziga xosligi ushbu tartibda ish yuritishga oid harakatlarni sud hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan erkin huquqlilik va tortishuvchilik prinsipiga asoslanib amalga oshirganliklarida namoyon bo‘ladi. Appellatsiya instansiysi sudlari birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorining qonuniyligi, asoslantirilganligi va adolatli ekanligini appellatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan appellatsiya tartibida berilgan shikoyat (protest) bo‘yicha tekshirish bilan bog‘liq asosiy masalalardan biri – hal qiluv qarori yuzasidan berilgan appellatsiya shikoyati yoki prokuror tomonidan keltirilgan appellatsiya protesti bo‘yicha fuqarolik ishini ko‘rib hal qilish muddati hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual qonunchiligidagi ishni sudda ko‘rishga tayyorlash va ko‘rib hal qilish muddatlari ko‘rsatilgan. Masalan, FPK 131-moddasining birinchi qismida fuqarolik ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlash ariza qabul qilingan kundan boshlab o‘n kunlik muddatdan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim.

O‘ta murakkab ishlarni bo‘yicha mazkur muddat sudyaning asoslantirilgan ajrimiga ko‘ra ikki oygacha uzaytirilishi mumkin. Ushbu moddaning ikkinchi qismidagi ishlarni bundan mustasno.

Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash muddati birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori yuzasidan keltirilgan appellatsiya shikoyati (protesti) bo‘yicha fuqarolik ishini appellatsiya instansiysi sudida qayta ko‘rishda joriy qilinadimi yoki yo‘qmi degan savolga ushbu moddada aniq javob yo‘q. Ushbu savolga aniq javob berish o‘ta muhim ahamiyatga ega. Chunki FPKning 142-moddasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sudloviga taalluqli ishlarni ko‘rsatilgan. FPKning 144-moddasida esa, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudloviga taalluqli ishlarni ko‘rsatilgan. Ushbu moddalarning mazmuniga ko‘ra, bu sudlar birinchi instansiya sudlarining ish yuritishidagi fuqarolik ishini olib, birinchi instansiya sudi sifatida o‘zining ish yuritishiga qabul qilib olishga yoki bir suddan boshqa tegishli sudga o‘tkazishga haqli ekanligi ko‘rsatilgan.

Agar ushbu sudlar o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida fuqarolik ishini fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo tuman (shahar) sudidan o‘z ish yuritishiga qabul qilib olib, birinchi instansiya sudi tariqasida ko‘rib hal qiladigan bo‘lsa, FPKning 131-moddasida ishni sudda ko‘rishga tayyorlash uchun belgilangan o‘n kunlik muddat qo‘llanilishi kerak.

Fuqarolik ishini appellatsiya instansiyasida ko‘rish muddatlari FPKning 331-moddasida ko‘rsatilgan. Ushbu moddaning mazmunida bayon etilishi-cha, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudi appellatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ko‘rishi lozim. Ish o‘ta murakkab bo‘lgan yoki boshqa alohida hollarda tegishli sudning raisi bu muddatni ko‘pi bilan yana o‘n kunga uzaytirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi FPKning 331-moddasiga ko‘ra, appellatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ko‘rib chiqishi kerak. Alohida hollarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi yoki uning o‘rinbosari bu muddatni ko‘pi bilan yana bir oyga kechiktirishi mumkin. Ishni ko‘rib hal qilish muddati kechiktirilmaydi, aksincha u uzaytiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi appellatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha tushgan fuqarolik ishini ikki oydan kechiktirmay ko‘rib hal qilishi kerak.

Fuqarolik ishini appellatsiya instansiya sudida ko‘rish muddati uzaytirilganda appellatsiya instansiya sudi ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ishni ko‘rish vaqt va joyi to‘g‘risida protsessual qonunchiligidagi belgilab qo‘yilgan tartibda xabardor qilishi kerak.

Birinchi instansiya sudining fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilgan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari qonuniy, asoslantirilgan va adolatliliginin tekshirish bo‘yicha shikoyat berish va protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan keltirilgan appellatsiya shikoyati va prokurorning appellatsiya protesti bo‘yicha fuqarolik ishini appellatsiya instansiyasi sudida ko‘rib chiqish FPKning 13-moddasi hamda 15 bobiga tegishli bo‘lgan normalarda o‘rnatilgan tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridaqgi bobga oid normalarda fuqarolik ishi birinchi instansiya sudlari tomonidan sud majlisida mazmunan ko‘rib hal qilishning tartib-qoidalari belgilangan. Ushbu huquqiy normalarga asoslangan holda appellatsiya instansiya sudlari ham birinchi instansiya sudining sud majlisida mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilgan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorini shikoyat berish va protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan keltirilgan appellatsiya shikoyati yoki prokurorning appellatsiya protesti bo‘yicha qanchalik qonuniy, asoslantirilgan hamda adolatli ekanligini tekshirish bo‘yicha fuqarolik ishini qayta ko‘rib hal qiladilar.

Apellatsiya instansiyasi sudida ish yuritish – birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari asosida amalga oshirilsa-da, o‘zining oldiga qo‘yilgan asosiy vazifasi bilan farq qiladi. Apellatsiya instansiyasi sudida fuqarolik ishini ko‘rib hal qilishda appellatsiya tartibida berilgan shikoyat (protest) bo‘yicha bu sud birinchi instansiya sudining ish yuzasidan chiqargan qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorining qonuniy, asoslantirilgan hamdaadolatli ekanligi tekshiradi. Ana shu yo‘l bilan undagi kamchiliklarni bartaraf etadi. Birinchi instansiya sudi tomonidan mazmunan ko‘rib hal qilingan ish yuzasidan qabul qilingan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlaridagi xato va kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo‘li bilan shaxslarning buzilgan huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish appellatsiya instansiyasi sudining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Apellatsiya instansiyasi sudida ish yuritishning ahamiyati shundaki, appellatsiya instansiyasi sudi taraflardan biri tomonidan birinchi instansiya sudining ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilingan qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan berilgan appellatsiya shikoyati yoki prokurorning appellatsiya protesti bo‘yicha ishni qayta ko‘rib hal qilish yo‘li bilan hal qiluv qarorining qonuniy, asoslantirilgan hamdaadolatli ekanligini tekshirish orqali undagi kamchilik hamda xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligini aniqlasa, ishni mazmunan qayta ko‘rib chiqish yo‘li bilan shaxslarning buzilgan subyekti huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, appellatsiya instansiyasi sudida ish qo‘zg‘atish, o‘z mohiyatiga ko‘ra, birinchi instansiya sudlarining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari va ajrimlarini tekshirish, bularda yo‘l qo‘yilgan xato hamda kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etishga qaratilgan. Bu sud asosan birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori hamda ajrimlarini tekshirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatini amalga oshiradi. Bu holat appellatsiya instansiyasi sudida ish yuritishning o‘ziga xosligidan dalolat beruvchi asosiy xususiyat bo‘lib hisoblanadi.

Apellatsiya instansiyasi sudida fuqarolik ishini qayta ko‘rib hal qilish birinchi instansiya sudida ishni mazmunan ko‘rib hal qilish kabi to‘rt qismdan emas, uch qismdan iborat bo‘ladi:

- 1) sud majlisining tayyorgarlik qismi;
- 2) ish yuzasidan ma’ruza qilish qismi;
- 3) ish yuzasidan ajrim chiqarish qismi.

Agar appellatsiya instansiyasi sudi ishini birinchi instansiya sudiga ko‘rish uchun qaytarib yubormasdan, o‘zi mazmunan ko‘rib hal qilmoqchi

bo‘lsa, appellatsiya instansiyasi sudining majlisi uch qismdan emas, to‘rt qismdan iborat bo‘ladi:

- 1) tayyorgarlik;
- 2) ishni mazmunan ko‘rib hal qilish;
- 3) sud muzokarasi;
- 4) sudyalarning maslahatlashuvi, ajrim chiqarish va uni e’lon qilish.

Apellatsiya instansiyasi sudi majlisining tayyorgarlik qismida raislik qiluvchi, bиринчи instansiya sudining majlisidagidek, FPKning 164, 165 va 166-moddalariga amal qilgan holda, quyidagi protsessual harakatlarni bajaradi:

- a) sud majlisida tegishli tartibni ta’minlash choralarini ko‘radi;
- b) sud majlisida raislik qiluvchi sud majlisini ochadi va kimning shikoyati yoki protesti bo‘yicha hamda qaysi sudning hal qiluv qarori yuzasidan qanday ish ko‘rilishini e’lon qiladi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qaysi biri kelmaganligini, kelmaganlik sabablari to‘g‘risida qanday ma’lumotlar borligini aniqlaydi, sudga kelganlarning shaxsini aniqlaydi, shuningdek, mansabdor shaxslar hamda vakillari ish bo‘yicha ishtirok etayotgan bo‘lsalar, ularning vakolatlarini tekshirish;
- v) sud tarkibini e’lon qiladi, sud majlisining kotibi, prokuror, ekspert, tarjimon sifatida kimlar qatnashayotganligini ma’lum qiladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga rad qilish haqida arz qilish huquqlarini, rad qilish uchun asoslar, rad qilish haqidagi arizani hal qilish tartibi va bunday arzlarni qanoatlantirish oqibatlarni tushuntiradi;
- g) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquqlari hamda burchclarini tushuntiradi.

Bиринчи instansiya sudidagidek ishda ishtirok etuvchi shaxslarning appellatsiya instansiyasi sudining majlisiga kelmay qolishi ma’lum huquqiy oqibatlar keltirib chiqarishga asos bo‘ladi. Ushbu masala FPK 337-moddasining mazmunida quyidagicha bayon qilingan:< Ishda ishtirok etuvchi shaxslardan birortasi sud majlisiga kelmagan bo‘lsa va u ishni ko‘rish vaqt va joyi to‘g‘risida tegishlicha xabardor qilinganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa, appellatsiya instansiyasi sudi ish ko‘rishni keyinga qoldirishi kerak.

Ishda ish ko‘rildigan vaqt va joy to‘g‘risida tegishli tartibda xabardor qilingan ishtirok etuvchi shaxslarning kelmasligi ishni ko‘rish uchun to‘s-qinlik qilmaydi. Biroq, sud bunday hollarda ham kelmaganlik sababbrarini uzrli deb topsa, ish ko‘rishni keyinga qoldirishi mumkin.

Ish bo‘yicha sud majlisida ishtirok etishi kerak bo‘lgan prokuror yoki advokat uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmagan bo‘lsa, bu haqda sud xususiy

ajrim chiqarib, tegishli bo‘lishiga qarab yuqori turuvchi prokurorga yoki O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga ma’lum qilishi kerak.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishni appellatsiya instansiyasida ko‘rib hal qilish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan o‘zlarining iltimosnomalarini yoki arizalarini berishlari mumkin. Agar ish yuzasidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar arizalar bergan bo‘lsa yoki iltimosnomalar bildirgan bo‘lsalar, sud bularni ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning fikrlari tinglangandan so‘ng hal qilishi kerak. Shundan so‘ng appellatsiya instansiyasi sudida ishni ko‘rib hal qilishni ikkinchi qismi boshlandi.

Appellatsiya instansiyasi sudida ishni ko‘rib hal qilishning ikkinchi bosqichi ish yuzasidan ma’ruza qilishdan boshlanadi. Appellatsiya instansiyasi sudida ishni ko‘rib hal qilish kollegiallik prinsipiga asosan sudyalardan iborat tartibda ko‘rib hal qilinadi. Shuning uchun fuqarolik ishini appellatsiya instansiyasi sudida ko‘rib hal qilish sud majlisida raislik qiluvchi yoki sudlardan birining ma’ruzasi bilan boshlanadi.

Ish yuzasidan ma’ruza qiluvchi suda ishning holatini, birinchi instansiya sudining ish yuzasidan chiqargan hal qiluv qarorining mazmunini, appellatsiya shikoyati yoki protestida keltirilgan dalillarni va ular yuzasidan berilgan tushuntirishlarni (e’tirozlarni), keltirilgan yangi dalillarning mazmunini, shuningdek hal qiluv qarorining qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini tekshirish uchun sud ko‘rishi zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni bayon qilishi kerak.

Appellatsiya instansiyasi sudida ish ko‘rishning uchinchi qismini sud majlisining muzokara qismi tashkil qiladi. Sud majlisining ushbu qismida sud majlisida raislik qiluvchi yoki sudyalardan birining ma’ruzasidan keyin sud majlisiga kelgan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini tinglaydi, bu shaxslar appellatsiya shikoyati yoki protestida ko‘rsatilmagan vajlar keltirishga haqli va qo‘srimcha materiallar ham taqdim etishlari mumkin.

Sud majlisining muzokara qismida dastavval appellatsiya shikoyatini bergen shaxs va uning vakili yoki agar ish prokurorning protesti bo‘yicha ko‘rib chiqilayotgan bo‘lsa, birinchi bo‘lib prokuror so‘zga chiqadi. Hal qiluv qarori ustidan har ikki taraf ham appellatsiya tartibida shikoyat bergen bo‘lsa, birinchi bo‘lib da’vogarga so‘ng javobgar tarafga so‘z beriladi.

Boshqa shaxslarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish vakolatiga ega bo‘lgan davlat boshqaruvi organlarining, tashkilotlarining vakillari hamda ayrim fuqarolar sudning hal qiluv qarorlari ustidan appellatsiya shikoyatini bermagan bo‘lsalar, bularga appellatsiya sudida taraflar va uchinchi shaxslardan keyin so‘z beriladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari tinglangandan keyin prokuror birinchi instansiya sudining sud majlisida mazmunan ko‘rib hal qilgan fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilgan hal qiluv qarorining qanchalik qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligi to‘g‘risida o‘zining fikrini bayon qiladi.

Apellatsiya instansiyasi sudida ishni ko‘rib hal qilish jarayonida ish ko‘rishni to‘xtatish uchun FPKning 92, 93-moddalarida ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lsa, sud ish yuritishni to‘xtatib, bu haqda ajrim chiqaradi. Bunday holat yuz bermasa, ish bo‘yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari va prokurorning fikri tinglanganidan so‘ng appellatsiya instansiyasi sudi ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan ajrim chiqarish uchun maxsus xonaga (maslahatxonada) chiqadi.

Apellatsiya instansiyasi sudida ko‘rib hal qilingan ish yuzasidan ajrim chiqarish uchun maslahatxonaga kirish, ajrim chiqarish va uni e’lon qilish appellatsiya instansiyasi sudi majlisining to‘rtinchi qismini tashkil qiladi.

Apellatsiya instansiyasi sudi ko‘rib hal qilgan ish yuzasidan o‘zining ajrimini ish ko‘rilgandan keyin darhol chiqarishi kerak. Alovida hollarda ko‘rilgan ish bo‘yicha asoslantirilgan ajrim tayyorlash ko‘pi bilan uch kunga kechiktirilishi mumkin, lekin ajrimning xulosa qismini sud ishni appellatsiya tartibida ko‘rib hal qilish tamomlangan majlisning o‘zidayoq e’lon qilishi kerak.

Sudyalarning maslahatlashuvi, ajrim chiqarish va uni e’lon qilish FPKning 14-moddasida belgilab qo‘yilgan tartibda o‘tkaziladi. Ushbu moddaga ko‘ra appellatsiya instansiyasi sudi ishni ko‘rib hal qilish jarayonida kelib chiqadigan hamma masalalarni sudyalarning ovoz berish yo‘li bilan hal etadi. Ko‘rib hal qilingan ish yuzasidan ajrimni appellatsiya instansiyasi sudi maxsus xonasida (maslahatxonada) chiqaradi va bu ajrim yozma ravishda tuziladi. Ajrimni chiqarish vaqtida boshqa shaxslarning hozir bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Har bir masala hal qilinayotganda sudyalarning birortasi ham ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Raislik qiluvchi hammadan keyin ovoz beradi. Ozchilik tomonda qolgan sudya o‘zining alovida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqli, uning bu fikri ishga qo‘sib qo‘yiladi, biroq uning fikri e’lon qilinmaydi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alovida fikri bilan tanishtirilmaydi.

Agar appellatsiya sudining ajrimiga alovida fikr bildirilgan bo‘lsa va bu yuqori sud instansiyasida (nazorat instansiyasida) ko‘rilmagan bo‘lsa, u qonuniy kuchga kirgandan keyin ish bilan birga qo‘sib ajrimga nisbatan protest keltirish masalasini hal qilish uchun tegishli sud raisiga yuborilishi kerak.

Apellatsiya instansiysi sudi ko'rib hal qilingan ish yuzasidan o'zining chiqqargan ajrimini o'sha sudning majlisida e'lon qilishi kerak. Ana shu tarzda apellatsiya instansiysi sudida ishni ko'rib hal qilish o'z yakuniga yetadi.

Apellatsiya instansiysi sudining ajrimi qabul qilingan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi. Bu ajrim ustidan kassatsiya tartibida shikoyat va protest keltirilmaydi. Faqat nazorat tartibida protest keltirish mumkin. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar nazorat tartibida protest keltirish vakolatiga ega bo'limganliklari uchun FPKning 350-moddasiga asosan nazorat tartibida protest keltirish to'g'risida ariza bilan tegishli yuqori sudning raisiga yoki protest keltirish huquqiga ega bo'lgan FPKning 349-moddasida ko'r-satilgan shaxslarga nazorat tartibida protest keltirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilishlari mumkin.

4-§. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini appellatsiya tartibida o'zgartirish va bekor qilish asoslari

Birinchi instansiya sudlari fuqarolik ishlarini mazmunan ko'rib hal qilgandan so'ng ish bo'yicha qonuniy, asoslantirilgan hamda adolatli hal qiluv qarorini chiqarishlari kerak. Agar hal qiluv qarori qonuniy, asoslantirilmagan va adolatli bo'lmasa, fuqarolik protsessual qonunchiligidagi ko'r-satib qo'yilgan, appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida yuqori sudlar tomonidan bekor qilinadi.

FPKning 312-moddasida sudning qarorini appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida bekor qilish ishlari ko'rsatilgan. Ushbu moddada ko'r-satilgan asoslar barcha sud qarorlarini bekor qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini appellatsiya tartibida bekor qilish yoki o'zgartirish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

1) ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning aniqlaganligi;

2) sud aniqlangan deb hisoblagan ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning isbotlanmaganligi;

3) sud hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariga muvofiq kelmasligi;

4) moddiy huquq normalari yoki protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanganligi.

Sudlar fuqarolik ishlarini ko'rib hal qilish bilan bog'liq bo'lgan protsessual faoliyatlarini protsessual qonunchiligidagi belgilab qo'yilgan talab-

larga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirishlari kerak. Agar belgilab qo‘yilgan talablarga rioya qilmay, ish yuzasidan qonuniy bo‘lmagan yoki asoslantirilmagan hal qiluv qarori chiqargan bo‘lsalar, bu o‘z navbatida qonuniy kuchga kirmagan sud hal qiluv qarorini appellatsiya tartibida bekor qilish uchun asos bo‘ladi.

Agar birinchi instansiya sudi fuqarolik ishi bo‘yicha moddiy huquq (fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy va boshqalar) normasini noto‘g‘ri tatbiq etib hal qiluv qarori chiqargan bo‘lsa, sudning hal qiluv qarori qonuniy emas, balki g‘ayriqonuniy hisoblanadi. Bunday hal qiluv qarori tegishli bo‘lishiga qarab, yuqori sudlar tomonidan appellatsiya, kassatsiya, nazorat tartibida bekor qilinishiga sabab bo‘ladi.

Moddiy huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash FPKning 313-moddasida ko‘rsatilgan. Ushbu moddada ko‘rsatilishicha, quyidagi hollarda moddiy huquq normalari buzilgan yoki noto‘g‘ri qo‘llangan hisoblanadi:

- 1) sud tatbiq qilinishi lozim bo‘lgan qonunni qo‘llamagan bo‘lsa;
- 2) sud tatbiq qilinmasligi lozim bo‘lgan qonunni qo‘llagan bo‘lsa;
- 3) sud qonunni noto‘g‘ri talqin qilgan bo‘lsa.

Fuqarolik ishini ko‘rib hal qilish jarayonida protsessual huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash ham sud hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos bo‘ladi. Bu borada shuni alohida ta’kidlash kerakki, protsessual normalarning buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanganligi ishning noto‘g‘ri hal etilishiga sabab bo‘lgan yoki sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina qonuniy kuchga kirmagan sud hal qiluv qarori ajrim yoki qarorning bekor qilinishiga asos bo‘ladi.

Protsessual huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash masalasi FPKning 314-moddasida o‘z ifodasini topgan. Ushbu moddaning mazmuniga ko‘ra quyidagi hollarda protsessual huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash, sudning hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun asos bo‘ladi:

- 1) ish sud tomonidan g‘ayriqonuniy tartibda ko‘rilgan bo‘lsa;
- 2) ish sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, ammo sud majlisining vaqtি va joyi to‘g‘risida xabar berilmagan shaxslardan birortasining yo‘qligida ko‘rilgan bo‘lsa;
- 3) ish ko‘rilayotganida ish yuritiladigan tilga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;
- 4) sud ishga qatnashishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlariga doir masalani hal qilgan bo‘lsa;

5) hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;

6) hal qiluv qarori, ajrim, qaror sudyalardan birortasi (sudya) tomonidan imzolanmagan yoki hal qiluv qarori, ajrim, qaror, ularda ko‘rsatilmagan sudyalar (sudya) tomonidan imzolangan bo‘lsa;

7) hal qiluv qarori, ajrim, qaror ishni ko‘rmagan sudyalar tomonidan chiqarilgan bo‘lsa;

8) ishda sud majlisi bayonnomasi mavjud bo‘lmasa yoki u imzolanmagan bo‘lsa. Ushbu asoslar mavjud bo‘lsa, hal qiluv qarori, ajrim, qaror majburiy tartibda bekor qilinishi shart.

Ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning to‘liq aniqlanmaganligi, sud aniqlangan deb hisoblagan, lekin ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning isbotlanmaganligi, sud hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariga to‘g‘ri kelmasligi, birinchi instansiya sudi tomonidan ishning faktik tomonlarining noto‘g‘ri hal qilinganligidan, ya’ni sud hal qiluv qarorining asoslantirilmaganligidan dalolat beradi. Moddiy huquq normalari yoki protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanganligi birinchi instansiya sudi tomonidan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi bo‘yicha chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorining huquqiy tomoni, ya’ni uning qonuniy emasligidan dalolat beradi.

Birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan taraflar tomonidan appellatsiya tartibida keltirilgan shikoyat yoki prokurorning appellatsiya tartibida keltirgan protesti bo‘yicha appellatsiya instansiyasi sudi ishni appellatsiya tartibida ko‘rib hal qilish jarayonida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan asoslar borligini aniqlasa, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini bekor qilishi, o‘zgartirishi yoki yangi hal qiluv qarorini chiqarishi kerak. Agar appellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining ish yuzasidan chiqargan hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirib appellatsiya shikoyati yoki protestini qanoatlantirmasa, buning sabablarini, ya’ni hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos yo‘qligini o‘zining ajrimida ko‘rsatishi kerak. Masalan, taraflardan biri birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berib, o‘zining shikoyatida birinchi instansiya sudi fuqarolik ishini ko‘rib hal qilish uchun protsessual qonunchiligida belgilab qo‘yilgan muddatlarga rioya qilmaganligini ko‘rsatgan bo‘lsa, protsessual muddatlarga rioya qilmaganligi sudning hal qiluv qarorini bekor qilishlik uchun asos bo‘lmaydi. Buni appellatsiya sudi o‘zining ajrimida appellatsiya shikoyati bergen shaxsga yozma ravishda javob berishi kerak.

5-§. Apellatsiya instansiya sudining vakolatlari

Fuqarolik ishini apellatsiya tartibida ko‘rib chiqqan apellatsiya instansiyasi sudi quyidagi vakolatlarga ega:

1) hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka;

2) ishni yangidan ko‘rish uchun yubormasdan hal qiluv qarorini o‘zgartirishga yoxud butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarorini chiqarishga;

3) ushbu Kodeks 314-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga va ishni birinchi instansiya sudiga yangidan ko‘rib chiqish uchun yuborishga;

4) hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda ushbu kodeksning 97 va 100-moddalarida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra arizani ko‘rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni tugatishga haqli.

Apellatsiya instansiyasi sudi o‘z vakolatlarini FPKning 343-moddasiga asoslangan holda o‘zining ish yuzasidan chiqargan ajrimi bo‘yicha amalga oshiradi.

Birinchi instansiya sudining mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilgan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirib, apellatsiya tartibida keltirilgan shikoyat yoki prokuroring apellatsiya tartibida keltirgan protestini esa qanoatlantirilmasligi mumkin, qachonki sudning hal qiluv qarori qonuniy, asoslantirilgan va adolatli bo‘lsa yoxud undagi kamchiliklar hal qiluv qarorini bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun asos bo‘lmasa. Bunday holda sud hay’ati o‘zining ajrimida birinchi instansiya sudi tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni ko‘rsatib o‘tishi kerak. Kamchiliklarni bartaraf etish uchun apellatsiya instansiyasi sudi xususiy ajrim chiqarishi ham mumkin.

Ishni yangidan ko‘rish uchun yubormasdan hal qiluv qarorini o‘zgartirish yoxud butunlay yoki qisman bekor qilish mumkin deganda, apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan ishni mazmunan ko‘rib hal qilish natijasida ish bo‘yicha yangi hal qiluv qarorini chiqarish yo‘li bilan birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini o‘zgartirish, butunlay yoki qisman bekor qilinishni tushunish kerak.

Birinchi instansiya sudining fuqarolik ishi yuzasidan chiqargan hal qiluv qarorini o‘zgartirish deganda, apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan nizo bo‘yicha birinchi instansiya sudining xulosalarini apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan tuzatishni tushunish kerak. Masalan, undiriladigan

narsaning miqdorini kamaytirish yoki ko‘paytirish, da’voning predmetini o‘zgartirish (undiriladigan narsaning o‘rniga uning qiymatini). Apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini o‘zgartirishga haqli. Hal qiluv qarorini o‘zgartirish yangi hal qiluv qarorini chiqarishdan shu bilan farq qiladiki, appellatsiya instansiyasi sudi taraflarning huquq hamda burchlariga doir birinchi instansiya sudining xulosalini o‘zgarishsiz qoldiradi.

Apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining ish bo‘yicha chiqargan hal qiluv qarorini bekor qilsa, o‘zining mazmun- mohiyati bilan birinchi instansiya sudining chiqargan, qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qaroriga teskari bo‘lgan yangi hal qiluv qarorini chiqaradi. Masalan, birinchi instansiya sudi ish bo‘yicha da’vogarning foydasiga moddiy huquq normalarni noto‘g‘ri tatbiq qilib hal qiluv qarori chiqargan bo‘lsa, appellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini bekor qilib, da’vogarning da’vo talabini rad etish to‘g‘risida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Apellatsiya instansiyasi sudi ishni appellatsiya tartibida ko‘rib hal qilganda FPKning 314-moddasida ko‘rsatilgan hal qiluv qarorini bekor qilish asoslari mavjudligini aniqlasa, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilib, ishni birinchi instansiya sudiga yangidan ko‘rib chiqish uchun yuborishi kerak.

Fuqarolik ishini appellatsiya tartibida ko‘rib hal qilgan appellatsiya instansiya sudi FPKning 97, 100-moddalarida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha asoslar berilgani aniqlansa, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilib, ish bo‘yicha yoki arizani ko‘rmasdan qoldirish, ish yuritishni tugatish to‘g‘risida ajrim chiqarishi kerak.

Ish bo‘yicha arizani ko‘rmasdan qoldirish yoki ish yuritishni tugatish asoslari bo‘yicha birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

a) sud FPKning 152-moddasida ko‘rsatilgan da’voga bo‘lgan huquq va uni taqdim etish shartlarini buzgan bo‘lsa;

b) da’voga bo‘lgan huquqni amalga oshirish shartlarini buzgan bo‘lsa. Bulardan tashqari, erkin huquqlig prinsipiga asosan, da’vogar ishini appellatsiya tartibida ko‘rib hal qilish jarayonida o‘z da’vosidan voz kechsa, da’vogar bilan javobgar ushbu bosqichda FPKning 180, 330-moddalariga asosan kelishuv bitimini tuzgan bo‘lsalar va uni appellatsiya sudi tasdiqlasa, appellatsiya instansiyasi sudi bu haqda ajrim chiqarib ish yuritishni tugatadi.

6-§. Birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan shikoyat berish va protest keltirish

Birinchi instansiya sudining fuqarolik ishini mazmunan hal qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ayrim masalalar yuzasidan qabul qiladigan qarori ajrim shaklida chiqariladi. Ajrim sudning hal qiluv qarori kabi fuqarolik ishini mazmunan hal qilib bermaydi. Shuning uchun fuqarolik ishini mazmunan hal qilib bermaydigan birinchi instansiya sudlarining qarorlariga ajrim deb aytildi.

Ajrim ham hal qiluv qaroridan taraflar tomonidan appellatsiya tartibida shikoyat, prokuror tomonidan esa protest keltirishning alohida obyekti hisoblanadi. Fuqarolik ishining oqibatidan manfaatdor shaxs, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat qilish vakolatiga ega bo‘lgan prokuror sudning chiqargan ajrimidan norozi bo‘lsa, amaldagi protsessual qonunchiligi bo‘yicha tegishli bo‘lishiga qarab ajrim ustidan xususiy shikoyat berishi, prokuror esa xususiy protest keltirishi mumkin.

Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan appellatsiya tartibida shikoyat yoki protest keltirish obyekti ekanligi to‘g‘risida shuni alohida ta’kidlash joizki, birinchi instansiya sudining fuqarolik ishini ko‘rib hal qilish bilan bog‘liq bo‘lgan, ayrim masalalar bo‘yicha chiqargan ayrim ajrimlari, taraflar yoki ularning vakili appellatsiya tartibida shikoyat, prokuror tomonidan protest keltirishning obyekti hisoblanmaydi. Faqat protsessual qonunchiligidagi ko‘rsatilgan birinchi instansiya sudining ajrimlarigina appellatsiya tartibida shikoyat berish protest keltirish obyekti bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik protsessual kodeksining sud qarorlari va bayonnomalari deb nomlangan ikkinchi bobining 19-moddasida sudning xususiy ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Ushbu qoida sudning barcha ajrimlari ustidan manfaatdor shaxs xususiy shikoyat, prokuror esa xususiy protest keltirishi mumkinligini bildirmaydi.

Birinchi instansiya sudining fuqarolik ishini ko‘rib hal qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ajrimlarini asosan ikki turga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) birinchi instansiya sudining xususiy ajrimlari;
- 2) birinchi instansiya sudining umumiy ajrimlari.

Sud fuqarolik ishini ko‘rib hal qilish jarayonida ayrim mansabdor shaxslar yoki fuqarolar tomonidan qonuniylik va huquq-tartibot buzilganligini aniqlasa, xususiy ajrim (qaror) chiqarib, uni tegishli organlar va

mansabdor shaxslarga yuborishi kerak. Qonuniylik va huquq tartibotni buzgan shaxslar sudning xususiy ajrimlarida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun o'zлari ko'rgan choralar to'g'risida sudni xabardor qilishlari shart. Bunday xabar sudning chiqargan xususiy ajrimining (qarorining) nusxasi olingan kundan e'tiboran bir oylik muddat ichida ma'lum qilinishi lozim.

Agar sud fuqarolik ishini mazmunan ko'rib hal qilish jarayonida ishda ishtirok etuvchi taraflarning yoki boshqa shaxsning xatti-harakatida jinoyat alomatlari mavjudligini aniqlasa, ushbu shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish masalasini hal qilish to'g'risida prokurorga ma'lum qilishi kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan sud ajimlaridan biri bu – birinchi instansiya sudining fuqarolik ishini ko'rib hal qilish bilan bog'liq bo'lgan, ayrim masalalar yuzasidan chiqaradigan umumiylar xarakterdagi ajrimlaridir. Bu ajrimlar o'zlarining mazmun-mohiyati bilan umumiylar xarakterga ega bo'lganligi uchun umumiylar hisoblanadi. Sudning umumiylar xarakterga ega bo'lgan ajimlarini ham ikki turga bo'lish mumkin:

1) appellatsiya tartibida shikoyat yoki protest keltirishning obyekti bo'lmagan ajimlar;

2) appellatsiya tartibida shikoyat yoki protest keltirishning alohida obyekti hisoblanadigan ajimlar, ya'ni protsessual qonunchiligidagi ko'rsatib qo'yilgan ajimlar.

Sudning kuydagisi ajimlari xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirishning obyekti hisoblanmaydi:

- FPKning 64-moddasasi bo'yicha dalillarni ta'minlash;

- FPKning 84-moddasasi bo'yicha sudning fuqarolik ishi bo'yicha ekspertiza tayinlash;

- FPKning 149 va 150-moddalarida bayon etilgan talablarga rioya qilmay ariza berilganligini yoki davlat boji to'lanmaganligi munosabati bilan arizani harakatsiz qoldirish;

- FPKning 161-moddasasi bo'yicha ishni sudda ko'rishga tayinlash to'g'risidagi ajimlar va boshqalar.

Xususiy shikoyat yoki protest keltirish obyekti bo'lib hisoblanadigan sud ajimlariga quyidagi ajimlar kiradi:

- FPK 64-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan dalillarni ta'minlashni rad etish;

- FPKning 95-moddasasi bo'yicha sudning ish yuritishni to'xtatishi;

- FPKning 99-moddasasi bo'yicha sudyaning arizani ko'rmasdan qoldirishi;

- FPKning 121-moddasasi bo'yicha sudning sud xarajatlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha chiqargan ajimi;

- FPKning 130-moddasi bo'yicha sudning protsessual muddatlarni tiklash va uzaytirib berishi;
- FPKning 147-moddasi bo'yicha sudning fuqarolik ishini bir suddan boshqa sudga o'tkazishi;
- FPKning 160-moddasi bo'yicha sudning ishni sudda ko'rishga tayyorlashi;
- FPKning 213-moddasi bo'yicha sudning hal qiluv qarorining yozuvidagi xatolar va ochiq ko'rinish turgan arifmetik xatolarni tuzatish;
- FPKning 214-moddasi bo'yicha sudning qo'shimcha hal qiluv qarorini chiqarishni rad etish;
- FPKning 215-moddasi bo'yicha sudning qo'shimcha hal qiluv qarorini tushuntirish;
- FPKning 216-moddasi bo'yicha sudning hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish va uni bo'lib-bo'lib ijro etish, hal qiluv qarorini ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish;
- FPKning 374-moddasi bo'yicha sudning ijro asosiga muvofiq ijro varaqasini berish to'g'risidagi ajrimlar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan, manfaatdor shaxslar tomonidan xususiy shikoyat yoki prokuror tomonidan xususiy protest keltirish mumkin bo'lган ajrimlarni mazmun va mohiyatiga qarab yana ikki turga bo'lish mumkin:

- 1) keyinchalik fuqarolik ishini ko'rib hal qilinishiga xalaqit beradigan yoki yo'l qo'ymaydigan, to'sqinlik qiladigan ajrimlar;
- 2) fuqarolik ishini ko'rib hal qilinishiga to'sqinlik qilmaydigan ajrimlar. Fuqarolik ishini ko'rib hal qilinishiga to'sqinlik yoki yo'l qo'ymaydigan sud ajrimlariga quyidagilar kiradi:
 - a) FPKning ish yuritishni to'xtatib turishga bag'ishlangan 7-bobiga oid 92-93-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha ish yuritishni to'xtatib turish to'g'risidagi sudning ajrimi;
 - b) FPKning arizani ko'rmasdan qoldirishga bag'ishlangan 8-bobiga oid 97-moddasida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha sudning 99-moddasiga asosan arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risida chiqargan ajimi;
 - v) FPKning ish yuritishni tugatishga bag'ishlangan 9-bobiga oid 100-moddasida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha sudning chiqargan ajimi.

Fuqarolik ishini ko'rib hal qilinishiga to'sqinlik va yo'l qo'ymaydigan asoslar bo'yicha sudning chiqargan ajrimlaridan tashqari boshqa barcha ajrimlar fuqarolik ishini o'z vaqtida ko'rib hal qilish uchun to'sqinlik qilmaydi. Ishni ko'rish bo'yicha boshlangan sud jarayoni ishni uzil-kesil, ya'ni ish yuzasidan hal qiluv qarorini chiqarish va uni e'lon qilishga qadar davom etib yakunlanadi.

Fuqarolik ishini keyinchalik ko‘rib hal qilinishi uchun boshlangan sud jarayonini davom ettirish uchun to‘sinqinlik qiladigan holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, sud tegishli bo‘lishiga qarab, ish yuritishni to‘xtatadi, arizani ko‘rmasdan qoldiradi, ish yuritishni tugatadi va bu haqda ajrim chiqaradi. Ish yuritishni to‘xtatish, arizani ko‘rmasdan qoldirish uchun asoslar bartaraf qilingandan so‘ng sud fuqarolik ishini protsessual qonunchiligida belgilab qo‘yilgan tartibda ko‘rib hal qiladi.

Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berish huquqi bu – ishda ishtirok etuvchi taraflar uchinchi shaxslar va ularning vakillari, ishda ishtirok etishga ishga jalb qilinmagan, ammo huquq majburiyatları haqidagi masala sud tomonidan hal qilingan shaxslarga birinchi instansiya sudining ajrimlarining qanchalik qonuniy, asoslantirilgan hamda adolatli ekanligini tekshirish bo‘yicha appellatsiya instansiyasi sudida ish qo‘zg‘atish uchun berilgan huquqidir.

Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan protest keltirish huquqi esa tuman (shahar) prokuroriga berilgan appellatsiya instansiyasi sudi ajrimining qonuniyligi asoslantirilganligi va adolatliligini tekshirish bo‘yicha appellatsiya instansiyasi sudida ish qo‘zg‘atish uchun asos, appellatsiya tartibida protest keltirish huquqidir.

FPKning 320-moddasida ko‘rsatilgan shaxslar, appellatsiya tartibida shikoyat berish protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar hisoblanadi.

Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan appellatsiya shikoyati berish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar o‘zlariga berilgan huquqlardan foydalangan holda sudning ajrimi ustidan appellatsiya tartibida xususiy shikoyat bergen, prokuror xususiy protest keltirgan bo‘lsalar, bu o‘z navbatida birinchi instansiya sudining chiqargan ajrimining qanchalik qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini tekshirish bo‘yicha appellatsiya instansiyasi sudida ish qo‘zg‘atish uchun asos bo‘ladi. Appellatsiya tartibida shikoyat va protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar tomonidan keltirilgan appellatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha appellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining ish yuzasidan chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan ajrimining qonuniyligi, asoslantirilgan va adolatliligini tekshiradi.

Fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilingan va qonuniy kuchga kirmagan birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berish hamda protest keltirish huquqi hamda ularni hal qilish, appellatsiya sudlari tomonidan FPKning birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan xususiy shikoyati berish (protest keltirish)ga oid 37-bobi va ushbu bobga tegishli bo‘lgan 346-348 moddalarida belgilab

qo‘yilgan tartibda hal qilinadi. Apellatsiya tartibida keltirilgan shikoyat yoki protest bo‘yicha appellatsiya instansiysi sudi ish qo‘zg‘atib, o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan ajrimining qonuniyligini, asoslantirilganligini hamda adolatligini tekshiradi va shu asosda o‘zining vakolatlarini tekshiruv natijalari bo‘yicha chiqargan ajrimi bilan amalga oshiradi.

FPKning 348-moddasida birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan shikoyat berilganligi (protest keltirilganligi) munosabati bilan ishni ko‘radigan appellatsiya instansiysi sudining vakolatlari ko‘rsatilgan. Ushbu moddaga ko‘ra xususiy tartibda berilgan shikoyat yoki protest bo‘yicha birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan ajrimlarini tekshirish bo‘yicha appellatsiya sudi quyidagi vakolatlarga ega:

- 1) ajrimni o‘zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka;
- 2) ajrimni bekor qilishga va ishni mazmunan ko‘rib chiqish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga;
- 3) ajrimni butunlay yoki qisman o‘zgartirishga yoxud bekor qilishga va masalani mazmunan hal qilishga.

Apellatsiya tartibida keltirilgan shikoyat yoki protest bo‘yicha birinchi instansiysi sudining qonuniy kuchga kirmagan ajrimlarining qonuniy, asoslantirilgan hamda adolatli ekanligini tekshirish natijalari yuzasidan qabul qilingan ajrimi ustidan faqat nazorat tartibida protest keltirish mumkin. Chunki appellatsiya instansiysi sudining ajrimi chiqarilishi bila-noq qonuniy kuchga kiradi.

Sudning xususiy ajrimlari ustidan shikoyat qilish appellatsiya tartibida berilgan shikoyatdan farq qiladi. Bular o‘rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, xususiy shikoyatlardan davlat boji undirilmaydi, appellatsiya shikoyatlaridan Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 3 noyabrdagi 533-sон qarori bilan tasdiqlangan “Davlat boji stavkalari to‘g‘risida”gi qarori hamda Soliq kodeksining 326-moddasi bo‘yicha sudga da’vo taqdim etish paytida da’vo qiymat bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan stavkaning 50 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

Xususiy shikoyat birinchi instansiya sudining protsessual qonunchili-gida nazarda tutilgan hamda fuqarolik ishini ko‘rib hal qilishga to‘sinqilik qiladigan asoslar bo‘yicha chiqargan va qonuniy kuchga kirmagan ajrimlari ustidan ishda ishtirok etuvchi taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan beriladi. Appellatsiya tartibidagi shikoyat birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan emas, balki ushbu sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan beriladi.

III BOB. QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HAL QILUV QARORLARI VA AJRIMLARI USTIDAN KASSATSIYA TARTIBIDA SHIKOYAT BERISH VA PROTEST KELTIRISH BO‘YICHA ISHLARNI QAYTA KO‘RISH (KASSATSIYA TARTIBIDA ISH YURITISH)

1-§. Sud hal qiluv qarorlari, ajrimlarini kassatsiya tartibida qayta ko‘rish bosqichi va uning ahamiyati

Kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan ish yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha huquqiy masalalar fuqarolik protsessual qonunchiligi normalari bilan huquqiy jihatdan tartibga solinadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2001 yil 1 iyundagi “Fuqarolik ishlarni appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko‘rish amaliyoti haqida”gi 4-sonli qarori ham ushbu tartibda sud ishlarni yuritish jarayonida sudlar tomonidan nimalarga e’tibor berish kerakligi borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari”ga bag‘ishlangan ikkinchi bo‘limiga tegishli bo‘lgan 7-10- boblarida inson va fuqarolarga berilgan shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, shuningdek inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari qonuniy tarzda ko‘rsatilgan¹.

Asosiy qonunimiz va uning asosida qabul qilingan boshqa qonunlar bilan inson va fuqarolarga berilgan shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni himoya qilish davlatimiz tomonidan kafolatlangan. Bu Konstitutsiyamizning 44-moddasining mazmunida o‘z ifodasini topgan. Ushbu moddaning mazmunida bayon etilishicha, “Har bir shaxs o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xattiharakatlari ustidan sudga shikoyat qilishi mumkin”. Bu huquq asosiy qonunimiz asosida kafolatlangan huquq bo‘lib hisoblanadi.

Shaxslarga berilgan va davlat tomonidan kafolatlangan ushbu huquqni amalga oshirish kassatsiya instansiyasi sudlari tomonidan FPKning 348¹-moddasida kassatsiya tartibida keltirilgan shikoyat berish (protest) huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan kassatsiya tartibida keltirilgan shikoyat (protest) bo‘yicha birinchi instansiya sudi tomonidan ko‘rilgan

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2015 – Б. 8-16.

ish yuzasidan qabul qilingan va qonuniy kuchga kirgan appellatsiya tartibida ko‘rilmagan sud hal qiluv qarorlari, ajrimlarining qanchalik qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini tekshirish bo‘yicha ishlarni qayta ko‘rish o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Kassatsiya instansiyasi sudlari tomonidan qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan sud hal qiluv qarorlari ustidan kassatsiya tartibida berilgan shikoyat (protest) bo‘yicha fuqarolik ishlarini kassatsiya instansiyasi sudlarida qayta ko‘rish, o‘zining mazmuni, mohiyati bilan birinchi instansiya sudlarida ishni mazmunan ko‘rib hal qilish, shuningdek appellatsiya instansiyasi sudlarida ish yuritish bosqichlaridan farq qiladi, shu jumladan nazorat tartibida ish yuritish bosqichidan ham.

Birinchi instansiya sudlari tomonidan mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishlari bo‘yicha qabul qilingan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari va ajrimlarida yo‘l qo‘yilgan xato hamda kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlab ularni bartaraf qilish maqsadida appellatsiya instansiya sudlari tashkil qilingan. Bu sudlar ham inson va fuqarolarning sud himoyasiga bo‘lgan huquqini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Lekin appellatsiya tartibida ish yuritish bosqichida birinchi instansiya sudlari tomonidan qabul qilingan va qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari va ajrimlari-dagi kamchiliklar hamma hollarda ham appellatsiya instansiyasi sudlari tomonidan aniqlanib bartaraf qilinadi deb bo‘lmaydi. Bu sudlar ham fuqarolik ishlarini qayta ko‘rishda ma’lum xatoliklarga yo‘l qo‘yishlari mumkin.

Birinchi instansiya sudlari tomonidan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishlari bo‘yicha qabul qilingan va qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari hamda ajrimlardagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf qilish, kassatsiya tartibida ish yuritish bosqichida ham amalga oshiriladi. Bu bosqich “Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan kassatsiya shikoyati berish (protest keltirish)¹ deb nomlangan va fuqarolik protsessual kodeksining 38-bobida va ushbu bobga tegishli bo‘lgan 348¹-348¹⁷-moddalarda o‘z ifodasini topgan. Bu moddalarning yig‘indiisi kassatsiya institutini tashkil qilib, kassatsiya tartibida ish yuritishni huquqiy jihatdan tartibga solish bilan birga, shaxslarning sud himoyasiga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishning kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Kassatsiya tartibida ish yuritish fuqarolik protsessining mustaqil bosqichi sifatida, kassatsiya instansiyasi sudi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning birinchi instansiya sudining mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilingan va qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya

¹ Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал кодекси. – Т., 2015.

tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarorlari hamda ajrimining qanchalik qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini tekshirishga qaratilgan kafolatlardan biri hisoblanadi.

Kassatsiya tartibida ish yuritish, o‘zining mazmun- mohiyatiga ko‘ra, kassatsiya instansiyasi sudida ish qo‘zg‘atish bo‘yicha kassatsiya tartibida shikoyat berish protest keltirish huquqi va muddati, tartibi, mazmuni, ishni kassatsiya instansiyasi sudida ko‘rish muddatlari, ishni ko‘rish doirasi, ko‘rish tartibi, shuningdek kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari bilan bog‘liq masalalarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Kassatsiya tartibida ish yuritishning asosiy vazifasi bu -fuqarolik protsessual kodeksining 4-moddasida ko‘rsatilgan, fuqarolik sud ishlarini yuritish oldida turgan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashayotgan shaxsiy huquqlari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy subyektiv huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish yo‘li bilan qonunchilikni mustahkamlashi, huquqning buzilish hollarini oldini olish, ijtimoiy adolatni, fuqarolar o‘rtasida tinchlik va milliy totuvlikni ta’minlash huquqiy targ‘ibot va fuqarolarning huquqiy ongini oshirishga xizmat qiladi. Fuqarolik sud ishlarining oldida turgan vazifalarini kassatsiya instansiyasi sudlari, birinchi instansiya sudlari tomonidan mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan birinchi instansiya sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e’tiboran bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etish uchun jalb qilingan boshqa shaxslar, shuningdek, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar tomonidan kassatsiya tartibida berilgan shikoyatlar, prokurorlarning protesti asosida ishlarni qayta ko‘rish orqali amalga oshiradilar.

2-§. Kassatsiya instansiya sudiga murojaat qilish huquqi va uni amalga oshirish tartibi

Kassatsiya instansiyasi sudida ish qo‘zg‘atish birinchi instansiya sudi tomonidan mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilingan va qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori yoki ajrimi ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish, protest keltirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Kassatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish huquqi bu – kassatsiya instansiyasi sudida ish qo‘zg‘atish uchun asos hamda birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan appellatsiya tartibda ko‘rilmagan hal qiluv qarori hamda ajrimini

qonuniyligi, asoslantirilganligi va adolatligini cassatsiya instansiyasi sudi tomonidan cassatsiya tartibida berilgan shikoyat (protest) asosida ishlarni qayta ko‘rish orqali tekshirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatini quvvatlashga qaratilgan huquqdir. Bu huquq FPKning 348¹-moddasida ko‘rsatilgan.

Ushbu moddaning mazmunida bayon etilishicha, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori ustidan sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e’tiboran bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etish uchun jalg qilingan boshqa shaxslar, shuningdek ishtirok etishga jalg qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlar haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar cassatsiya tartibida shikoyat berishi va prokuror protest keltirishi mumkin.

Qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan bиринчи instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari cassatsiya instansiyasi sudida ishni qayta ko‘rishning obyektini tashkil qiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan shaxslar esa, cassatsiya tartibida shikoyat berish protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar hisoblanadi, shu jumladan, FPKning 33-moddasida ko‘rsatilgan shaxslar ham.

Kassatsiya tartibida shikoyat berish (protest keltirish) huquqini amalga oshirish o‘ziga xos xususiyatga ega. Kassatsiya shikoyatlari va protestlari cassatsiya instansiyasi sudi nomiga yoziladi, lekin hal qiluv qarori chiqqargan sudga beriladi. Vakil tomonidan cassatsiya shikoyatiga ishonchnoma yoki vakilning vakolatlarini tasdiqlaydigan boshqa hujjat ilova qilinishi lozim.

Kassatsiya shikoyati yoki protesti ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib miqdoridagi nuxalar bilan birga sudga taqdim etilishi kerak. Axborot tizimi orqali elektron shaklda yuboriladigan cassatsiya shikoyati yoki protesti bundan mustasno. Bu qoida FPKning 348³-moddasiga 3-qism qilib kiritildi¹.

Sudga zarur hollarda cassatsiya shikoyati bergen shaxs yoki cassatsiya protesti keltirgan prokuror zimmasiga cassatsiya shikoyati yoki cassatsiya protestiga ilova qilingan yozma materiallarining nuxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslar soniga mutanosib miqdorda taqdim etish majburiyatini yuklashi ham mumkin.

Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi g‘ayriqonuniy ravishda bekor qilinganda yoki xodim bir ishdan boshqa ishga g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazilganda avvalgi ishga tiklash to‘g‘risida sud chiqqargan hal qiluv qarori ustidan cassatsiya shikoyati shu qarorning ijrosiga doir hujjat ilova

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 9 июндаги ЎРҚ-388-сонли қонуни таҳририда. – ЎРҚХТ. – 2015. – №23. – 301-м.

qilingan taqdirdagina qabul qilinadi. Aks holda sud cassatsiya shikoyatini qabul qilmaydi.

Kassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki prokuror tomonidan keltirilgan protest cassatsiya instansiya sudida ish qo‘zg‘atish asosi bo‘lishi bilan birga o‘zining mazmuniga ham ega bo‘lishi kerak. Kassatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish vakolatiga ega bo‘lgan subyektlar tomonidan cassatsiya tartibida berilgan shikoyatda yoki protestida quydagilar ko‘rsatilishi lozim:

- 1) shikoyat berilayotgan yoki protest keltirilayotgan sudning nomi;
- 2) shikoyat berayotgan yoki protest keltirayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi);
- 3) shikoyat berilayotgan hal qiluv qarori va uni chiqargan sud;
- 4) hal qiluv qarorining noto‘g‘riliqi nimadan iborat ekanligi;
- 5) shikoyat berayotgan yoki protest keltirayotgan shaxsning iltimosi;
- 6) shikoyat yoki protestga ilova qilingan yozma materiallarning ro‘yxati.

Kassatsiya shikoyati, shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzolanishi kerak. Kassatsiya protesti ushbu ishda qatnashganligidan qat‘i nazar, prokuror tomonidan keltiriladi va imzolanadi.

Kassatsiya shikoyatida yoki protestida shikoyat bergen yoki protest keltirgan shaxsning yoxud uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron manzili ko‘rsatilishi mumkin¹.

Qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish yoki protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar FPKning 348¹-moddasida ko‘rsatilgan muddatga rioya qilishlari kerak. Kassatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish huquqi qaysi vaqtdan boshlab vujudga keladi va qachon tugaydi, muddat o‘tkazib yuborilsa tiklanadimi yoki yo‘qmi degan savollarga to‘g‘ri javob berish o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Birinchi instansiya sudining ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori, agar uning ustidan shikoyat berilmagan yoki protest keltirilmagan bo‘lsa, appellatsiya shikoyati berish va protest keltirish muddati o‘tgandan keyin qonuniy kuchga kiradi. Hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyati berilgan yoki appellatsiya protesti keltirilgan taqdirda hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo‘lsa, ishni yuqori instansiya sudi ko‘rib chiqqandan keyin qonuniy kuchga kiradi. Bu holat FPKning 217-moddasini mazmunida ko‘rsatib o‘tilgan.

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 9 июндаги ЎРК-388-сонли қонунига асосан учинчи қисм билан тўлдирилган. – ЎР ҚХТ. – 2015. – №23. – 301-м.

Ushbu moddada appellatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish muddati ko'rsatilmagan. FPKning 320-moddasining 1-qismida ko'rsatilishicha, sud tomonidan hal qiluv qarori chiqarilgan kundan e'tiboran yigirma kun ichida taraflar ishda ishtirok etishga jalg qilingan boshqa shaxslar, shuningdek, ishda ishtirok jalg qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlar haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarori ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berishlari, prokuror esa protest keltirishi mumkin. Ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin berilgan shikoyat (protest) ko'rilmasad qoldiriladi va shikoyat bergen shaxsga yoki protest keltirgan prokurorga qaytarib beriladi.

Hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirishi uchun uning ustidan appellatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish borasida belgilab qo'yilgan yigirma kunlik muddat o'tishi kerak. Agar bu muddat o'tkazilib yuborilgan bo'lsa, uni tiklash masalasi FPKning 130-moddasida ko'rsatilgan tartibda hal qilinadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar qonunda belgilangan muddatni sud uzrli deb topgan sabablarga ko'ra, o'tkazib yuborgan bo'lsalar, o'tkazib yuborilgan muddat birinchi instansiya sudi tomonidan tiklanadi.

O'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risidagi ariza protsessual harakat bajarilishi yoki hujjat topshirilishi lozim bo'lgan sudga beriladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko'rib chiqiladi. Ariza bergen shaxsning sud majlisiga kelmasligi muddatni tiklab berish masalasini hal qilish uchun to'sqinlik qilmaydi. O'tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtida muddati o'tkazib yuborilgan harakat bajarilishi yoki tegishli hujjat topshirilishi lozim.

Qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarori ustidan cassatsiya tartibida shikoyat berish uchun o'tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklab berishni sud rad qilsa, bu haqida u ajrim chiqarishi kerak. Sudning protsessual muddatni tiklab berishni rad qilish to'g'risida chiqargan ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Kassatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish to'g'risida belgilab qo'yilgan protsessual muddat o'tkazib yuborilganda uni tiklash masalasini cassatsiya instansiyasi sudi emas, birinchi instansiya sudi hal qiladi. Bu borada o'tkazib yuborilgan protsessual muddatning o'tkazib yuborilganligi sabablari asosiy rol o'ynaydi. O'tkazib yuborganlik sabablarini sud uzrli deb topsa, o'tkazib yuborilgan muddatni tiklaydi, sabablar uzsiz bo'lsa, o'tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklab berishni rad qiladi.

O‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni sud tiklab bersa, uni tiklash to‘g‘risida sudga murojaat qilgan shaxs sud hal qiluv qarori ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish huquqiga ega bo‘ladi. Agarda sud o‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklab berish to‘g‘risidagi talabni rad etsa, bu qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish huquqidan mahrum qiladi. Bunday hal qiluv qarori ustidan nazorat tartibida protest keltirish vakolatiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar nazorat tartibida protest keltirishlari mumkin. Buning uchun manfaatdor shaxs tegishli yuqori sudning raisiga yoki nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxsga uch yil mobaynida ariza bilan murojaat qilgan bo‘lishi kerak. Arizada ko‘rsatilgan sabablar uzrli bo‘lsa protest keltiriladi, uzrsiz bo‘lsa uning sabablarini ko‘rsatib, yozma ravishda javob berishi kerak.

3-§. Kassatsiya shikoyatini (protestini) harakatsiz qoldirish, qo‘shilish, to‘ldirish, o‘zgartirish, shikoyatdan voz kechish va protestni qaytarib olish

Kassatsiya shikoyati o‘z-o‘zidan harakatsiz qoldirilmaydi. Buning uchun ma’lum sabablar bo‘lishi kerak. Kassatsiya tartibida berilgan shikoyatni (protestni) harakatsiz qoldirish uchun FPKning 348³-348⁴-moddalarida ko‘rsatilgan talablarning buzilganligi asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, kassatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha qonunda belgilab qo‘yilgan va to‘lanishi kerak bo‘lgan davlat bojining to‘lanmaganligi ham kassatsiya tartibida keltirilgan shikoyat yoki protestni harakatsiz qoldirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kassatsiya shikoyati yoki protesti harakatsiz qoldirilsa, sud bu haqda ajrim chiqaradi. Sudya o‘zining ajrimida kassatsiya shikoyati yoki protestini harakatsiz qoldirish uchun asos bo‘lgan, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va ularni tuzatish uchun muddatni ko‘rsatishi kerak. Ajrim kassatsiya shikoyati bergen yoki protest keltirgan shaxsga imzo qo‘ydirib topshiriladi yoki unga pochta orqali yoxud axborot tizimi orqali elektron shaklda yuborilishi kerak¹.

Agar shikoyat bergen yoki protest keltirgan shaxs sudyaning kassatsiya shikoyati yoki kassatsiya protestini harakatsiz qoldirish to‘g‘risidagi ajrimida ko‘rsatilgan kamchiliklarni belgilangan muddatda tuzatsa, shikoyat yoki

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 9 июндаги ЎРҚ-388-сонли қонуни таҳририда. – ЎР ҚҲТ. – 2015. – №23. – 301-м.

protest dastlab sudga taqdim etilgan kundan berilgan hisoblanadi. Aks holda, shikoyat yoki protest berilmagan hisoblanib, shikoyat bergen yoki protest keltirgan shaxsga qaytariladi va bu haqida sudyu ajrim chiqarishi kerak. Shikoyat yoki protest shikoyat bergen yoki protest keltirgan shaxsga ajrim bilan birga imzo qo‘ydirib topshirilishi yoki pochta orqali yoxud axborot tizimi orqali elektron shaklda yuborilishi kerak (FPKning 348⁵-moddasi).

Kassatsiya tartibida shikoyat berish va protest keltirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan masalalardan yana biri bu – kassatsiya shikoyatiga qo‘shilishdir. Ushbu masala FPKning 348⁷-moddasining mazmunida bayon etilgan. Ushbu moddaning mazmuniga ko‘ra, protsessda kassatsiya shikoyati bergen taraf tomonida qatnashayotgan sherik ishtirokchilar va uchinchi shaxslar berilgan shikoyatga qo‘shilishlari mumkin. Shikoyatga qo‘shilish haqida ariza bergen vaqtida davlat boji undirilmaydi. Davlat boji faqat kassatsiya tartibida shikoyat bergen tarafdan undiriladi.

Kassatsiya shikoyatini (protestini) to‘ldirish, o‘zgartirish, shikoyatdan voz kechish va protestni qaytarib olish masalalari ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan hisoblanadi va ma’lum huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Buning uchun kassatsiya shikoyatini yoki protestini to‘ldirish, o‘zgartirish, undan voz kechish va qaytarib olishga kim haqli ekanligini bilib olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kassatsiya tartibida kim shikoyat bergen bo‘lsa, o‘sha shaxsning o‘zi shikoyatni to‘ldirishi, o‘zgartirishi yoki undan voz kechishi mumkin. Kassatsiya tartibida shikoyat bergen shaxsdan boshqa shaxslar shikoyatni to‘ldirish, o‘zgartirish va undan voz kechishga haqli emaslar. Bu huquq faqat kassatsiya tartibida shikoyat bergen shaxsga berilganligi uchun ham u xohlasa shikoyatni to‘ldiradi, o‘zgartiradi yoki undan voz kechadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat olib borish prokuratura organlarining oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Bu vazifani O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshirishlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasi¹da hamda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Prokuratura to‘g‘risida”²gi qonuni 1-moddasining 2-qismida ko‘rsatilgan.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2015. – Б.66.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2001. – №9-10. – 168-м.; 2003. – №5. – 67-м.; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2004. – №51. – 514-м.; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси. – 2007. – №6. – 249-м.

Prokuratura organlari oldida turgan asosiy vazifalaridan kelib chiqib, kassatsiya protesti keltirgan prokuorning o‘zi protestni to‘ldirishi, o‘zgartirishi va qaytarib olishi mumkin. Bundan tashqari, prokuror tomonidan keltirilgan kassatsiya protestini yuqori turuvchi prokuror ham sud majlisi boshlangunga qadar protestni to‘ldirishi, o‘zgartirishi va qaytarib olishi mumkin. Agar prokuror tomonidan kassatsiya tartibida keltirilgan protest bo‘yicha ishni ko‘rish kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan boshlagan bo‘lsa, kassatsiya tartibida protest keltirgan prokuorning o‘zi yoki yuqori turuvchi prokuror protestni qaytarib ololmaydi va undan voz kecha olmaydi. Kassatsiya tartibida shikoyat bergen shaxs fuqarolik protsessining barcha bosqichlarida sud ishlarini yuritish jarayonida o‘zining keltirgan shikoyatidan voz kechishi mumkin, shu jumladan, kassatsiya instansiyasi sudida sud ishlarini yuritish jarayonida ham.

Agar hal qiluv qarori ustidan boshqa shaxslar kassatsiya tartibida qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori ustidan shikoyat bermagan bo‘lsa, shikoyatdan voz kechishi kassatsiya instansiyasi sudi qabul qilgan bo‘lsa va protest qaytarib olingan bo‘lsa, kassatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqarib, o‘zining ajrimi bilan kassatsiya tartibida ish yuritishni tugatishi kerak.

4-§. Kassatsiya tartibida berilgan shikoyatlarni yoki keltirilgan protestlarni ko‘rib hal qilish tartibi

Fuqarolik protsessual qonunchiligidagi belgilab qo‘yilgan qoidalarga rioya qilib, qonuniy kuchga kirgan appellatsiya tartibida ko‘rib hal qilinmagan hal qiluv qarori ustidan berilgan shikoyat va protestlar, hal qiluv qarorini chiqargan sud tomonidan qabul qilib olinishi kerak. Chunki kassatsiya shikoyatlari va protestlari kassatsiya instansiyasi sudi nomiga yozilgan bo‘lsa ham ish yuzasidan hal qiluv qarori chiqargan sudga berilishi kerakligi FPKning 348³-moddasida ko‘rsatilgan.

Kassatsiya shikoyati yoki protestini olgandan so‘ng birinchi instansiya sudi quyidagi harakatlarni amalga oshirishi kerak:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protestning nusxalarini yuborish;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ishni kassatsiya instansiyasida ko‘rishi vaqtini joyi to‘g‘risida ma’lum qilish;

3) sud qarori ijrosini (agar u ijro etilmagan bo‘lsa) ish kassatsiya tartibida ko‘rilmuniga qadar to‘xtatib qo‘yish va bu xususda manfaatdor shaxslar, tashkilotlarni xabardor etish;

4) cassatsiya shikoyati yoki protesti kelib tushgan kundan e'tiboran yigirma kunlik muddat ichida ishni tushgan shikoyat yoki protest bilan birga cassatsiya instansiyasi sudiga yuborishi shart.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudda ish materiallari va tushgan shikoyatlar yoki protestlar bilan tanishishga haqli.

FPKning 348⁸-moddasida ko'rsatilishicha, cassatsiya shikoyati (protesti) yuzasidan tushuntirish berish (e'tiroz bildirish) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga berilgan huquqlardan biri. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'zlariga berilgan ushbu huquqdan foydalanib, hal qiluv qarori ustidan cassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki keltirilgan protest yuzasidan tushuntirishlar bersa, uning bergen tushuntirishlarini (e'tirozlarini) tasdiqlaydigan hujjatlar ham ilova qilib berilishi kerak.

Tushuntirishlar (e'tirozlar) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga mutanosib miqdordagi nusxalari bilan birga sudga taqdim etilishi lozim. Axborot tizimi orqali elektron shaklda yuboriladigan tushuntirishlar (e'tirozlar) bundan mustasno. Tushuntirishlarning (e'tirozlarining) nusxalarini sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshirishi, yuborishi kerak¹.

Kassatsiya instansiya sudi birinchi instansiya sudi tomonidan yigirma kun ichida yuborilgan ishni tushgan shikoyat bilan olgandan so'ng uni darhol ko'rib hal qilmaydi. Ishni shikoyat (protest) bilan birga olgandan so'ng cassatsiya instansiya sudi ham ma'lum protsessual harakatlarni bajarishi kerak. Kassatsiya instansiya sudi ishni shikoyat (protest) bilan olgandan so'ng quyidagi protsessual harakatlarni amalga oshiradi:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protest yuzasidan tushuntirish berishni (e'tiroz bildirishni) taklif qilish, tushuntirishlarning (e'tirozlarining), shuningdek, ularga ilova qilingan hujjatlarning nusxalarini ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshirish;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha dalillarini talab qilib olishga ko'maklashish.

Qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarori ustidan cassatsiya tartibida berilgan shikoyatni yoki keltirilgan protestni cassatsiya tartibida ko'rib hal qilish vakolatiga ega bo'lgan sudlarni aniqlab, ish ko'rish tartibini bilib olish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalaning tub mohiyatini tushunib olish uchun FPKning 348²-moddasining mazmuniga hamda 14,333-342-moddalarining mazmunida ko'rsatilgan holatlarga e'tiborni qaratish kerak.

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 9 июндаги ЎРҚ-388-сонли қонуни таҳририда. – ЎРҚХТ. – 2015. – №23. – 301-м.

FPKning 348²-moddasining mazmunida bayon etilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) quyidagi sudlar appellatsiya tartibida ko‘rib hal qiladi:

1) Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari — tegishli fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudining, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini);

2) O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi — okrug va hududiy harbiy sudlarning hamda O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini);

3) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini);

4) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay’ati — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay’atining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi — okrug va hududiy harbiy sudlarning hamda O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) kassatsiya tartibida ko‘rib hal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘rib hal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay’ati — O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay’atining hal qiluv qarorlari ustidan berilgan kassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘rib hal qiladi.

Qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalg qilinmagan, ammo huquq va majburiyatları haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar tomonidan kassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki prokuror tomonidan kassatsiya tartibida keltirilgan protest bo‘yicha fuqarolik ishlari qayta ko‘rish vakolatiga ega bo‘lgan kassatsiya instansiya sudlari, jumladan: Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi

kassatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha tushgan fuqarolik ishini u kelib tushgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ko‘rib chiqishi lozim. Ish o‘ta murakkab bo‘lgan yoki boshqa hollarda tegishli sudning raisi bu muddatni ko‘pi bilan yana yigirma kunga uzaytirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi kassatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha tushgan fuqarolik ishini u kelib tushgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ko‘rib chiqishi lozim. Alovida hollarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi yoki uning o‘rribbosari bu muddatini ko‘pi bilan yana bir oyga uzaytirishi mumkin.

Fuqarolik ishini kassatsiya instansiyasi sudlarida ko‘rish muddati uzaytirilganda ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish ko‘riladigan kun oldidan birinchi instansiya sudi tomonidan xabardor qilinishi kerak.

Kassatsiya tartibida berilgan shikoyat va keltirilgan protest bo‘yicha fuqarolik ishini kassatsiya instansiyasi sudlarida ko‘rib hal qilish muddatlarini oldindan qonun bilan belgilab qo‘yilganligi o‘ta muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, kassatsiya instansiyasi sudlari tomonidan kassatsiya tartibida berilgan shikoyat va protestlarni o‘z vaqtida ko‘rib hal qilish yo‘li bilan sudga murojaat qilgan shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan subyektiv huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud yo‘li bilan himoya qilishni kafolatlaydi. Ikkinchidan, kassatsiya instansiyasi sudlari tomonidan xohlagan ishni xohlagan muddatda ko‘rib hal qilishning oldini oladi, ya’ni ishni o‘zboshimchalik asosida ko‘rishga yo‘l qo‘ymaydi. Uchinchidan, ishni o‘z vaqtida ko‘rib hal qilish va ish yuzasidan qonuniy, asoslanantirilgan va adolatli odil sudlov hujjatlarini qabul qilishni ta’minalashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kassatsiya instansiya sudlari ham kassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki protest bo‘yicha fuqarolik ishini protsessual qonunchiligidagi ko‘rsatilgan tartibda sud majlisida ko‘rib hal qiladi. Kassatsiya shikoyatini (protestini) sud majlisida ko‘rish tartibi FPKning 348¹⁴-moddasida ko‘rsatilgan. Ushbu moddada ta’kidlanishicha, kassatsiya instansiyasining sud majlisi kodeksning 14, 333-342-moddalarida nazarda tutilgan tartibda o‘tkazilishi kerak.

Kassatsiya instansiyasi sudining majlisida raislik qiluvchi 164, 165, 166-moddalariga amal qilib, sud majlisida tegishli tartibni ta’minalash chorasini ko‘rishi kerak. Sud majlisida raislik qiluvchi sud majlisini ochadi, kimning kassatsiya tartibda bergen shikoyati yoki protesti bo‘yicha hamda qaysi sudning qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori yuzasidan qanday ish ko‘rilihini e’lon qiladi. Raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qaysi biri kelmaganligini,

kelmaganlik sabablari to‘g‘risida qanday ma’lumotlar borligini, sudga kelganlarning shaxsini aniqlashi kerak. Shu bilan birga, mansabdor shaxslar hamda vakillarning vakolatini tekshiradi.

Raislik qiluvchi sud tarkibini e’lon qiladi, sud majlisining kotibi, prokuror, ekspert, tarjimon sifatida kimlar qatnashayotganligini ma’lum qiladi va bu ishda ishtirok etuvchi shaxslarga rad qilish haqida arz qilish huquqlarini tushuntiradi. Agar ishda ishtirok etuvchi shaxslardan sudyani, prokurorni, ekspertni, mutaxassisni, tarjimon va sud majlisining kotibini rad qilish to‘g‘-risida ariza berilgan bo‘lsa, sud rad qilish asoslariga e’tibor berishi kerak.

Ishning pirovard natijasidan shaxsan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lsa, yoxud uning xolisligiga shubha tug‘diradigan boshqa holatlar mavjud bo‘lsa yoki shu ish ilgari ko‘rilganida guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon, vakil, prokuror, sud majlisining kotibi sifatida qatnashgan bo‘lsa, shuningdek ishda ishtirok etuvchi taraflarning qarindoshi bo‘lsa, sudya tomonidan ishni ko‘rishga yo‘l qo‘yilmaydi. Sudya ushbu asoslarga ko‘ra ishni ko‘rishdan chetlashtirilishi kerak. Bir-biriga qarindosh shaxslar sud tarkibiga kirishi mumkin emas. Bu asoslar FPKning 25-moddasining mazmunida o‘z ifodasini topgan. Prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon va sud majlisining kotibi ishning pirovard natijasidan shaxsan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lsa, yoxud uning xolisligiga shubha tug‘diradigan boshqa holatlar mavjud bo‘lsa, shuningdek ishda ishtirok etuvchi taraflarning yoki boshqa shaxslarning qarindoshi bo‘lsa, bular ham ishni ko‘rishdan chetlashtirilishi kerak.

Bundan tashqari, ekspert, mutaxassis va tarjimon ishda ishtirok etuvchi taraflarga yoki boshqa shaxslarga xizmat yuzasidan yoxud boshqacha tarzda qaram bo‘lsa, ekspert va mutaxassis esa, shuningdek, taftish o‘tkazgan yoki xulosa ham bergen bo‘lib, ularning materiallari mazkur fuqarolik ishni qo‘zg‘atishga asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, ularni rad qilish to‘g‘-risida ariza berishlari mumkin.

Rad qilish masalasi bo‘yicha shuni alohida ta’kidlash kerakki, FPKning 25,26 va 27-moddalarida ko‘rsatilgan holatlar mavjud bo‘lsa, sudya, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon va sud majlisining kotibi bu haqda sudga arz qilishi (o‘z-o‘zini rad qilishi) shart. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ham yuqoridagi asoslar bo‘yicha rad qilish haqida arz qilishlari mumkin.

Rad qilish to‘g‘risida arz asoslangan bo‘lishi va ishni ko‘rish boshlangunga qadar ma’lum qilinishi lozim. Rad qilish haqida kechikib arz qilishga rad qilish uchun asoslar, sudga yoki rad qilishni so‘rab arz qilgan shaxsga ishni ko‘rish boshlab yuborilgandan so‘ng ma’lum bo‘lib qolgan hollardagina yo‘l qo‘yiladi. Boshqa hollarda bunga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kassatsiya instansiyasi sudida rad qilish to‘g‘risida ishda ishtirok etayotgan shaxslar tomonidan arz qilingan bo‘lsa, uni hal qilish FPKning 29-moddasida ko‘rsatilgan tartibda hal qilinishi kerak. Ushbu moddaning mazmunida bayon qilinishicha, rad qilish to‘g‘risida arz qilingan taqdirda, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrini, agar rad qilishni talab qilayotgan shaxs tushuntirish berishni xohlasa, uning so‘zlarini ham eshitishi kerak.

Sudyani rad qilish masalasi rad qilinishi talab qilingan sudyaning ishtirokisiz qolgan sudyalar tomonidan hal qilinadi. Rad qilishni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar soni teng bo‘lib qolsa, suda rad qilingan hisoblanadi. Ikki sudyaning yoki sudning butun tarkibini rad qilish talab qilinganida rad qilish masalasi shu sudning to‘liq tarkibida ko‘pchilik ovoz bilan hal qilinadi.

Prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon va sud majlisi kotibini rad qilish masalasini ishni ko‘rib chiqayotgan sudning o‘zi hal qiladi.

Rad qilish masalasini hal qilish uchun suda (sud) alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqadi va rad qilish talabini qabul qilish yoki qabul qilmaslik to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

Rad qilish to‘g‘risidagi arizani qanoatlantirish ma’lum huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudida, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudida ko‘rilayotganida suda yoki sudning butun tarkibi rad qilingan taqdirda, ish shu sudning o‘zida, lekin boshqa sud tarkibida ko‘riladi.

Agar Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudida, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida FPKning 27-moddasida ishni ko‘rishda sudyaning takror ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmasligi sabablariga ko‘ra rad qilish qanoatlantirilganidan keyin shu ishni ko‘rish uchun sudning yangi tarkibini tashkil qilishga imkon bo‘lmasa, ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga o‘tkazilishi lozim. Bunday hollarda ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ko‘riladi yoki O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining farmoyishiga binoan ko‘rish uchun boshqa tegishli sudga yuboriladi. Ish qaysi sudga yuborilgan bo‘lsa, o‘sha sud tomonidan ko‘rib hal qilinadi.

Raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga rad qilish bo‘yicha arz qilish huquqiga ega ekanliklarini tushuntirgandan keyin bu haqda ariza berilmagan bo‘lsa, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslardan birortasi sud majlisiga kelmagan bo‘lsa va u ishni ko‘rish vaqt va joyi

to‘g‘risida tegishlicha xabardor qilinganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa, sud ish ko‘rishni keyinga qoldiradi. Ishda ishtirok etuvchi, ish ko‘riladigan vaqt va joy to‘g‘risida xabardor qilingan shaxslar sud majlisiga kelmassa, sud ishni ularni yo‘qligida ham ko‘rib hal qilishi mumkin. Bunday shaxslarning sud majlisiga kelmasligi ishni ko‘rish uchun to‘sinqil qilmasligi protsessual qonunchiligidagi ko‘rsatilgan. Shunday bo‘lsa-da, sud ularni sud majlisiga kelmaganlik sabablarini uzrli deb topsa, ishni ko‘rishni keyinga qoldirishi ham mumkin.

Agar prokuror yoki advokat uzsiz sabablarga ko‘ra sud majlisiga kelmay qolgan bo‘lsa, sud bu haqida ajrim chiqarib, bularning sud majlisiga kelmaganliklarini tegishli bo‘lishiga qarab, yuqori turuvchi prokurorga yoki O‘zbekiston Respublikasi advokatlar palatasining huquqiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga ma’lum qilishi kerak.

Yuqorida bayon etilgan holatlar kassatsiya instansiyasi sudi majlisining birinchi qismida sud majlisida raislik qiluvchi tomonidan amalga oshiriladi. Ishni kassatsiya instansiyasi sudida ko‘rish raislik qiluvchi yoki sudyalardan birining ma’ruzasi bilan boshlanadi. Ma’ruzachi ishning holatini qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarorining mazmunini, kassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki keltirilgan protest va ular yuzasidan berilgan tushuntirishlarini (e’tirozlarni), keltirilgan, ya’ni dalillarning mazmunini, shuningdek hal qiluv qarorining qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini tekshirish uchun sud zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni bayon qiladi.

Kassatsiya instansiyasi sudida kassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki kassatsiya tartibida keltirilgan protest bo‘yicha ishni ko‘rish jarayonida taraflar o‘zaro kelishuv bitimini tuzish yo‘li bilan ish yuritishni tughatlari mumkin. Kassatsiya shikoyati berilgan yoki protest keltirilgandan keyin da’vogar o‘zining da’vo talablaridan voz kechsa, javobgar da’vogarni da’vo talablarini tan olsa, taraflar yozma shaklda, jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda o‘zaro kelishuv bitimi tuzgan bo‘lsalar, bular kassatsiya instansiyasi sudiga topshirilishi kerak, agar da’vogar kassatsiya instansiyasi sudida ishni ko‘rish vaqtida o‘zining da’vo talablaridan voz kechsa, javobgar da’vogarni arz qilgan talablarini tan olsa yoki taraflar kelishuv bitimi tuzgan bo‘lsalar, bu haqida sud majlisining bayonnomasiga yozib qo‘yilib, bayonnomaga tegishli bo‘lishiga qarab da’vogar, javobgar yoki har ikki taraf tomonidan imzolanishi kerak.

Sud da’vodan voz kechishni qabul qilishni yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin da’vogarga yoki ikkala tarafga bunday protsessual harakatlar qanday huquqiy oqibatlarga olib kelishini tushuntirib berishi

kerak. Agar kassatsiya instansiyasi sudi da'vogarning arz qilgan talablari- dan voz kechganligini qabul qilsa yoki taraflar o'rtasida tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlasa, bu haqida ajrim chiqarib, birinchi instansiya sudini ish bo'yicha chiqarilgan va qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorini bekor qilib ish yuritishini tugatishi kerak. Agar da'vogarning arz qilgan talablardan voz kechishi yoki taraflarning kelishuv bitimi qonunga zid bo'lsa, yoxud kimningdir huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan bo'lsa, sud voz kechishni rad qiladi yoki tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlamay ishni kassatsiya tartibida ko'rib hal qilishi kerak.

Sud majlisida raislik qiluvchi yoki sudyalardan biri ish bo'yicha ma'ruza qilgandan so'ng sud majlisiga kelgan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini tinglaydi, bu shaxslar kassatsiya shikoyati yoki protestida ko'rsatilmagan vajlar va qo'shimcha materiallar taqdim etish huquqiga ham ega.

Kassatsiya instansiyasida ishni ko'rish jarayonida kassatsiya shikoyatini bergen shaxs va uning vakili birinchi bo'lib, agar ish prokurorni kassatsiya tartibida keltirgan protesti bo'yicha ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, birinchi bo'lib prokuror so'zga chiqadi. Hal qiluv qarori ustidan har ikki taraf ham shikoyat bergen bo'lsa, birinchi bo'lib da'vogar undan keyin javobgar so'zga chiqadi.

Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish vakolatiga ega bo'lган FPKning 48-moddasida ko'rsatilgan davlat boshqaruvi organlarining, tashkilotlarning vakillari, shuningdek, ayrim fuqarolar, agar sudning qonuniy kuchga kirgan appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarori ustidan kassatsiya shikoyati bermagan bo'lsalar, kassatsiya instansiyasi sudining majlisida taraflar va uchinchi shaxslardan keyin so'zga chiqadilar. Agar bularning vakillari va ayrim fuqarolar hal qiluv qarori ustidan kassatsiya tartibida shikoyat bergen bo'lsalar, kassatsiya instansiyasi sudida ish ular bergen shikoyat asosida ko'rيلayotgan bo'lsa, sud majlisida birinchi bo'lib so'zga chiqadilar. Bulardan keyin da'vogar yoki uning vakili, javobgar yoki uning vakili, bulardan keyin prokuror hal qiluv qarori qay darajada qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligi to'g'risida o'zining fikrini bayon qiladi.

Ish kassatsiya instansiyasi sudida ko'rيلayotganda sud birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini kassatsiya shikoyati yoki protestining vajlari hamda ular yuzasidan bildirilgan e'tirozlar doirasida tekshiradi. U yangi dalillarni o'rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin.

5-§. Hal qiluv qarorini kassatsiya tartibida bekor qilish asoslari

Birinchi instansiya sndlari tomonidan mazmunan ko'rib hal qilingan fuqarolik ishlari yuzasidan chiqarilgan va qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorlari qonunda ko'rsatib qo'yilgan asoslar mavjud bo'lmasa, kassatsiya instansiya sndlari tomonidan bekor qilinmaydi. Shunday ekan, birinchi instansiya sndlari tomonidan ish yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorini kassatsiya instansiya sudi tomonidan bekor qilish uchun qonunda ko'rsatib qo'yilgan asoslar mavjud bo'lishi kerak¹. Hal qiluv qarorlarini bekor qilish asoslari va qonunda ko'rsatib qo'yilgan holatlar hisoblanadi. Bunday asoslar mavjud bo'lgan taqdirda kassatsiya instansiya sudi birinchi instansiya sudi tomonidan mazmunan ko'rib hal qilingan, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorini bekor qilishi kerak.

Hal qiluv qarorini kassatsiya tartibida bekor qilish yoki o'zgartirish uchun asoslar bo'lib, sndlар tomonidan o'zlarining protsessual faoliyatlariga doir qo'yilgan talablarga rioya qilmaganliklarini guvohlantiruvchi holatlar hisoblanadi. Hal qiluv qarorlarini kassatsiya tartibida bekor qilish yoki o'zgartirish uchun asoslar bo'lib ularning g'ayriqonuniyligi, asoslan-tirilmaganligi va adolatsizligi hisoblanadi.

FPKning 312-moddasida ko'rsatilishicha, hal qiluv qarorini kassatsiya tartibida bekor qilish uchun quyidagilar asos bo'lib xizmat qiladi:

- 1) ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'liq aniqlanmaganligi;
- 2) sud aniqlangan deb hisoblangan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning isbotlanmaganligi;
- 3) sudning hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariga muvofiq kelmasligi;
- 4) moddiy huquq normalari yoki protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanganligi.

Hal qiluv qarori g'ayriqonuiy hisoblanadi, qachonki birinchi instansiya sudi ish bo'yicha tatbiq etilishi kerak bo'lgan moddiy huquq (fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy va boshqalar) normasini yoki protsessual huquq normasini buzgan bo'lsa yoki noto'g'ri tatbiq etgan bo'lsa. Masalan, sud ishni to'g'ri hal qilish uchun tatbiq qilinishi lozim bo'lgan qonunni qo'l-lash o'rniga uni qo'llamagan bo'lsa yoki sud ish bo'yicha tatbiq qilinmas-

¹ Гражданский процесс: Учебник / Под ред. проф. В.В. Блажеев, проф. Е.Е.Уксусова. – М., 2015. – С.603-605.

ligi lozim bo‘lgan qonunni qo‘llagan bo‘lsa, yoinki sud qonunni noto‘g‘ri talqin qilgan bo‘lsa, bular moddiy huquq normasini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llanilganligini isbotlab beruvchi holatlar bo‘lib, o‘z navbatida birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarorini cassatsiya tartibida bekor qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Sudning mazmunan to‘g‘ri bo‘lgan hal qiluv qarori, ajrimi faqat rasmiy asoslarga ko‘ra bekor qilinishi mumkin emas.

Hal qiluv qarorini cassatsiya tartibida bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan holatlarni umumlashtirgan holda qaraydigan bo‘lsak, bu asoslarning barchasi, ish yuzasidan qabul qilingan hal qiluv qarorining g‘ayriqonuniyligi, asoslantirilmaganligi va adolatsizligidan dalolat beradi. Sud hal qiluv qarorining g‘ayriqonuniyligi tushunchasi bilan asoslantirilmaganligi va adolatsizligi tushunchalar o‘rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Yuridik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, hal qiluv qarorini asoslantirilgan bo‘lishiga qo‘yilgan talab protsessual huquq normalarida ko‘rsatilgan, shuning uchun ushbu talabga rioya qilmaslik, ayni vaqtida qonunni buzganlikdan dalolat beradi. Agarda sudning hal qiluv qarorining g‘ayriqonuniyligini keng ma’noda tushunadigan bo‘lsak, har qanday asoslantirilmagan hal qiluv qarori bir vaqtning o‘zida g‘ayriqonuniy bo‘ladi. Agarda sud hal qiluv qarorining asoslantirilmaganligini keng ma’noda tushunadigan bo‘lsak, sudning asoslantirilmagan har qanday hal qiluv qarori ayni bir vaqtning o‘zida g‘ayriqonuniy bo‘ladi. Hal qiluv qarorlarining bekor qilish asoslarini turlarga bo‘lish ma’lum ma’noda shartli xarakterga ega. Bir tomondan, ishning faktik tomonlarini o‘rnatish bo‘yicha sud tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar umumiyligini qoidaga ko‘ra, sud tomonidan sud ishlarini yuritish qoidalari buzishlik bo‘lsa, boshqa tomonidan, ishning faktik holatlarini noto‘g‘ri o‘rnatish moddiy huquq normasini noto‘g‘ri tatbiq etishga olib kelishi mumkin¹. Bu fikrga qo‘silsa bo‘ladi. Chunki, hal qiluv qaroriga asosan ikkita talab qo‘yiladi: 1) Hal qiluv qarorining qonuniy bo‘lishi; 2) hal qiluv qarorining asoslantirilgan bo‘lishligi. Bizda FPKning 311-moddasida uchinchi talab ham qo‘yilgan. U ham bo‘lsa hal qiluv qarorining adolatli bo‘lishligi. Lekin sudning hal qiluv qarori qachon asosli bo‘lishligi to‘g‘risida tushuncha yo‘q. Fikrimcha, ish yuzasidan chiqarilgan sudning hal qiluv qarori qonuniy hamda asoslantirilgan bo‘lsa, u o‘z navbatida adolatli bo‘ladi. Shuning uchun sudning ish

¹ Шерстюк В.М. Обжалование и проверка судебных решений и определений не вступивших в законную силу, в кассационном порядке: Учебник. Гражданский процесс / Под ред. М.К.Треушникова. – М., 2008. – С.541-542.

yuzasidan chiqargan hal qiluv qarori odil sudlov hujjati sifatida bir vaqtning o‘zida qonuniy va asoslantirilgan bo‘lishi kerak. Shundagina u adolatli bo‘ladi.

Hal qiluv qarori asoslantirilmagan bo‘ladi, qachonki, sud ishni to‘g‘ri hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan faktik holatlarni noto‘g‘ri aniqlagan bo‘lsa. Agar ish holatlarini sud to‘g‘ri aniqlangan dalillarga asoslanib o‘zining qarorini chiqargan bo‘lsa, sudning hal qiluv qarori asoslantirilgan bo‘ladi. Hal qiluv qarori asoslantirilmaganligining sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, ish bo‘yicha tatbiq etilishi lozim bo‘lgan moddiy huquq normasida ko‘rsatilgan, ishning taqdirini hal qiladigan barcha yuridik faktlarning sud tomonidan o‘rganilmaganligi, tekshirilmaganligi yoki bunday normada ko‘rsatilmagan yuridik faktlarni tekshirganligi, hal qiluv qarorini asoslantirilmaganligidan dalolat beradi. Sud hal qiluv qarorining asoslantirilmagan bo‘lishi ko‘pchilik hollarda isbotlash predmetining noto‘g‘ri aniqlanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Sud aniqlangan deb hisoblangan, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning isbotlanmaganligi ham hal qiluv qarorining asoslantirilmaganligidan dalolat beradi. Agarda sud hal qiluv qarorida aniqlanishi kerak bo‘lgan faktlarni qonunda ko‘rsatib qo‘yilgan dalillarga asoslanib, isbotlab, tasdiqlab bermagan bo‘lsa yoki aniq bo‘lmagan, qarama-qarshi bo‘lgan dalillarga asoslanib faktlarni o‘rnatgan bo‘lsa, cudning hal qiluv qarori asoslantirilmagan bo‘ladi.

Sudning hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalar ish holatlariga muvofiq kelmay qolishi mumkin.(masalan, sud ish yuzasidan o‘rnatilgan faktlar bo‘yicha ishtirok etuvchi taraflar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar borasida noto‘g‘ri fikrga kelgan bo‘lsa). Buning oqibatida sud ish yuzasidan qabul qilingan hal qiluv qarorini obyektiv jihatdan to‘g‘ri deb bo‘lmaydi.

Hal qiluv qarorlarining asoslantirilmaganligi bo‘yicha xulosa qilib aytish mumkinki, fuqarolik ishini to‘g‘ri ko‘rib hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning to‘liq aniqlanmaganligi, sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning isbotlanmaganligi, sud hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariga muvofiq kelmasligi va moddiy huquq normalari yoki protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilganligi natijasida chiqarilgan hal qiluv qarorlari asoslantirilmagan hisoblanadi va ayni paytda kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan kassatsiya tartibida ketirilgan shikoyat yoki protest bo‘yicha ularni bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Birinchi instansiya sudi tomonidan ishni ko'rib hal qilish jarayonida sud tomonidan protsessual huquq normalarini buzish va noto'g'ri qo'llash ham ma'lum huquqiy oqibatlarga olib keladi. Bularni huquqiy oqibatlarga olib kelish asoslariga qarab ikki turga bo'lish mumkin: 1) muhim asoslar; 2) muhim bo'limgan asoslar. Agar protsessual normalarni buzishlik yoki noto'g'ri qo'llashlik, sudning ish yuzasidan chiqargan va qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorini bekor qilishlik uchun asos bo'lib xizmat qilsa, u muhim hisoblanadi. Hal qiluv qarorini bekor qilish uchun xizmat qilmaydigan darajada protsessual normalarni buzish yoki noto'g'ri qo'llash muhim bo'limgan asoslar hisoblanadi.

Agar sud hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos bo'ladigan darajada protsessual-huquqiy normalarni buzgan yoki noto'g'ri qo'llagan bo'lsa, protsessual norma qo'pol ravishda buzilgan hisoblanadi va bu, o'z navbatida, albatta hal qiluv qarorini bekor qilishga olib keladi. Unchalik muhim ahamiyatga ega bo'limgan protsessual normalarni buzish yoki noto'g'ri qo'llash sud hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos bo'lmaydi. Masalan, sud majlisining muzokara qismida so'zga chiqish tartibini buzganlik, ishni sudda ko'rish uchun tayyorlash muddatini buzish, da'veni ta'minlash tartibiga rioya qilmaganlik kabi holatlar taraflarning huquq va burchlari bo'yicha sudyaning yakuniy xulosalariga ta'sir qilmasa, bular unchalik muhim protsessual normalarni buzishlik hisoblanmaydi va o'z navbatida sud hal qiluv qarorni bekor qilish uchun asos bo'lmaydi.

Bunday xatoliklarga yo'l qo'ygan sudyalarga nisbatan kassatsiya instansiyasi sudi xususiy ajrim chiqarib, kelgusida bunday xatoga yo'l qo'ygan sudyaga nisbatan intizomiy jazo qo'llashi ham mumkin.

Hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asoslar bor yoki yo'qligini kassatsiya instansiyasi sudi kassatsiya tartibida keltirilgan shikoyatni yoki protestni ko'rib hal qilish jarayonida aniqlaydi. Sud hal qiluv qarorining qonuniy, asoslantirilgan va adolatliligi to'g'risidagi sudning xulosasi to'g'ri bo'lishi kerak. Buning uchun kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining ish yuzasidan moddiy hamda protsessual normalarni to'g'ri tatbiq etganmi, ishda bor bo'lgan va ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan qo'shimcha ravishda taqdim etilgan dalillarga baho bergenmi yoki yo'qligini aniqlash kerak. Chunki kassatsiya instansiyasi sudining asosiy maqsadi ishni to'g'ri hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'l-gan holatlarni o'rnatish emas, balki birinchi instansiya sudi tomonidan mazmunan ko'rib hal qilingan, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorining qonuniyligi, aoslantirilganligi hamda adolatliligini tekshirish va shu yo'l bilan fuqarolik sud ishlarini yuritish-

ning oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish, qonunchilikni mustahkamlash, huquqni buzilish hollarining oldini olish uchun xizmat qiladi.

Sud hal qiluv qarorlarini kassatsiya tartibida bekor qilish uchun asos bo‘ladigan protsessual huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash FPK 314-moddasida ko‘rsatilgan. Ushbu normaning mazmuniga ko‘ra, protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanganligi ishning noto‘g‘ri hal etilishiga sabab bo‘lgan yoki sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarorning bekor qilinishiga asos bo‘ladi. Bular quyidagilardan iborat:

1) ish sud tomonidan g‘ayriqonuniy tartibda ko‘rilgan bo‘lsa;

2) ish sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, ammo sud majlisining vaqtini va joyini to‘g‘risida xabar berilmagan shaxslardan birortasining yo‘qligida ko‘rilgan bo‘lsa;

3) ish ko‘rيلayotganida ish yuritiladigan tilga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;

4) sud ishda qatnashishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlariga doir masalani hal qilgan bo‘lsa;

5) hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;

6) hal qiluv qarori, ajrim, qaror sudyalardan birortasi (sudya) tomonidan imzolanmagan yoki hal qiluv qarori, ajrim, qaror ularda ko‘rsatilmagan sudyalar (sudya) tomonidan imzolangan bo‘lsa;

7) hal qiluv qarori, ajrim, qaror ishni ko‘rmagan sudyalar tomonidan chiqarilgan bo‘lsa;

8) ishda sud majlisi bayonnomasi mavjud bo‘lmasa yoki u imzolanmagan bo‘lsa, hal qiluv qarori, ajrim, qaror majburiy tartibda bekor qilinishi shart¹.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan asoslar, protsessual huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llanganligini muhim shartlari hisoblanadi. Boshqa holatlар hal qiluv qarori, ajrim va qarorni kassatsiya tartibida bekor qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilmaydi.

6-§. Ish bo‘yicha ajrim chiqarish va uni o‘qib eshittirish

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan mazmunan ko‘rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilingan va qonuniy kuchga kirgan appellatsiya tartibida ko‘rilmagan birinchi instansiya sudining hal qiluv

¹ Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал кодекси (2015 йил 1 ноябргача ўзгартиш ва қўшимчалар билан). – Т., 2015. – Б.147-148.

qarori ustidan cassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki prokuror tomonidan keltirilgan protest bo'yicha cassatsiya instansiya sudining ishni yakuni bo'yicha ajrim chiqarib uni e'lon qilish cassatsiya instansiyasi sudi majlisining uchinchi qismini tashkil qiladi. Sud a'zolari cassatsiya instansiyasi sudining majlisida ko'rilgan ishni maslahatxonada muhokama qilib, hal qiluv qarorining qonuniy, asoslantirilgan va adolatli ekanligini ovoz berish yo'li bilan hal qiladilar. Cassatsiya instansiyasi sudi tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan berilgan shikoyat yoki prokuror tomonidan keltirilgan protest bo'yicha ko'rib hal qilingan ish yuzasidan ajrim chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha masalalar maslahatxonada sudyalarning ko'pchilik ovozi bilan hal etiladi. Ajrim shu majlisining o'zidayoq e'lon qilinishi kerak.

Kassatsiya instansiyasi sudining ish yuzasidan chiqargan ajrimi maslahatxonada chiqariladi va u yozma ravishda tuziladi. Ajrim chiqarish vaqtida boshqa shaxslarning hozir bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Har bir masala hay'at tomonidan hal etilayotganida sudyalarning birortasi ham ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Raislik qiluvchi hammadan keyin ovoz beradi. Ozchilik tomonidan qolgan sudya o'zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqli, uning bu fikri ishga qo'shib qo'yildi, biroq e'lon qilinmaydi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmaydi.

Agar alohida fikr bayon qilingan sud qarori yuqori instansiya sudida ko'rilgan bo'lsa, u qonuniy kuchga kirgandan keyin ish bilan birga qo'shib ajrimga nisbatan protest keltirish masalasini hal qilish uchun tegishli sud raisiga yuborilishi kerak (FPKning 14-moddasi).

Hal qiluv qarori ustidan cassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki keltirilgan protest bo'yicha ishni ko'rib hal qilgan sudyalar maslahatxona-da quyidagi masalalarni hal qilishlari shart:

- 1) ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlar birinchi instansiya sudi tomonidan tekshirilganligini;
- 2) hal qiluv qarorida bayon etilgan sud xulosalarining ish holatlariga muvofiqligini;
- 3) sud aniqlangan deb hisoblangan ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar isbotlanganligini;
- 4) moddiy hamda protsessual huquq normalari buzilganligi yoki buzilmaganligini;
- 5) moddiy hamda protsessual huquq normalari to'g'ri qo'llanilganligini;
- 6) cassatsiya tartibida keltirilgan shikoyat yoki protestda keltirilgan vajlarning asoslantirilganligini.

Ushbu masalalarni hal qilmasdan turib cassatsiya instansiyasi sudi ish bo'yicha o'zining ajrimini chiqara olmaydi. Cassatsiya instansiya sudining ajrimini yozma ravishda bayon qilishga kirishish uchun sudyalar yuqoridagi masalalarni maslahatxonada kollegiallik prinsipiga asosan ovoz berish yo'li bilan hal qilgan bo'lishlari kerak.

Ish bo'yicha cassatsiya instansiyasi sudining ajrimi sud majlisida raislik qiluvchi yoki sud a'zolaridan biri tomonidan yozma shaklda bayon etildi va shikoyat yoki protest bo'yicha ishni ko'rib hal qilishda qatnashgan barcha sudyalar tomonidan imzolanadi. Ajrimni qabul qilishda ko'pchilik sudyalarning fikriga qo'shilmagan, ozchilik tomonda qolgan sudya o'zining alohida fikrini yozib ishga ilova qilib qo'yishi mumkin. Alohida fikrda qolgan sudya, ajrim bo'yicha alohida fikrda qolgan bo'lsa ham, u ajrimni imzolashga majbur. Chunki protsessual qonunchiligidida har bir masala hay'at tomonidan hal qilinayotganida sudyalarning birortasi ham betaraf qolishga haqli emasligi, sud majlisida raislik qilgan sudya ishni ko'rib hal qilishda qatnashgan boshqa sudyalarga o'z ta'sirini o'tkazmasligi uchun hammadan keyin ovoz berishligi, ozchilik tomonida qolgan sudya o'zining alohida fikrini yozib ishga ilova qilishi mumkinligi qonuniy tarzda ko'rsatilgan.

Kassatsiya instansiyasi sudi shikoyat yoki protest bo'yicha ishni ko'rib hal qilib, ish yuzasidan kollegiallik prinsipiga asoslangan holda chiqqangan ajrimini barcha sudyalar imzolanganlaridan so'ng, barcha sudyalar sud majlisi zaliga qaytib kirib, ish bo'yicha chiqqangan sudning ajrimini raislik qiluvchi o'qib eshittiradi, norozi taraf nazorat tartibida protest keltirish vakolatiga ega bo'lган mansabdor shaxslarga murojaat qilish tartibini va muddatini tushuntiradi hamda ish yuzasidan o'tkazilgan sud majlisini yopiq deb e'lon qiladi. Shu bilan cassatsiya instansiyasi sudida ish yuritish o'z nihoyasiga yetadi (FPKning 202-moddasi).

Kassatsiya instansiyasi sudi cassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki keltirilgan protest asosida ko'rib hal qilingan ishni qayta ko'rib chiqish natijasi bo'yicha chiqqangan ajrimi bilan o'ziga berilgan vakolatlarni amalga oshiradi.

7-§. Kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari

Birinchi instansiya sudsidi tomonidan mazmunan ko'rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rib hal qilinmagan hal qiluv qarorini ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan cassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki prokuror

tomonidan keltirilgan protestlar bo'yicha ishni cassatsiya tartibida ko'rib hal qilish vakolatiga ega bo'lgan cassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari, fuqarolik protsessual qonunchiligi normalari asosida ularga berilgan protsessual huquqlarda o'z ifodasini topadi.

Kassatsiya instansiyasi sudlari, ishni cassatsiya tartibida ko'rib hal qilish bosqichida, keng huquqlar bilan ta'minlanganlar. Kassatsiya instansiyasi sudlariga qonuniy asosda berilgan huquqlar, ya'ni vakolatlar, protsessual qonunchiligidagi ko'rsatib qo'yilgan bo'lsa ham, ish yuzasidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori ustidan 348¹-moddasida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan berilgan shikoyat yoki protestni ko'rib hal qilish bilan bog'liq protsessual harakatlarni amalga oshirish natijasida, ish yuzasidan qabul qilingan cassatsiya instansiyasi sudining ajrimida o'z ifodasini topadi va amalga oshiriladi.

Kassatsiya instansiyasi sudining cassatsiya tartibida ish yuritish bosqichida protsessual harakatlarni bajarishga oid protsessual huquqlari, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorlari ustidan cassatsiya tartibida shikoyat berilganligi yoki protest keltirilganligi munosabati bilan ishni ko'radigan cassatsiya instansiyasi sudining vakolatlariga bag'ishlangan FPKning 348¹⁵-moddasida qonuniy tarzda ko'rsatilgan.

Ushbu moddada ko'rsatilishicha, sud ishni ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarori ustidan cassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki protest bo'yicha ko'rib chiqqanidan so'ng ish yuzasidan chiqargan o'zingajimi bilan o'ziga berilgan quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

1) hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirish, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslik;

2) hal qiluv qarorini o'zgartirish yoxud butunlay yoki qisman bekor qilish va yangi hal qiluv qarorini chiqarish;

3) ish sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, ammo sud majlisining vaqtiga joy to'g'risida xabar berilmagan shaxslardan birortasining yo'qligida ko'rilmagan bo'lsa, hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilish hamda ishni yangidan ko'rib chiqish uchun birinchi instansiya sudiga yuborish;

4) hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilish hamda ushbu Kodeksning 97 va 100-moddalarida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lsa, arizani ko'rmasdan qoldirish yoxud ish yuritishni tugatish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni amalga oshiradi.

Agar birinchi instansiya sudining ish yuzasidan chiqargan, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori qonuniy asoslantirilgan va adolatli, ekanligi to‘g‘risida cassatsiya tartibida berilgan shikoyatida keltirilgan holatlar hal qiluv qarorini o‘zgartirish yoki bekor qilish uchun unchalik ahamiyatga ega emas degan xulosaga kelsa, o‘zining ajrimi bilan hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirib, shikoyat yoki protestni qanoatlantirmaydi. Shunday bo‘lsa-da, sudlov hay’ati birinchi instansiya sudi tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni o‘zining ajrimida yoki maxsus chiqargan xususiy ajrimida ko‘rsatib o‘tishi kerak¹.

Kassatsiya instansiyasi sudi ishni qayta ko‘rish uchun birinchi instansiya sudiga yubormasdan hal qiluv qarorini o‘zgartirish yoxud butunlay yoki qisman bekor qilib ish yuzasidan yangi hal qiluv qarorini chiqarishi mumkin, agarda ish to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar birinchi instansiya sudi tomonidan to‘la va to‘g‘ri aniqlaganligi, dalillarni to‘plash yoki ularni qo‘sishimcha tekshirish talab qilinmasa, moddiy huquq normasini qo‘llashda xatolikka yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, cassatsiya instansiya sudi bu xatolarni tuzatish maqsadida yangi hal qiluv qarorini chiqarib, birinchi instansiya sudining chiqargan hal qiluv qarorini o‘zgartradi. Kassatsiya instansiyasi sudida ishini to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni isbot qilish uchun xizmat qiladigan dalillarni to‘plamaydi va qo‘sishimcha ravishda ularni tekshirmaydi. Chunki ish uchun ahamiyatli holatlar birinchi instansiya sudi tomonidan to‘liq va to‘g‘ri aniqlangan bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, ishni mazmunan ko‘rib hal qilgan birinchi instansiya sudining ish bo‘yicha moddiy huquq normasini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llaganligi, cassatsiya instansiyasi sudi tomonidan hal qiluv qarorini o‘zgartirish, butunlay yoki qisman bekor qilish va yangi hal qiluv qarorini chiqarish uchun asos bo‘ladi.

Hal qiluv qarorini o‘zgartirish deganda, nizo bo‘yicha birinchi instansiya sudi xulosalarni cassatsiya instansiya sudi tomonidan tuzatilganligini tushunish kerak. Masalan, da’vo predmetini o‘zgartirish (mulkni natura shaklida undirish imkoniyati bo‘lmasa, uning qiymatini undirish, undirilgan narsaning miqdorini kamaytirish yoki ko‘paytirish va boshqalar).

Kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan cassatsiya tartibida ko‘rilgan ish yuzasidan chiqargan ajrim o‘zining mazmuni bilan ham hal qiluv qarorlaridan farq qiladi. Ayrim hollarda birinchi instansiya sudining ish yuzasidan qabul qilgan hal qiluv qaroriga qarama-qarshi bo‘ladi. Masalan,

¹ Шорахметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал ҳукуки: Дарслик. – Т., 2001. – Б. 374-375 .

birinchi instansiya sudi tomonidan da'vogarning da'vo talabi qondirilgan bo'lsa, kassatsiya instansiyasi sudi uni rad etish to'g'risida ajrim yoki hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Agar birinchi instansiya sudining ish yuzasidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan kassatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilib ishni yangidan ko'rib chiqish uchun birinchi instansiya sudiga yuborsa, hal qiluv qarorida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ishni yangidan mazmunan ko'rib hal qilmashdan turib tuzatish mumkin bo'lmasa, bunday kamchiliklar hal qiluv qaroring g'ayriqonuniyligi, asoslantirilmaganligi vaadolatsizligidan dalolat beradi.

Agar sud ishni ko'rib hal qilishda hal qiluv qarorini albatta bekor qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan protsessual normalarni buzgan bo'lsa yoki birinchi instansiya sudining hal qiluv qaroridagi kamchiliklarni ishni kassatsiya tartibida ko'rib hal qilishda tuzatish mumkin bo'lmasa, kassatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilib, ishni birinchi bor ko'rgan sudning o'ziga yoki boshqa sudga yuborishi kerak. Masalan, birinchi instansiya sudi ishni ko'rib hal qilishda ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlarni aniqlamagan yoki hal qiluv qarorida ushbu holatlarni tasdiqlaydigan dalillarni ko'rsatmagan bo'lsa, kassatsiya instansiya sudi bunday hal qiluv qarorini albatta bekor qilishi kerak. FPKning 314-moddasida ko'rsatilgan protsessual huquq normalarini buzish yoki noto'g'ri qo'llab chiqarilgan birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ham albatta bekor qilinishi kerak.

Kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudiga ishni yangidan ko'rish uchun yuborganida kassatsiya instansiyasi sudi o'zining ajrimida ish bo'yicha yangi hal qiluv qarorini chiqarish imkoniyati yo'qligi to'g'risidagi vajlarni keltirib, ular bo'yicha o'zining hal qiluv qarorini chiqarish yoki birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorini o'zgartirish mumkin emasligini ko'rsatishi kerak.

Qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorining qonuniyligi, asoslantirilganligi va adolatligini, FPKning 348¹-moddasida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan kassatsiya tartibida keltirilgan shikoyat yoki protestlar bo'yicha ishni ko'rib hal qilish yo'li bilan tekshirishni, kassatsiya instansiyasi sudi protsessual qonunchiligi bo'yicha o'ziga berilgan vakolatlarini qonunga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiradi.

Kassatsiya instansiyasi sudining ishni ko'rish doirasiga bag'ishlangan FPKning 348¹³-moddasida ko'rsatilishicha, ishni kassatsiya tartibida

ko‘rayotganida sud qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilman-
gan hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini cassatsiya
shikoyati yoki protestining vajlari hamda ular yuzasidan bildirilgan
e’tirozlar doirasida tekshiradi. Shu bilan birga, yangi dalillarni o‘rganib
chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi ham mumkin.

Kassatsiya instansiyasi sudi qonuniylik nuqtai nazaridan, qonuniy
kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarorini to‘la
hajmda tekshirish huquqiga ega. Kassatsiya instansiyasi sudi hal qiluv
qarorini bekor qilib ishni yangidan ko‘rish uchun yuborayotganda ishni
mazmunan ko‘rib hal qilish uchun qaysi sudga yuborish masalasini ham
hal qilishi kerak.

Kassatsiya instansiyasi sudi sudning qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya
tartibida ko‘rsatilmagan hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman
bekor qilish mumkin, agarda ishni mazmunan ko‘rib hal qilgan birinchi
instansiya sudi FPKning 152-moddasida ko‘rsatilgan sudga da’vo taqdim
etish shartlarini buzgan bo‘lsa. Bundan tashqari ish, kassatsiya tartibida
ko‘rib hal qilish jarayonida da’vogar o‘z da’vosidan voz kechsa yoki taraf-
lar kelishuv bitimi tuzgan bo‘lsalar, shuningdek, FPKning 100-moddasida
ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda kassatsiya instansiyasi sudi
ajrim chiqarib ish yuritishni tugatadi.

Ish yuritishni tugatish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

1) ish sudga taalluqli bo‘lmasa;

2) ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni
bir asoslar bo‘yicha chiqqan nizo yuzasidan sudning qonuniy kuchga kir-
gan hal qiluv qarori yoki da’vogarning arz qilgan talabalaridan voz kechi-
shini qabul qilish to‘g‘risidagi yoxud taraflarning kelishuv bitimini tasdiq-
lash to‘g‘risidagi ajrim mavjud bo‘lsa;

3) da’vogar arz qilgan talabalaridan voz kechgan va sud bu voz
kechishni qabul qilgan bo‘lsa;

4) taraflar kelishuv bitimi tuzgan bo‘lsalar va u sud tomonidan
tasdiqlangan bo‘lsa;

5) ishni sudda ko‘rishga tayyorlash vaqtida javobgar da’vogarning
talabalarini tan olgan bo‘lsa va bu tan olish sudya tomonidan qabul qilin-
gan bo‘lsa; 6) taraflar o‘rtasida ushbu nizoni hal qilish uchun hakamlik
sudiga topshirish haqida hakamlik bitimi tuzilgan bo‘lsa. Ushbu asoslardan
biri mavjud bo‘lmasa, kassatsiya instansiyasi sudi ish yuritishni tugatish
to‘g‘risida ajrim chiqara olmaydi.

Agarda FPKning 97-moddasida ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lsa,
kassatsiya instansiyasi sudi ishni tugatmaydi, arizani ko‘rmasdan qoldira-

di. Masalan, ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa, manfaatdor shaxs nomidan arizani ish yuritishga vakolati bo'lman shaxs bergen bo'lsa, sud ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan ish yuritayotgan bo'lsa, ishni o'zlarining ishtirokisiz ko'rishni iltimos qilmagan taraflar ikkinchi chaqiruv bo'yicha ham uzrli sabablersiz sudga kelmasalar, sud esa ishga oid mavjud materiallar asosida ishni hal qilish mumkin emas deb hisoblasa, shuningdek ishni o'zining ishtirokisiz ko'rishni iltimos qilmagan da'vogar ikkinchi chaqiruv bo'yicha ham sudga kelmasa, javobgar esa, ishni mazmunan ko'rib hal qilishni talab qilmassa, ish ko'rmasdan qoldiradi. Bu asoslardan biri mavjud bo'lmasa, kassatsiya instansiyasi sudi arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risida ajrim chiqara olmaydi.

8-§. Kassatsiya instansiyasi sudining ajrimi va uning ahamiyati

Kassatsiya instansiyasi sudining ajrimi o'zining mazmun-mohiyati bilan birinchi instansiya sudi, appellatsiya instansiyasi sudi hamda nazorat instansiyasi sudi tomonidan fuqarolik ishi yuzasidan chiqarilgan ajrimdan farq qiladi. Kassatsiya instansiyasi sudining ajrimida, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarorining qonuniyligi, asoslantirilganligi va adolatli ekanligini FPKning 348¹-moddasida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan kassatsiya tartibida berilgan shikoyat yoki protest bo'yicha ishni qayta ko'rish yo'li bilan tekshirish bo'yicha kassatsiya instansiyasi sudining faoliyati o'z ifodasini topadi.

Kassatsiya instansiyasi sudining ajrimi ham birinchi instansiya sudining mazmunan ko'rib hal qilingan fuqarolik ishi yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qaroridek to'rt qismdan iborat:

- 1) kirish;
- 2) bayonot;
- 3) asoslantirish;
- 4) xulosa.

Ajrimning har bir qismida uning mazmunini tashkil qiluvchi masalalar o'z ifodasini topishi kerak. Ajrimning kirish qismida quyidagilar ko'rsatilishi kerak: ajrimni chiqargan vaqt va joy, ajrimni chiqargan sudning nomi, sudyalarning familiyalari, sud tarkibi, ish bo'yicha sudyalarning qaysi biri ma'ruza qilgan bo'lsa o'sha sudya, uning familiyasi, kassatsiya instansiyasi sudida ishni ko'rib hal qilishda ishtirok etgan boshqa shaxslar. Hal qiluv qarori ustidan kassatsiya shikoyati yoki protesti kim tomonidan keltirilganligi ko'rsatiladi.

Kassatsiya ajrimining bayonot qismida hal qiluv qarorining mazmuni qisqacha tarzda bayon etiladi. Shundan so‘ng kassatsiya tartibida shikoyat yoki protest keltirgan shaxsning talabi kassatsiya instansiyasi sudiga taqdim etilgan qo‘sishimcha materiallar, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning bayonotlari hamda prokurorning fikrining mazmuni qisqacha tarzda bayon etilishi kerak.

Kassatsiya ajrimining asoslantirish qismida ishni faktik holatlarni o‘rnatish, dalillarga to‘g‘ri baho berilganligi, huquq normasini qo‘llash, shuningdek kassatsiya shikoyati yoki protestida keltirilgan vajlar va ular yuzasidan bildirilgan e’tirozlarni tekshirish bo‘yicha birinchi instansiya sudining faoliyatini bo‘yicha natijalar o‘z ifodasini topadi (ya’ni, birinchi instansiya sudi faoliyatini yuqoridaagi masalalar bo‘yicha analizi).

Kassatsiya ajrimining asoslantirish qismida ish bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan xatoliklar yuzasidan ularni tuzatish birinchi instansiya sudi uchun ko‘rsatmalar beriladi. Kassatsiya instansiyasi sudining bergan ko‘rsatmalar ajrimning qonuniy kuchiga asoslanadi. Kassatsiya instansiyasi sudi quyidagi holda o‘zining ajrimi bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. Kassatsiya instansiyasi sudi ishni ko‘rib hal qilish jarayonida aniqlangan, birinchi instansiya sudi tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘zi bartaraf qila olmasa, bu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun ko‘rsatmalar beradi. Masalan, faqat birinchi instansiya sudi tomonidan tuzatishi mumkin bo‘lgan nizoning haqiqiy holatlarini aniqlash huquq normalarining buzilganligini kassatsiya instansiyasi sudi aniqlasa, bu xatoliklarni tuzatish bo‘yicha o‘zining ajrimida birinchi instansiya sudiga ko‘rsatmalar beradi va ularni qanday qilib tuzatish tartibini ko‘rsatishi kerak¹.

Bu borada shuni alohida ta’kidlash joizki, kassatsiya instansiyasi sudi ishni ko‘rib hal qilishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish bo‘yicha bergan ko‘rsatmalar, sudyalarining mustaqilligi va ularni faqat qonunga bo‘ysunish prinsipini buzmasligi va oldindan ishni qanday qilib hal qilish to‘g‘-risida yakuniy xulosa berishi mumkin emas. Chunki har bir sud bo‘g‘ini ishni ko‘rib hal qilishda mustaqil bo‘lib, faqat qonunga bo‘ysungan holda o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Ishni kassatsiya tartibida ko‘rayotgan sud birinchi instansiya sudi tomonidan ishni mazmunan ko‘rib hal qilish jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va ularni qanday tartibda tugatish mumkinligi to‘g‘risida ko‘rsatmalar bersa ham, hal qiluv qarorlarini tan olinmagan yoki ularda inkor etilgan holatlarni isbotlangan deb hisoblash, u yoki bu dalilni haqiqiy

¹ Гражданское процессуальное право / Под ред. С.Ф.Афанасьева, А.И.Зайцева. – М., 2013. – С.552.

yoki haqiqiy emasligi, bir dalilni boshqa dalilga nisbatan ustun mavqega ega ekanligi, ish bo'yicha moddiy huquqning qaysi normasini qo'llash kerakligi, ishni yangidan ko'rishda ish bo'yicha qanday hal qiluv qarorini chiqarish bo'yicha ko'rsatmalar bera olmaydi.

Kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudlariga quyidagi ko'rsatmalarni berish huquqiga ega:

a) aniq fuqarolik ishi yuzasidan ish holatlari bo'yicha obyektiv haqiqatni qonuniy ravishda qanday vositalar bilan o'rnatish. Masalan, qanday dalillar yordamida ishga oid qaysi holatlarni aniqlash, dalillarni qayerdan talab qilib olish mumkinligi to'g'risida;

b) ishni yangidan ko'rishda birinchi instansiya sudi amal qilishi kerak bo'lган protsessual normalar bo'yicha;

v) zarur protsessual tadbirlar to'g'risida. Masalan, bir necha talablarni bir ishga birlashtirish yoki birlashtirilgan talablarni alohida ko'rib hal qilish uchun ajratish, ish bo'yicha prokurorni jalb qilish, davlat boshqaruvi organlarining vakillarini jalb qilish;

g) ishni ko'rib hal qilish jarayonida moddiy huquq normalariga sharh berish. Masalan, ish yuzasida tatbiq qilingan normani noto'g'rilib tushuntirish va uni to'g'ri tatbiq etish shartlarini ko'rsatish;

d) ish yuzasidan ayrim masalalarni muhokama qilish. Masalan, mulkni bo'lish to'g'risidagi ishni ko'rib hal qilishda ma'lum mulkni da'vogarga olib berish va boshqalar.

Kassatsiya instansiya sudi o'ziga berilgan huquqlar doirasida birinchi instansiya sudlariga o'zining ajrimi bilan tegishli ko'rsatmalar berish vakovlatiga ega bo'lsa ham, ish yangidan ko'rish uchun yuborilgan taqdirda, mazmunan ko'rib hal qilinishi lozim bo'lган fuqarolik ishini to'g'ri hal qilish uchun tatbiq etishi lozim bo'lган moddiy huquq normasini ko'rsatishi mumkin emas. Bu sudyalarning mustaqilligi va ularni qonunga bo'ysunishi prinsipiga zid hisoblanadi.

Kassatsiya instansiyasi sudining ishning ma'lum faktik holatlari hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ma'lum o'zaro munosabatlari bo'yicha bergen ko'rsatmalari birinchi instansiya sululari uchun majburiy hisoblanadi. Ish holatlari o'zgarganda kassatsiya instansiyasi sudining ish yuzasidan bergen ko'rsatmalari o'z mohiyatini yo'qotadi. Masalan, kassatsiya instansiyasi sudining ajrimidan keyin ish bo'yicha da'vogar yoki javobgar tarafning vafot etishi, nizoli mulkning yo'q bo'lib ketganligi, taraflar tomonidan nizoni sudsiz tugatish to'g'risida kelishuv bitimining tuzilganligi, da'vogarning da'vo talabidan voz kechishi yoki javobgar tomonidan o'z majburiyatlarini bajarishligi kassatsiya instansiyasi sudining ajrimida ko'rsatib o'tilgan ko'rsatmalarni bajarilmaydigan qilib qo'yadi.

Kassatsiya instansiyasi sudi ajrimining rezalyutiv qaror (xulosa) qismida ish yuzasidan kassatsiya tartibida shikoyat berilgan yoki protest keltirilgan hal qiluv qarori bo'yicha kassatsiya instansiya sudining vakolatlari bayon qilib beriladi.

Kassatsiya instansiyasi sudi ish yuzasidan yangi hal qiluv qarori chiqarganda birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini bekor qilinganligini ko'rsatish bilan birgalikda ishni qanday hal qilinganligini o'zining ajrimida ko'rsatishi kerak. Kassatsiya instansiyasi sudi ishni ko'rib hal qilish jarayonida ayrim masalalarni hal qilish yuzasidan xususiy ajrim chiqarishi mumkin. Masalan, shikoyat berilgan shaxs kassatsiya shikoyatidan voz kechsa yoki kassatsiya protesti qaytarib olingan va uni sud tasdiqlaganligi to'g'risida sud tegishli yakuniy ajrim chiqarib o'zining ushbu ajrimi bilan kassatsiya tartibida ish yuritishni tugatadi.

Kassatsiya instansiyasi sudi ish yuzasidan birinchi instansiya sudi tomonidan chiqargan hal qiluv qarorini o'zgartirib yoki yangisini chiqarib kassatsiya ajrimi bilan hal qiluv qarorining yozuvidagi xatolar va ochiq ko'rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatishi mumkin (FPKning 213-moddasi).

Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish huquqi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga berilgan Konstitutsiyamizning o'ninchi bobiga tegishli bo'lган 43-46-moddalari bilan kafoflatlangan huquqlardan biridir. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ana shu huquqdan foydalanib birinchi instansiya sudining appellatsiya tartibida ko'rilmagan ajrimlari ustidan sudning hal qiluv qaroridan alohida holda kassatsiya instansiyasi sudiga sud ajrimi chiqarilgan kundan e'tiboran bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan shikoyat berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin. Berilgan huquqiy shikoyatlar va xususiy protestlar kassatsiya instansiya sudida ko'rib chiqiladi. Kassatsiya instansiyasi sudi xususiy shikoyat yoki xususiy protestni ko'rib, o'ziga berilgan vakolatlar doirasida ajrimni o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka, ajrimni bekor qilishga va ishni mohiyatan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga, ajrimni butunlay yoki qisman o'zgartirishga yoxud bekor qilishga hamda masalani mohiyatan hal qilishga haqli. Bular o'z navbatida kassatsiya instansiyasi sudlarining vakolatlarini tashkil qiladi.

Kassatsiya instansiyasi sudining qarorlari ichida xususiy ajrim muhim ahamiyatga ega. Birinchi instansiya sndlari tomonidan xususiy ajrim chiqarish uchun asoslar mavjud bo'lган taqdirda kassatsiya tartibida ish ko'radigan sndlар ham xususiy ajrim chiqarishga haqli. Bundan tashqari, kassatsiya instansiyasi sudi quyi sndlarga nisbatan hal qiluv qarorini o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'lmaydigan darajada huquqiy nor-

malarni buzganliklarini aniqlasa, o‘z ishiga sovuqqonlik bilan qaraganligi uchun quyi sudlarga nisbatan xususiy ajrim chiqarishi ham mumkin. Ish yuzasidan chiqarilgan xususiy ajrimlar quyi sudlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘z vaqtida bartaraf qilishda o‘ta muhim ahamiyatga ega.

9-§. Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish va protest keltirish

Birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirish mumkin. FPKning birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish va protest keltirish huquqiga bag‘ishlangan 348¹⁶-moddasining mazmunida ko‘rsatilishicha, birinchi instansiya sudining, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan ajrimlari ustidan sudning hal qiluv qaroridan alohida holda kassatsiya instansiyasi sudiga sud ajimi chiqarilgan kundan e’tiboran bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan shikoyat berilishi hamda prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

Xususiy shikoyatlar berish va xususiy protestlar keltirish FPKning 28-bobida belgilab qo‘yilgan tartibda amalga oshiriladi va ko‘rib chiqiladi¹. Ushbu bobda ko‘rsatilishicha, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan xususiy shikoyat berish yoki protest keltirish va ko‘rib hal qilish ham birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish yoki protest keltirish va ularni ko‘rib hal qilish uchun o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Xususiy shikoyat berish va protest keltirishning obyekti bo‘lib birinchi instansiya sudining ish yuzasidan chiqarilgan, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan ajrimlari hisoblanadi. Shunday ajimlar borki, ular hal qiluv qarori ustidan berilgan shikoyat va protestlarga bog‘-liq bo‘lmagan holda, mustaqil tarzda ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan xususiy shikoyat berish yoki xususiy protest keltirishning obyekti hisoblanadi. Masalan, birinchi instansiya sudi tomonidan fuqarolik ishini mazmunan ko‘rib hal qilish jarayonida qabul qilgan ajrimlari.

Birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan xususiy shikoyat berish yoki protest keltirish borasida shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, ishda ishtirok etuvchi shaxslar hamda prokuror sud tomonidan ishni mazmunan ko‘rib hal qilish jarayonida qabul qilgan ajrimlar ustidan xususiy shikoyat

¹ Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал кодекси. – Т., 2015. – Б.160.

berishlari yoki protest keltirilishi mumkin (masalan, birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan xususiy shikoyat berish yoki protest keltirish, protsessual qonunchiligidagi ko'rsatilgan bo'lsa yoki ishni mazmunan ko'rib hal qilish borasida sud jarayonini borishiga to'sqinlik qiladigan holatlar bo'yicha chiqarilgan bo'lsa). Boshqa ajrimlar bo'yicha, xususiy shikoyat yoki xususiy protest berilmaydi.

Fuqarolik ishini mazmunan ko'rib hal qilishga to'sqinlik qiladigan ajrimlarga misol qilib, FPKning 92-moddasidagi sud ishlarini yuritishni to'xtatish, 97-moddasi bo'yicha arizani ko'rmasdan qoldirish va 100-moddasi bo'yicha ish yuritish tugatish to'g'risidagi ajrimlarni ko'rsatishimiz mumkin. Bulardan tashqari, FPKning 64, 121, 125, 130, 156-moddalarida ko'rsatib o'tilgan holatlar bo'yicha birinchi instansiya sudining chiqargan ajrimlari ham xususiy shikoyat berish yoki protest keltirishning obyekti hisoblanadi. Bu ajrimlar ustidan ham ishda ishtirok etuvchi shaxslar cassatsiya tartibida ko'rib hal qilish uchun xususiy shikoyat berishlari, prokuror esa xususiy protest keltirishi mumkin. FPKning 42, 43, 84, 140, 153, 154, 161, 176 va 180-moddalarida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha chiqarilgan ajrimlar, jumladan, ishga daxldor bo'limgan tarafni almashtirish, protsessual huquqiy vorislik, ekspertiza tayinlash, javobgarni qidirish, ish qo'zg'atish, arizani qabul qilib olishni rad etish, arizani harakatsiz qoldirish, ishni sudda ko'rishga tayinlash, guvoh, ekspert, mutaxassisning sud majlisiga kelmaganligi, da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi ustidan xususiy shikoyat berilmaydi yoki protest keltirilmaydi. Chunki bu ajrimlar o'z mohiyati bo'yicha ishni sud tomonidan mazmunan ko'rib hal qilinishiga to'sqinlik qilmaydi.

Xususiy tartibda shikoyat qilinishi mumkin bo'limgan ajrimlarga nisbatan e'tirozlar bo'lsa, ishda ishtirok etuvchi shaxslar o'zlarining e'tirozlarini hal qiluv qarori ustidan cassatsiya tartibida bergan shikoyatlariga, prokuror esa cassatsiya tartibida keltirgan protestiga kiritishi mumkin. Birinchi instansiya sudining ajrimlarining qonuniyligi, asoslantirilganligi va adolatlilagini tekshirish masalasini cassatsiya instansiysi sudi bir vaqtning o'zida hal qiluv qarori to'g'riligini tekshirish vaqtida ko'rib hal qiladi.

Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan xususiy shikoyat berish yoki prokuror tomonidan xususiy protest keltirish bilan bog'liq protsessual harakatlar protsessual qonunchiligidagi ko'rsatib o'tilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak. Xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin bo'lgan birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudning ish yuzasidan chiqargan hal qiluv qaroridan alohida tarzda

kassatsiya instansiyasi sudiga sud ajrimi chiqarilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xususiy shikoyat berishlari, prokuror xususiy protest keltirishi mumkin. Bu muddatni uzrsiz sabablarga ko'ra o'tkazib yuborish ishda ishtirok etuvchi shaxslarni hamda prokuorni ajrim ustidan xususiy shikoyat berish yoki xususiy protest keltirish huquqidан mahrum qilmaydi. O'tkazib yuborilgan muddatni tiklab berish to'g'risida FPKning 130-moddasiga asoslanib sudga ariza bilan murojaat qilish mumkin. Bunday holda ushbu masalani sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda sud majlisida ko'rib chiqadi. Bu shaxslarning sud majlisiga kelmasligi masalining hal qilinishiga to'sqinlik qilmaydi. Sud o'tkazib yuborilgan muddatni sabablarini uzrli deb topsa uni tiklab beradi, uzrsiz deb topsa rad etadi.

Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan o'z vaqtida berilgan xususiy shikoyat va protestdan davlat boji undirilmaydi.

Kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilganligi (protest keltirilganligi) munosabati bilan uning qonuniylici, asoslantirilganligi va adolatli ekanligini tekshirib, o'ziga berilgan vakolatlar doirasida ta'kidlab o'tilganidek, quyidagilarni amalga oshiradi:

- 1) birinchi instansiya sudining ish yuzasidan qabul qilgan ajrimini o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni qanoatlantirmaslikka;
- 2) ajrimni bekor qilishga, ishni mohiyatan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga;
- 3) ajrimni butunlay yoki qisman o'zgartirishga yoxud uni bekor qilishga hamda masalani mohiyatan hal qilishga haqli (FPKning 348¹⁷-moddasi).

Kassatsiya instansiyasi sudining birinchi instansiya sudi tomonidan chiqarilgan ajrimlarining qonuniylici, asoslantirilganligi va adolatliligini tekshirish yuzasidan chiqargan ajrimi darhol qonuniy kuchga kiradi.

Kassatsiya instansiyasi sudining ish bo'yicha chiqarilgan ajrimidan norozi bo'lган taraf ajrim chiqarilgan kundan boshlab uch yil ichida, FPKning 350-moddasiga asosan, tegishli sudning raisiga, nazorat tartibida protest keltirish vakolatiga ega bo'lган prokurorga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Arizaga sud chiqargan hal qiluv qarorining nusxasi, kassatsiya instansiyasi sudi ajrimining nusxasi ilova qilinishi kerak. Uch yil o'tgandan keyin berilgan arizalar ko'rilmaydi. Ariza bo'yicha tegishli sudning raisi yoki nazorat tartibida protest keltirish vakolatiga ega bo'lган prokuror nazorat tartibida protest keltirilgan bo'lsa, ushbu protest bo'yicha nazorat instansiyasi sudi ko'rib hal qilingan ish yuzasidan kassatsiya instansiyasi sudining ajrimi qonuniylici, asoslantirilganligi va adolatli ekanligini tekshirish yo'li bilan ariza bergen shaxsning buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

ADABIYOTLAR

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2015.

Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодекси (2015 йил 1 ноябргача ўзгартиш ва қўшимчалар билан). – Т., 2015.

Ўзбекистон Республикасининг Хўжалик процессуал кодекси (2015 йил 1 ноябргача ўзгартиш ва қўшимчалар билан). – Т., 2015.

Президентимиз Ислом Каримовнинг 2013 йил 28 июндаги “Юридик кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1990-сонли қарори.

2014 йил 22 апрелдаги ЎРҚ 368-сонли Ўзбекистон Республикаси Конуни билан тасдиқланган судьяларнинг малака ҳайъатлари тўғрисида Низом (янги таҳрири) / Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси. – 2014. – № 2. – Б. 3-14.

Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т., 1998.

Каримов И.А. Инсон, унинг хукуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – олий қадрият. – Т., 2005.

Каримов И.А. Ўзбекистон демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010.

Каримов И.А. Амалга оширилаётган ислоҳотларимизни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини қуриш – ёруғ келажагимизнинг асосий омилидир. – Халқ сўзи. – 2013.

Борисова Е.А. Апелляция в гражданском (арбитражном) процессе. – М., 2000.

Борисова Е.А. Проверка судебных актов по гражданским делам. – М., 2006.

Борисова Е.М. Апелляция в гражданском (арбитражном) процессе. – М., 2000.

Гражданский процесс: Учебник / Под ред. проф. В.В. Блажеев, проф. Е.Е.Уксусова. – М., – 2015.

Мамасидиқов М.М. Мехнатга оид етказилган моддий ва маънавий зарарни судда ундиришнинг назарий ва амалий муаммолари: Монография. – Т., 2008.

Мамасидиқов М.М. Фуқаролик процессуал ҳукуқи. Умумий қисм: Дарслик. – Т., 2010.

Хабибуллаев Д.Ю. Фуқаролик процессуал ҳуқуқининг тамойиллари ва уларни суд амалиётида татбиқ этиш муаммолари: Юрид.фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат. – Т., 1994.

Шерстюк В.М. Обжалование и проверка судебных решений и определений не вступивших в законную силу, в кассационном порядке: Учебник. Гражданский процесс / Под ред. М.К.Треушникова. – М., 2008.

Шерстюк В.М. Обжалование и проверка судебных решений и определений не вступивших в законную силу в кассационном порядке: Учебник. Гражданский процесс / Под ред. М.К.Треушникова. – Москва: Городец, 2008. – с. 525-551.

Шерстюк В.М. Производство в суде кассационной инстанции: Учебник / Гражданский процессуальное право / Под ред. М.С.Шакарян. – М., 2004.

Шорахметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал ҳуқуқи: Дарслик. – Т., 2001.

Эгамбердиев Э. Алоҳида тартибда суд ишларини юритиш / Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2008.

Эгамбердиев Э. Даъво асосида суд ишларини юритиш / Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2007.

Эгамбердиев Э. Даъво ва унинг элементлари: Ўқув қўлланма. – Т., 2000.

Эгамбердиев Э. Қонуний кучга кирган суднинг қарорларини қайта кўриш / Ҳаёт ва қонун. – 1999. – № 1. – Б. 42-44.

Эгамбердиев Э. Суд ишларини юритиш муаммолари: Ўқув қўлланма. – Т., 2008.

Эгамбердиев Э. Суд қарорларини назорат тартибида қайта кўриш / Ҳаёт ва қонун. – 2002. – №4. – Б.42-44.

Эгамбердиев Э. Судга мурожаат қилиш ҳуқуқи / Ҳаёт ва қонун. – 1993. – № 3. – Б. 58-67.

Эгамбердиев Э. Фуқаролик жараёни ҳуқуқида даъво муаммолари. – Т., 1994.

Эгамбердиев Э. Фуқаролик ишида процессуал муддатлар / Ҳаёт ва қонун. – 1997. – № 5. – Б. 31-39.

Эгамбердиев Э. Фуқаролик процессида прокурорнинг иштироки / Қонун ҳимоясида. – 1997. – № 5. – Б. 32-39.

Эгамбердиев Э. Фуқаролик процессуал ҳуқуқий муносабатлар: Ўқув қўлланма. – Т., 2000.

Эгамбердиев Э. Фуқаролик суд ишларини юритиш турлари ва ўзига хос хусусиятлари. – Т., 2010.

Эгамбердиев Э. Фуқаролик суд ишларини юритиш турлари ва ўзига хос хусусиятлари. – Т., 2010.

Эгамбердиев Э. Фуқаролик суд ишларини юритиш турлари. – Т., 1996.

Эгамбердиев Э. Фуқаролик суд ишларини юритиш турлари. – Т., 1996.

Эгамбердиев Э. Ҳуқуқ ҳимояси сифатида даъво. – Т., 2007.

Эгамбердиев Э. Ҳуқуқни ҳимоя қилишнинг процессуал воситалари /
Ҳаёт ва қонун. – 2002. – № 7. – 35-39-б.

Эсанова З.Н. Оталикни белгилаш тўғрисидаги ишларни судда
кўришнинг хусусиятлари: Монография. – Т., 2005.

Эсанова З.Н., Мамасиддиқов М.М., Хабибуллаев Д.Ю. Фуқаролик суд
ишларини юритишнинг долзарб муаммолари: Монография. – Т., 2014.

Якубов С.А. Стороны в гражданском процессе. – Т., 2006.

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI.....	3
I BOB. SUD HAL QILUV QARORLARI, AJRIM VA QARORLARINING QONUNIYLIGI VA ASOSLANTIRILGANLIGINI TEKSHIRISH	
1-§. Sud qarorlari ustidan shikoyat qilish, protest keltirish va ularni qayta ko‘rishning umumiy qoidalari	6
II BOB. BIRINCHI INSTANSIYA SUDINING HAL QILUV QARORLARI VA AJRIMLARI USTIDAN BERILGAN APELLATSIYA SHIKOYATI (PROTESTI) BO‘YICHA ULARNI QAYTA KO‘RISH (APELLATSIYA TARTIBIDA SUD ISHLARINI YURITISH)	
1-§. Apellatsiya tushunchasi va uning turlari	13
2-§. Fuqarolik ishlari bo‘yicha apellatsiya tartibida ish yuritishning elementlari.....	19
3-§. Fuqarolik ishini appellatsiya instansiyasi sudida ko‘rib hal qilish.....	27
4-§. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini appellatsiya tartibida o‘zgartirish va bekor qilish asosları.....	36
5-§. Apellatsiya instansiya sudining vakolatlari.....	39
6-§. Birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan shikoyat berish va protest keltirish	41
III BOB. QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HAL QILUV QARORLARI VA AJRIMLARI USTIDAN KASSATSIYA TARTIBIDA SHIKOYAT BERISH VA PROTEST KELTIRISH BO‘YICHA ISHLARNI QAYTA KO‘RISH (KASSATSIYA TARTIBIDA ISH YURITISH)	
1-§. Sud hal qiluv qarorlari, ajrimlarini kassatsiya tartibida qayta ko‘rish bosqichi va uning ahamiyati	46
2-§. Kassatsiya instansiya sudiga murojaat qilish huquqi va uni amalga oshirish tartibi	48
3-§. Kassatsiya shikoyatini (protestini) harakatsiz qoldirish, qo‘shilish, to‘ldirish, o‘zgartirish, shikoyatdan voz kechish va protestni qaytarib olish	52
4-§. Kassatsiya tartibida berilgan shikoyatlarni yoki keltirilgan protestlarni ko‘rib hal qilish tartibi	54
5-§. Hal qiluv qarorini kassatsiya tartibida bekor qilish asoslari	62
6-§. Ish bo‘yicha ajrim chiqarish va uni o‘qib eshittirish	66
7-§. Kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari	68
8-§. Kassatsiya instansiyasi sudining ajrimi va uning ahamiyati	73
9-§. Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish va protest keltirish	77
ADABIYOTLAR.....	80

Eminjon EGAMBERDIYEV
yuridik fanlar doktori, professor

**SUD HAL QILUV QARORLARI, AJRIM VA
QARORLARINING QONUNIYLIGI VA
ASOSLANTIRILGANLIGINI
TEKSHIRISH**

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir S. S. Qosimov
Texnik muharrir D. R. Djalilov

Bosishga ruxsat etildi 29. 06. 2016. Nashriyot hisob tabag'i 5,6
Adadi 20 nusxa. Buyurtma №..... Bahosi shartnomaga asosida.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68.